

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

NORMUROD MURODOV

Eski o‘zbek tili va yozuvi

اسجگ؟ بلو؟ ک ت؟ ل؟

و ؟ ازوو؟

Filologiya va tarix fakultetlari talabalari uchun
o‘quv qo‘llanma

Termiz – 2013

Qo'llanma oliy o'quv yurtlari filologiya va tarix fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, undan eski o'zbek tili va yozuvini o'rganishga qiziquvchilar bimalol foydalanishlari mumkin.

Normurod Murodov

Eski o'zbek tili ba yozuvi

Universitet Ilmiy Kengashi tomonidan 2006- yili nashrga tavsiya etilgan

(to'ldirilgan qayta nashr)

Mas'ul muharrir: filologiya fanlari nomzodi, professor
J.OMONTURDIYEV

Taqrizchilar: filologiya fanlari doktori, professor
D.S.QULMAMATOV, filologiya fanlari doktori,
professor A.ABDULLAYEV

UQTIRISH XATI

Mazkur o'quv qo'llanma eski o'zbek tili va yozuvini o'rganish uchun zarur ma'lumotlar berishga mo'ljallandi. Unda bir qator nazariy va amaliy mavzular saralab olindi. Asosan, O'rta Osiyo yozuvlari tarixi, eski o'zbek tili va yozuvining o'ziga xos xususiyatlari, arab xat turlari, ularning O'rta Osiyoda yoyilishi, xususan bu xatlarning turkiy manbalar asosida targib qilinishiga e'tibor berildi. Bundan tashqari o'quvchi ravon va bexato o'qishi uchun matn ustida ishlash, mumtoz adabiy manbalar matnining sharhli o'qish ko'nikmasiga ham ega bo'lishlari uchun ularga Ahmad Yassaviy, Atoiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur va undan keyingi ijodkorlar asarlaridan namunalar o'qish uchun tavsiya etildi. Tayanch tushunchalar sifatida yozma va og'zaki topshiriqlar berib borildi.

Eski o'zbek yozuvini o'rganishning eng sodda, qulay usulidan foydalanish maqsadida, bu boradagi barcha darslik, qo'llanma, ilmiy metodik tavsiyanoma va maxsus maqolalardan foydalanildi.

Hozircha dastlabki ma'lumotlar berish uchun yuqorida ta'kidlanganidek, yozuvning o'ziga xos xususiyatlari, ushbu yozuv tarixidan qisqacha ma'lumot, yozuv alifbosining umumiy tavsifi, ularni hosil qiluvchi shakllar va uning turlari, ushbu shakllardan harfiy belgilar hosil qilish qoidalari jadval, alohida harflarga to'xtalgan holda tushuntirib berildi. Masalan, har bir harfning ona tilimizdagi qaysi tovushga mos kelishi, barcha harfiy belgilarning so'z tarkibida bir tomonlama va ikki tomonlama qo'shib yozilishi, xusnixat qoidasiga binoan satr chizig'i usti va osti harflari, shuningdek, shakldosh va shaklan noo'xshash, bundan tashqari ba'zi tovushdosh harflar kabi guruhlariga bo'linishi ushbu o'quv qo'llanmada o'ziga xos uslubda sodda tilda tushuntirib borishga harakat qilindi. Shuningdek, ba'zi mavzular kengroq tahlil etildi, misollari bilan asoslandi. Yozuv bilan bog'liq ostki va ustki belgilar, arab, fors izofalari, abjad hisobi, tarix bitish, muammo janri, murakkab mavzularni ham nazariy, ham amaliy tushuntirib borishga harakat qilindi.

Ushbu tuzilgan o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan mavjud dasturlar asosida tuzildi va oliy o'quv yurtlarining o'zbek filologiyasi fakultetlari bakalavriat bo'limi talabalari uchun eski o'zbek tili va yozuvini chuqur o'zlashtirishga, keyinchalik mukammal ilmiy mulohaza yurita oladigan filolog – matnshunos, filolog-manbashunos darajasidagi mutaxassislar tayyorlashga yo'llanma beradi.

Qo'llanmani yaratishda ta'limning interaktiv metodlari nazarda tutilib, fors tilidagi audio-video yozuvlar, turli ko'rgazmali qurollar, eski o'zbek yozuvini o'rgatishga mo'ljallangan elektron darslik va teledasturlar, bundan tashqari,

Z.Hamidov "Eski o'zbek tili va yozuvi", T Shermuhamedov, F. Abdullaev, F. Xalilov, A. Xalilovning "O'qish kitobi", Alibek Rustam, Muhammadjon Qodirning "Eski o'zbek tili va yozuvi" darsliklaridan ijodiy foydalanildi.

SO‘Z BOSHI

Eski o‘zbek yozuvi oliy o‘quv yurtlarining universitet va pedagogika institutlari filologiya fakulteti bakalavriat bo‘limlarida dastur asosida o‘qitilish rejalashtirilgan. Universitetning filologiya fakultetlarida birinchi kurs ikkinchi semestrida, tarix fakulteti to‘rtinchi, beshinchi semestrida o‘quv dasturiga binoan o‘qitiladi. Ushbu o‘quv qo‘llanmaga ushbu kurslarda o‘qitiladigan eski o‘zbek yozuvi va tili ma’ruza va amaliy mashg‘ulot matnlari saralab olindi, zarur ilmiy adabiyotlar jamlanib oxirida ko‘rsatildi.

Ma’lumki, ilgari o‘rta maktab o‘quvchilari va oliy o‘quv yurti talabalariga, mustakil o‘rganuvchilarga mo‘ljallangan «Eski o‘zbek tili va yozuvi», «Eski o‘zbek yozuvi», «Arab o‘zbek yozuvi», «O‘qish kitobi» kabi darslik va qo‘llanmalar mutaxassislar tomonidan dastur asosida yozilib, bir necha bor nashr etilgan bo‘lsa-da, bugungi kun o‘quvchisi uchun aniq yo‘llanma beruvchi qo‘llanmalar yetishmayapti. Ayniqsa, o‘zbek yozuvlari tarixi hanuzgacha maxsus ilmiy o‘rganilmagan. Harf, belgi va uning tovushlar tartibi xususida ham maxsus yo‘llanma beruvchi metodik tavsiyanomalar yozilmagan. Eski o‘zbek yozuvining harflari, ularning ba’zilari maxsus ilmiy o‘rganilgan bo‘lsa-da, yozuv bilan bog‘liq harakatlar, ularning qisqa tovush ifodasi kabi imloviy xususiyatlari alohida tushuntirishni taqozo etadi.

Turli davrlarda yaratilgan turkiy(o‘zbek) matnlarida chetdan kirgan arab, fors so‘zlarini to‘g‘ri yozish imlosi ham chigal, o‘quvchiga tezda tushuntiriladigan mavzu emas. Bu esa keng, batafsil izoh berishni talab etadi. Ushbu masalalarga to‘xtalish, eski o‘zbek yozuvini chuqur o‘zlashtirish maqsadida maktab yoshidan boshlab, avvalo matn o‘qiy oladigan darajasida bo‘lishni, oliy o‘quv yurtlarida esa chuqur nazariy va amaliy ma’lumotga ega bo‘lishda mazkur o‘quv qo‘llanma dastlabki foydalanish mumkin bo‘lgan ishlanma hisoblanadi.

BIRINCHI DARS

ARAB ALIFBOSIGA ASOSLANGAN ESKI O‘ZBEK YOZUVI

O‘rta osiyo xalqlari VII asrdan to 1930- yilgacha o‘z yozuvlarida arab alifbosini ishlatib kelganlar. Arab tili tovushlariga moshlashgan va shu tilning tovush sistimasini to‘la aks ettira olgan arab alifbosi o‘zbek tovushlarini to‘la ifodalay olmaydi. Bunga sabab birinchidan, o‘zbek tili fonetik sistemasiga tamomon yot bo‘lgan bir necha tovush va belgilarning arab tilidan kirib kelishi bo‘lsa, ikkinchidan, o‘zbek tilining xususiyatlarini ifoda etuvchi tivushlarning ifodalavchi ma‘lum harflarning arab alifbosida yo‘qligi bo‘ladi.

Arab alifbosi 28 harfdan iborat bo‘lib, O‘rta osiyo xalqlari o‘zlariga xos tovushlarini ifodalash uchun qo‘shimcha ravishda quyidagi 4 harfni kiritdilar

گ ژ چ پ

Shunday qilib o‘zbek- arab alifbosida 32 harf hosil bo‘lgan. Bu harflar asosan 16 belgidan iborat bo‘lib, ulardan bir qanchasini ost yoki ustiga bir, ikki va uchtdan nuqta qo‘yish orqali ularning soni ko‘paytirilgan. Bu belgilar quyidagilar:

ا ب ح د ر س ص ط ع ف ك ل م و ی ه

Bulardan 6 tasi ا ل م و ی ه yangi harf yasash uchun ishtirok etmaydi. Qolgan 10 belgi esa o‘zining nuqtali yoki nuqtasizligiga, nuqtalarning o‘rni va miqdoriga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.

1. ب shaklining tagiga bir nuqta qo‘ysak, ب b harfi; ostiga uch nuqta qo‘ysak, پ p harfi; ustiga ikki nuqta qo‘ysak ت t harfi; ustiga uch nuqta qo‘ysak, ث s harfi va bu shaklni cho‘ziq emas, yarim doira shaklida yozib, ustiga bir nuqta qo‘ysak, ن n harfi hosil bo‘ladi.

2. ح shakli o‘zi h tovushini ifodalaydi. Ostiga bir nuqta qo‘ysak, ج j (dj) harfi; ostiga uch nuqta qo‘ysak, چ ch harfi; ustiga bir nuqta qo‘ysak خ x harfi hosil bo‘ladi.

3. د shaklining o‘zi d tovushini ifodalaydi. Ustiga bir nuqta qo‘ysak, ذ z harfi hosil bo‘ladi.

4. ر shaklining o‘zi r tovushini ifodalaydi. Ustiga bir nuqta qo‘ysak, ز z harfi, uch nuqta qo‘ysak, ژ j (sirg‘aluvchi) harfi hosil bo‘ladi.

5. س shaklining o‘zi s tovushini ifodalaydi. Ustiga uch nuqta qo‘ysak ش sh harfi hosil bo‘ladi.

6. ص shaklining o‘zi s tovushini ifodalaydi, ustiga bir nuqta qo‘ysak ض z harfi hosil bo‘ladi.

7. ط shaklining o'zi t tovushini ifodalaydi. Ustiga bir nuqta qo'ysak ظ z harfi hosil bo'ladi.

8. ع shaklining o'zi ayn (vaziyatga qarab a, i yoki u tovushlarini bildirishi mumkin) deb atalib, ustiga bir nuqta qo'ysak غ g' harfi hosil bo'ladi.

9. ف shaklining ustiga bir nuqta qo'ysak ف f harfi; bu shakl doirasini chuqurroq yozib, ustiga ikki nuqta qo'ysak, ق q harfi hosil bo'ladi.

10. ك shaklining o'zi k tovushini ifodalaydi. Ustiga uch nuqta qo'ysak, گ g harfi hosil bo'ladi. Bu harf odatda uch nuqta o'rniga bir uzun chiziq qo'yib yoziladi.

Eski o'zbek grafikasida nuqtalarning o'rni va miqdori katta ahamiyatga ega ekanligini e'tiborga olib, ularni diqqat bilan kuzatib borish kerak. Chunki nuqtalarni noto'g'ri qo'yish so'zni tushunmaslikka olib keladi yoki ma'noni butunlay o'zgartirib yuboradi.

Agar arab-o'zbek alifbosiga nazar tashlasak, bir tovushni ifodalash uchun bu yozuvda 2, 3, 4 harf mavjudligini ko'ramiz. Masalan:

Z tovushini ifodalash uchun ظ ض ذ ز

S tovushini ifodalash uchun ص س ث

T tovushini ifodalash uchun ط ت

H tovushini ifodalash uchun ح ه

Yuqoridagi har bir harf arab tilida bir-biridan keskin farq qiladigan tovushlarni ifoda etadi va ularning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bu tovushlar o'zbek tiliga arab so'zlari bilan birga kirib kelgach, o'zlarining talaffuz xususiyatlarini yo'qotib, o'zbek tili fonetik qoidalariga moslashgan. Buning natijasida bir tovushni ifodalash uchun bir necha arabcha mustaqil harflar ishlatiladi. O'zbek tilida bu harflar ifoda etgan tovushlar orasida hech qanday farq yo'q. Lekin o'zbek tili lug'at boyligiga kirgan arab so'zlarida arablar qaysi harfni qo'llagan bo'lsalar, o'zbeklar ham shu so'zni yozishda o'sha harfni ishlatadilar.

Eski o'zbek alifbosidagi hamma harflar yozuvda bir-birlariga qo'shilish yoki qo'shilmasligi jihatidan ikki guruhga bo'linadi:

1. O'zidan oldingi harfga qo'shib, keyingisiga qo'shilmaydigan harflar.

2. O'zidan oldingi va keyingi harflarga qo'shib yoziladigan harflar.

Birinchi guruh harflari yettita bo'lib, fors grammatikasida حروف منفصلة ho'ruf-e mo'nfasele (ayrilgan harflar) deb ataladi. Bular quyidagilar: ا alif, د dol, ذ zol, ر re, ز ze, ژ je, و vov.

Bu yetti harfning har biri yozuvda bir shaklda bo'ladi:

1. Yolg'iz yoki o'z oldidagi harf bilan qo'shilmay kelgan shakli:

ا د ذ ر ز ژ و

Ikkinchi guruh harflari 25 ta bo'lib, fors grammatikasida حروف متصله ho'ruf-e mo'ttasele (qo'shilgan harflar) deb ataladi.

Ikkinchi guruh harflari o‘zidan oldingi hamda o‘zidan keyingi harflar bilan qo‘shilib yoziladi. Shu sababdan, ikkinchi guruh harflari yozuvda alohida kelishdan tashqari, yana ulangan shaklda ham bo‘ladi. Bu harflarning alohida shakli hech qanday o‘zgarishsiz, alifboda qanday berilsa, shunday yoziladi.

ب پ ت ث چ ج ح خ س ش ص ض ط ظ ع غ ف ق ک گ ل
م ن ه ی

Ulanadigan shakli esa munfasil harflardan oldin kelganda bir tomondan muttasil harflar bilan kelganda ikki tomondan ulanib yoziladi.

1- mashq. O‘qituvchidan so‘ng takrorlang:

a) shakk, sheddat, tebby, sarrof, afzudan, alifbo, nesbat, yekto, nesbatan.

2- mashq. Quyidagi so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qing va daftaringizga ko‘chirib yozing:

دود، دوز، رود، وادار، دور، را، داد، ارد، ادا، زار، راز

3- mashq. Quyidagi so‘zlarni arab-fors harflari bilan yozing:

Dur, dud, rud, do‘ur, ruz, zud, doru, roz, dodor

	tovush nomi	talaffuzi	tovoshning yozma shkli
1	alif	a,o	ا
2	be	b	ب
3	pe	p	پ
4	te	t	ت
5	se	s	ث
6	jim	j	ج
7	chim	ch	چ
8	he (hoye hutti)	h	ح
9	xe	x	خ
10	dol	d	د
11	zol	z	ذ
12	re	r	ر
13	ze	z	ز
14	je	zh	ژ
15	sin	s	س
16	shin	sh	ش

17	sod	s	ص	صد
18	zod	z	ض	خذ
19	to	t	ط	ط
20	zo	z	ظ	ظ
21	ayn	‘	ع	ع
22	g‘ayn	g‘	غ	غ
23	fe	f	ف	ف
24	qof	q	ق	ق
25	kof	k	ک	ک
26	gof	g	گ	گ
27	lom	l	ل	ل
28	mim	m	م	م
29	nun	n	ن	ن
30	vov	v	و	و
31	he (hoye havvaz)	h	ه	ه
32	yo	I, y	ی	ی

ایستاد و زویش شص طریح
فوق کت کت لیمین
وہی لایہ می ہے

IKKINCHI DARS

Munfasil harflar

Munfasil harflar o'zidan oldingi harflar bilan ulanib, o'zidan keyin kelgan harflar bilan ulanmasdan yozilgani uchun ikki xil ko'rinishga ega: alohida va qo'shilgandagi holati. So'z boshida va alohida kelganda bir xil yoziladi, chunki so'z boshida kelganda o'zidan oldin harf kelmaydi. So'z ortasida va oxirida esa o'zidan oldin kelgan harf bilan ulanib yoziladi. Agar munfasil harflar o'zaro kelsa, so'z tarkibidagi barcha harflar alohida yoziladi.

Eski o'zbek yozuvining bir necha turi mavjuddir. Nasx eski o'zbek yozuvining bosma turi bo'lib, boshqa yozuv turlaridan doimo aniq va bir xil ifodalanishi bilan farqlanadi. Yozilishi va o'qilishi aniq va sodda bo'lganligi uchun kitob, gazeta va jurnallarni chop qilishda keng foydalaniladi.

Nastaliq – yozuvning qolyozma turi bolib, kitoblar nashr qilina boshlanguncha asosan, shu yozuv turidan keng foydalanilgan. Nastaliq yozuvi bugungi kunda eronlik va afg'onistonliklarning o'zaro yozishmalarida uchraydi. Devor yozuvlarida, plakatlarda, reklama va shiorlar yozishda nastaliqning shikasta bilan omixtalashgan shakli qo'llanilmoqda.

Kufa va sols aksariyat hollarda Qur'onni yozishda, madrasa, masjidlarning gumbaz va peshtoqlaridagi yozuvlarda uchratish mumkin.

O'zidan keyingi harf bilan ulanmaydigan harflar

Alohida shakli	Harf nomi	Talaffuzi
ا	alif	So'z o'rtasida va oxirida – O
د	dol	D
ذ	zol	Z – asosan arabcha so'zlarda uchraydi
ر	re	R
ز	ze	Z
ژ	je	J – arabcha so'zlarda uchramaydi (sirg'aluvchi)
و	vov	So'z boshida va unlilar orasida – V, undoshlar orasida va so'z boshida – U, O'


Nasx yozuvida ba'zi harflar satrda (ا د ذ), ba'zi harflarning bir qismi satrda qolgan qismi esa satr ostida yoziladi (و ژ ژ و). Satr chizig'iga qat'iy rioya qilib yozish nasx yozuviga xosdir.

Nastaliq yozuvida esa barcha harflar satr chizig'ida yoziladi. Harflarni bir satrda yozish yozuvni chiroyli ko'rsatish bilan birga harflarni bir-biriga yaqin joylashishiga imkon yaratadi.

Oldingi paytlarda eski o'zbek yozuvida tinish belgilari qo'yilmagan, nastaliqda so'zlar orasi ajratib yozilmagan. Bu arab yozuvini o'rganuvchilarga qiyinchilik tug'dirgan. Hozirgi paytda barcha tinish belgilari yozuvda

ifodalanayapti. Faqat vergul, nuqtali vergul va so‘roq belgilari teskari holda ifodalanayapti .

Arabcha, ruscha va lotincha harflarning kelib chiqish asosi bittadir. Ular eng qadimgi somiy alifbosidan oldingi tasviriyy yozuv asosida yaratilgandir. Arabcha alif ruscha „A“ va grekcha „a“ alfa qadimgi somiy tasviriyy yozuvdagi alp-



ho‘kizning boshi tasviridan kelib chiqqan. Alif tasviriyy yozuvdagi ho‘kiz shoxlarini bir-biriga bog‘lab turuvchi vertikal (tik) chiziq asosida, ruscha va lotincha „A“ ga esa ho‘kiz boshi, tumshug‘i va shoxlarini birlashtirib turuvchi chi‘ziq asosida shakllangan. Dol harfi tasviriyy yozuvdagi dalt – eshik va re harfi esa ra’sh – bosh (odamning boshi) tasviri asosida paydo

bo‘lgan.

Zol, re, ze harflari esa yuqoridagi harflarga nuqta qo‘yish asosida yaratilgan

Vov harfi tasviriyy yozuvdagi waw – ilgak shakli asosida yasalgan. Qadimda ilgakning ikki aylanali va ayri shakllari mavjud bo‘lgan. Aylanali ilgakdan arab

yozuvidagi „vov“, ayri ilgakdan yevropa yozuvidagi „v“ ga asos qilib olingan.

4- mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va ko‘chirib yozing.

وادر، رو، راز، رود، زور، دارو، روز، زود، دادا، دا، آد، آدا، آدا، ذادا،
دانا، دود، ذاد، دار، دارا، ارا، اررا، دررا، دارا، ارز، ادر، زادا، زارار، ژارا، آذا
داراژا، آو، وا، اووادا، داو، واو، راوا، واز، دروازا، آواز، داورا، دور.

5- mashq. Eski o‘zbek yozuvida yozing.

Ruz, doro, doru, roz, dodor, dur, zur, vodor, rud, dud, ru, joj, ro, duz,
dada, ada, oda, oz, zod, zoda, ado, rad, orada, arrada, ora, Doro, dorda, zora,
ozod, zar, zarda, oraz, arz, araz.

UCHINCHI DARS

H a r a k a t l a r

Eski o‘zbek alifbosida undosh tovushlar va cho‘ziq unlilar harflar bilan yoziladi. Qisqa a, e, o‘ unlilarini ifodalash uchun esa harflarning osti va ustiga qo‘yiladigan harakatlar qo‘llaniladi. Odatda, bu belgilar yozuvda har doim qo‘yilavermaydi, yozuvni o‘rganish jarayonida darslik va qo‘llanmalarda, lug‘atlarda, shuningdek, eski o‘zbek tiliga arab tilidan kirgan so‘zlarni qanday talaffuz etilishini ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

Harakatlar

harakatlar	Nomi	talaffuzi
◌َ	zabar, fatfa	a
◌ِ	zir, kasra	e
◌ُ	zamma, pish	o‘

Yuqorida ketirilgan harakatlar undoshlarning osti va ustiga qo‘yiladi:

1. ◌َ belgisi zabar (arabcha – fatha) deb nomlanib ustida, tepasida degan ma’noni anglatadi. دَر dar – eshik زَرْد zard – sariq

2. ◌ِ belgisi zir (arabcha – kasra) deb nomlanib ostida, tagida degan ma’noni anglatadi. پَدَر pedar – ota, دِرَاز deroz – uzun.

3. ◌ُ belgisi pish (arabcha – zamma) deb nomlanib old, oldida degan ma’noni anglatadi. تُوْند to‘nd – tez, دُوْرد do‘ro‘d – salom.

4. ◌° belgisi sukun deb nomlanadi. Bu belgi undosh ustiga qo‘yilib, shu undoshdan so‘ng unli yo‘qligini, ya‘ni bo‘g‘inning yopiqqligini bildiradi. دَو dav – yugur دِي dey – kun.

6-mashq. Quyidagi bo‘g‘nlarni o‘ngdan chapga qarab o‘qing.

زَرْد دُرُو دَذُر رِدِد زِرُو

7- mashq. Ikki ko‘rinishli harflardan foydalanib harakatlar yordamida so‘zlar tuzing.

اَدَر دار دارا آدا را راز زار اَر اور اود اداد وار راو دوز روز ذاد رَوا
دود رود دِرُو آو راو

TO‘RTINCHI DARS

ب، پ، ت، ث، ن، ی harflarining ifodalanishi

ب be harfi b tovushini, پ pe harfi p tovushini, ت te harfi t tovushini, ث se harfi s tovushini, ن nun harfi n harfini, ی yo harfi i, y tovushlarini ifodalaydi. Bu harflar shakl jihatdan bir xil yoziladi, faqat nuqtalarning o‘rni va miqdori bilan farqlanadi. Bu harflarning to‘rt xil ko‘rinishi bor: alohida, so‘z boshida, so‘z o‘rtasida, so‘z oxirida. Alohida va so‘z oxiridagi ko‘rinishi bir ulanadigan elementi bilan farqlanadi. So‘z boshida va o‘rtasida esa har ikki tomonidan ulanadigan ko‘rinishi bilan ifodalanadi. Shuning uchun biz bu harflarni ikki ko‘rinishini tanladik: alohida va qo‘shlgandagi holati.


ن nun va ی yo harflari yuqoridagi harflar bilan soʻz boshida va oʻrtasida bir xil yozilib, nuqtasi bilan farqlanadi. Alohida va soʻz oxirida esa oʻziga xos yoziladi.

qoʻsh shakli.	alohi da	talaf-fuzi	nomi
ب	ب	b	be,bo
پ	پ	p	pe
ت	ت	t	te
ث	ث	s	se
ن	ن	n	nun
ی	ی	i, ye	ye, yo

Pe harfi eski oʻzbek tiliga xos harf boʻlib, arab tilida uchramaydi.

Bu harflarning nasxda yozilishi, nastaliqda esa soʻz boshidagi va oʻrtasidagi koʻrinishlari juda kichik yoziladi. Asosan nuqtasiga qarab qaysi harf yozilganligini ajratamiz.

Oʻzbek-arab yozuvida bir satrdan ikkinchi satrga koʻchirilmaydi. Satrdagi yozuvlar bir xil boʻlishi uchun harflar orasi choʻzilib yoki qisqartirib yoziladi. Choʻzib yozish soʻzning oʻqilishiga taʼsir qilmaydi. Choʻzib yozish bir satrda bir soʻzda uchrashi mumkin. Ikkinchi satrdagi choʻzib yozilgan soʻz birinchi satrdagi soʻzning ostigi tushmasligi kerak.



Be harfi eng qadimgi tasviriy yozuvdagi bayt – uy shaklidan, nun esa nun- ilon shaklidan, yo esa yad – qoʻlning tasviri asosida yaratilgan.

8 - mashq. Quyidagi soʻzlarni oʻqing va koʻchirib yozing.

با، پا، نا، دیوار، تا، بازو، زانو، بیدار، بان، بی، بید، تیر، بینی، پیر، دیروز، بابا، بتران، بیرون، نیرو، بادبان، زیر، ابر، آب، ببر، بار، وزرا، بازار، باد، باب، تار، تارا، آتا، بوئا، تور، توت، تاب، تاوبا، تارت، توز، تاوار، تارووز، اورتار، اثر، ثواب، تاثیر، ثابت، ثبوت، ثاپ، پدر، پارا، روپارا، پارا، پاتر، آپا، پردا، نون، نور، نار، نان، آنا، بوتون، ناروان، راوات، پانا، یاپ، یار، یور، یوز، یوت، یای، دریا، آی یور، اوتیر، دیدی، بیز، اوتین، نانوا، پیر.

9 - mashq. Berilgan soʻzlarni oʻqing va koʻchiring.

بای وای یای یاو یاوایی بازار بازار آباد بو زبان آزاد دارو درد بابا برار بو توتزاردور او توتدور توتزارد تورتتا آت باردور آزاد توتزارد توت تارتادی او ترازودا توت باردور. توت دارودیر بابا توت ییدوربابا و ادا آب و او و او و وای او و راز داد و وای

10 - mashq. Ushbu matnni koʻchirib yozing.

او توتزاردور توتزارد توت ییدور بو توت یاتادور ابرار بازار باردی او ترووزدان تاتدی آت و توت ایت و ایز و او و یای آی و او ییاد و یات بو آباد بازاردور آزاد بازار باردی بو آپادور و او آتادور آپا انا توت دیدی آزاد توپ تیپار ایردی

11- mashq. Eski o'zbek yozuyida yozing.

Bozor, bi, pir, non, bo, tir, bodbon, yo, divor, dir, zonu, birun, bidor, zir, bini, bobo, bonu, to, po, bozu, to, bob, barobar, buvi, rubob, barbod, arbob, ovora bordur, zardod.

Eslatma: Agar "u" yoki "o' " boshlangan o'zbekcha so'zlar arab harflari bilan yozilsa او shakli ishlatiladi.

Ura, – او	Ur, o'r – اور	O'zar – اوزار
O'ra – اورا	uz, o'z – اوز	un, o'n – اون
o'p – اوپ	uvada – اوودا	o't – اوت

12 - mashq. O'qing. Yozing.

yu – يو	yo – يا	tay – تى	bay – بى
yur – يور	yor – يار	pay – پى	zay – زى
yuz – يوز	yop – ياپ	say – تى	ray – رى

Izoh: Yoy harfi vovdan oldin kelsa "yu", alifdan oldin kelsa "yo", zabar (fatha)dan keyin kelsa "y" deb o'qiladi.

13-mashq. O'qing. Yozing.

Izoh: Agar o'zbekcha so'z "i", yoki "e" bilan boshlangan bo'lsa, harflari bilan yozganda اى shakli ishlatiladi.

ايت، ايپ، ايزى، اين، ايمدى، ايتار، ايتدى، ايندين، ايرتا.

Yoy harfi quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) ba'zan yoy so'zining o'rtasida "y" shaklida talaffuz etiladi.

bedor – بيدار	dedi – دیدى
deb – ديب	berdi – بىردى
terdi – تىردى	bezdiridi – بىزدىردى

b) Yoy harfi alif, vov, yoy, harflaridan oldin va keyin "y" deb o'qiladi, iz – ايز , er – اير kabi s o'zlar bundan mustasno.

oy – آى	uy – اوى	yoy – يى
edi – يى	yuz – يوز	boy – بى

Eslatma: O'bek tilidagi o'tgan zamon f e'lining "di" qo'shimchasi bilan tugagan III shahsini eski o'zbek yozuvida yozilsa, albatta yoy harfining yakka holi yoki so'z oxiridagisini ishlatish shart. Masalan: yopdi – ياپدى etdi – يىتدى yutdi – يوتدى bitirdi – بىتيردى boy berdi – بى بىردى botirdi – بوتىردى boryapti – باريپت o'tidi – اوتىردى

BESHINCHI DARS

Sin va shin harflari س

Sin va shin tovushlari o'zbek tilidagi s, sh tovushlari kabi talaffuz etiladi. Sin, shin harflari uncha katta bo'lmagan tishlarning bir-biriga ulanishi, alohida ko'rinishda esa tishlardan so'ng nunga o'xshash katta aylana bilan tugaydi.

qo'sh. hol	olohida	talaffuz	nomi
س	س	s	sin
ش	ش	sh	shin

Nastaliq yozuvida sin va shin harflari tishlarsiz cho'ziq chiziq bilan ifodalanadi. Shin harfi tasviriy shakldagi



yo'zuvning shinn – tish deb nomlangan tasviridan kelib chiqqan. Sin harfi esa shin harfi asosida yasalgan.

14 - mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va yozing.

سین، اسد، اسواد، سایللو، مونس، سیاسی، ساز، مدرسه، خمسه، ساچ، سوال، دوست، سورادیلار، سورادیکه، سرور، سربان، ساره، ساکرادی، آی نسه، سلام، سیندی، سفره، کرسی، درس، سیاحت، ساجیده، سنفلار، دلشاد، شاکرد، شکر، کیشی، آش، شهرت، شهر، شجره، شمس، مشهور، ییتیشدی، دشت، شیرین، شبان، شمال، مشرب، توشدی، یخشی، شب، اسب، پسر، داداش، شیراز، دیشب، شیراز، آش، سبز، استاد، آسمان، اُستان، شیرین، سیب، آشنا، دوست، شش، درست، آسیا، شتر، ساز، سی.

15 - mashq. Quyidagi so'zlarni eski o'zbek yozuvida yozing.

Oshno, pesar, sabz, do'ro'st, dust, sar, ustod, oson, Osiyo, sho'to'r, dishab, sir, asotid, asad, asvod, munis, savohil, sarbon, madrasa, sayohat, xamsa, surur, Sora.

16 - mashq. Ushbu matnni o'qing.

بو دشتدور دشت آباد و سبزدور آزاد تاش آتور بو بازاردور اوشبو بازار آبادور بو باتردور باتر سرداش دوستدور

17 - mashq. Ushbu matnni ko'chirib yozing.

بو آزاددور او باتردور آزاد و باتر دوستدور. باتر سرداش دوستدور آزاد تاش آتور بو بازاردور اوشبو بازار آبادور آزاد و باتر بازار باریشدی آپاسی اویدا آش پیشیور آتاسی انار اوزار ایردی

18 - mashq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Qachon so'zning oxirida kelgan yakka holi yoziladi
2. So'zning ikkinchi harfi sin, birinchi harf alif. Sin harfining qaysi holatini yozasiz
3. Birinchi harf ikki ko'rinishli, ikkinchi va oxirgi harflar bir ko'rinishli. Shu harflar ishtirokida so'z tuzing.

19 - mashq. O'tilgan harflarni alifga nisbatan yozing. Sin harfiga so'z tuzing.

OLTINCHI DARS

Kof va gof

گ ک

(K,G)

Kof va gof harflari quyidagicha yoziladi

so'z boshi.	alohida	talaffuzi
ک	ک	k
گ	گ	g

Kof va گ gof harflari ا alif, ل lom harflari bilan kelganda ba'zi o'zgarishlar ga uchraydi.

کا = ا + ک k + o = ko

کار kor –

ish کاج koj – egri

گا = ا + گ g + o = go گاو gov – qora mol گاری gori – arava

ك ← √ → K

Arabcha kof va yevropacha „ k „ harflari qadimgi somiy tasviriy yozuvdagi kapp – kaft tasviri asosida hosil bo'lgan.

12- mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va

ko'chirib yozing.

کوز، کور، کون، یازدیک، پاک، کورتاک، اوریکی، ناک، کیراک، کوک، کتاب، اوزوک، کوپ، ایتیک، کین، کاتب، گوناگون، گودک، ایگا، ایناگا، گایردی، نیگا، بیزاویدا کتاب نیکوردیک، بو اثر کنتا اکان

Lom harfining yozilishi

ل Lom harfi ا alif, ک kof, گ gof harflari bilan yozilganda ma'lum o'zgarishlarga uchraydi.

so'z boshi	alohida	talaffuzi
ل	ل	l

لا = ا + ل

l + o = lo

کلا = ک + ل + ا

k + l + o = klo

کل = ک + ل

k + l = kl

گلا = گ + ل + ا

g + l + o = glo

گل = گ + ل

g + l = gl

ل ← 9 → λ

Lom harfi tasviriy yozuvdagi lamd – hassa, aso belgisi asosida yaratilgan. Kirill yozuvidagi „ Л „ harfiga, yunoncha lyamda ham shu shakl asos hosil

bo'lgan.

20 - mashq. Quyidagi so'zlarni yozing va o'qing.

آلو، گلابی، حال، بله، احوال، حالا، لانه، پلو، بلند، دولتی، پول، لب، گل، لاله، بلبل، آل، بال، اول، یول، آلدی، بولدی، اولدی، لذیذ.

Izoh: Lom va alif harflarining qo'shiluvidan lomelif hosil bo'ladi va u "lo" yoki "la" deb o'qiladi. Masalan:

avlod – اولاد loy - لای lola – لاله Zilola – زیلاله lov-lov بولالو bola – باله لاو-لاو

21- mashq. Quyidagi soʻzlarni arab harflari bilan yozing.

Tol, Nil, Laziz, bol, bolalar, loy, poylab, poyladi, dol, lol, dalil, bel, belda, lobar, lop, tillo, boylaydi.

22- mashq. Quyidagi soʻzlarni bir qatordan yozing.

لا، لا ، كا،كا، گا، گا، كلا، كلا، گلا، گلا، بیلان، لای، لاث، لاو، ایلان، تیلار، میلاد، بیلار، پالاول، اولاد .

Izoh: Lom-alif oʻzidan keyingi harflarga qoʻshilmaydi, chunki lom harfidan keyin alif turibdi. Shuning uchun lom alifdan soʻng ikki yoki toʻrt koʻrinishli harf soʻzning oxirgi harfi boʻlib kelsa, uning yakka holi yoziladi.

م Mim harfi

Mim harfi oʻzbek tilidagi "m" harfini ifodalaydi. Bu harf har ikki tomondan ulanib yoziladigan harflar sirasiga kirganligi uchun ikki xil koʻrinishga ega. Mim harfining soʻz boshidagi koʻrinishi hoye havvazga oʻxshab ketadi. Bu harfni yozishda satr chizigʻidagi soat harakatiga teskari yoziladigan bir aylana boʻlib, oʻzidan keyingi harfga qoʻshiladigan element chap tarafga chiqariladi.

Qoʻsh. Hol.	alohida	talaffuzi
م	م	m

23 - mashq. Quyidagi soʻzlarni oʻqing va yozing.

مرد، مَن، مَرْدُم، زَمِين، مِهْر، مُرْدَاد، هَمَان،
مادر، میدان، میوه، هَمِين، اِمْرُوز، مَهْتَاب، مِیم، آدم،
یامان، مین، مای، مال، مالا، لام، مدار، آمان، ایمدی، مریم میدان نی ایلانمدی، آمان
بیلان مدار دام آلیایپتی لار .



Mim harfi eng qadimgi somiy tasviriy yozuvdagi maw – suv belgisidan kelib chiqqan.

24 - mashq. Quyidagi soʻzlarni eski oʻzbek yozuvida yozing.

Havo, hasht, hammom, hamin, miz, moʻhandes, mard, emshab, mahtob, modar, mehrabon, osmon, medod, zaminshenos, siyoh, sard, hamishe, dah, sharh, ravshan.

25 - mashq. Quyidagi maqollarni oʻqing, yozing.

برلیک بار تیریکلیک بار یورتی باینینگ اوزی بای

Izoh: Eski oʻzbek yozuvidagi baʼzi matnlarda oʻzbek tilidagi qaratqich kelishigining qoʻshimchasi نینگ -ning ni anglatadigan shunday shakli uchrab turadi. Gof harfining yakka yoki soʻz oxiridagi holati ustida uch nuqta tursa، ك - ning deb oqish lozim.

یاشلیکدا بیز شاگرد اوزگالار استاد
سونگرا استاد بولوب دل ایتارمیز شاد

YETTINCHI DARS

Hoye havvaz ۋ harflari


Hoye havvaz asosan “h” undosh harfini ba’zan so‘z oxirida „e“ unli harfini ifodalaydi. Hoye havvaz to‘rt ko‘rinishga ega: ھ ھ ھ ھ

so‘z oxiri.	so‘z o‘rtasi.	so‘z boshi.	alohida	talaffuzi.
ھ	ھ	ھ	ھ	h

He harfining so‘z boshidagi, o‘rtasidagi ko‘rinishida bir chiziqli harfning o‘rtasidan o‘tib o‘zidan keyingi harfga ulanadi. Shunda "h" harfida ikki ko‘z hosil bo‘ladi. Shuning uchun fors tilida bu harfni های دو چشم "hoye do‘ cheshm" (ikki ko‘zli he) deb atashadi.

Nastaliq yozuvida hoye havvaz so‘z boshida bir tish ostida vergulga o‘xshash belgi qo‘yish bilan, so‘z o‘rtasida faqat satr ostida, so‘z oxirida esa satr chizig‘ida yoziladi.

Hoye havvaz harfi („a“ shakl) eramizdan oldingi ikki minginchi yillarda misr ieroglifi asosida („b“ shakl) yaratildi. Eramizdan oldingi birinchi ming yillikda shakli o‘zgarib shimoloy – somiy yozuvida („B“-shakl) shakliga ega bo‘ladi. Keyingi o‘zgarishlar asosida lotincha „E“ harfi paydo bo‘ladi (r – shakl). Somiy alifbosida esa „h“ tovushini ifodalaydi. Yunonlar bu harfni „e“ unli harfini ifodalashga moslashtiradilar.



26 - mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va yozing.

هرات، بهار، ناهار، مهمان، تهران، آنها، ده، مهربان، پیراهن، هوا، راهرو،
نهار، واژه، به، اینها، همای، راه، هر، بهتر، آهن، هوا.


Qof ق va fe ف undosh tovushlari

"Q" tovushi eski o‘zbek yozuvida tilida jarangli, sirg‘aluvchi, chuqur til orqa tovushidir.

Qo‘sh Hol	alohi da	talaff uzi
ف	ف	f
ق	ق	q

Qof, fe harflari har ikki tomondan qo‘shiladigan (muttasil) harflar sirasiga kirib, to‘rt xil ko‘rinishga ega.

Qof harfi esa fe harfiga o‘xshash yoziladi. Faqat ikkita nuqtasi bo‘lib, satrdan pastda yoziladigan qismi chuqurroq aylana shaklda bo‘ladi.



Qof harfi qadimgi somiy tasviriyy yozuvdagi qof – ignaning ko‘zi belgisi asosida hosil qilingan. Arabcha „fe“ va yevropacha „Ф“, harflari ham shu belgi asosida

yaratilgan.

27 - mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va yozing.

ققس، نفیس، فیل، نفیسه، فاتح، الیف، فراغت، فاش، دَفتَر، فاحش، ا قلا، طون،
افندی، فرغانه، فلسفه، لاف، قهوه، شرق، رُفقا، وقت، شرقی، قاشُق، قَلَم، اِنقلاب، بُشقاب،
تقریبا، رفیق، مُسابقه.

28 - mashq. Quyidagi so'zlarni eski o'zbek yozuvida yozuvida yozing va o'qing.

G'azo, sharqiy, g'arb, vaqt, qosho'q, cheroy, rufaço, enqelob, kog'az, sharq, g'arb, bo'shqob, qahve, qalam, taqriban, g'arbiy, bog'.

بهار بولوب هوا ايليق
آقار سوولار تينيق تينيق
قوشلار سايرار الوان الوان
بو روز نوروز شيرين زمان

O'zbek tilida hoye havvaz harfi h, a, i, e tovushlarini ifodalaydi.

1. He harfi arab tilidan o'zbek tiliga kirib o'zlashgan ba'zi atoqli otlarning qo'shimchasi sifatida kelib, "a" tovushini anglatadi. Bunda so'z oxiridagi he harfi ◦ shaklda ham kelishi mumkin. Masalan:

Malika – مليكه

Karima – كريمه

Nodira – نادره

Nargiza – نرگيزه

Vazira – وزيره

Kabira – كبيره

Komila – كامله

Hamza – همزه

2. He harfi ba'zan so'zning oxirida kelib "i" yoki "e" unlilarini ham anglatadi. Masalan:

Aytdiki – ايئدى كه – ne (nima) – نه (نيمه) balki – بلڪ

SAKKIZINCHI DARS

ج Jim, چ chim, ح he, خ xe, harflarining yozilishi

Bu to'rt harf bir xil shaklda yoziladi. Faqat nuqtalarining o'rni va miqdori bilan farqlanadi. Bosma va yozma shakllari o'zidan oldingi harf bilan ulanishidan farq qiladi. Bosma (nasx)da yozilganda harflarning shakli o'zgarmaydi. Bunda qalam qog'ozdan uzib yoziladi. Yozmada (nastaliqda) qalam qog'ozdan uzilmasdan bir-biriga ulanib yoziladi.

Qo'sh. Hol	alohida	o'qil.	nomi
ج	ج	j	jim
چ	چ	ch	chim
ح	ح	h	he
خ	خ	x	xe

Bosma shaklining ulanishiga misollar حجاج hujjoj – haj qiluvchilar, حجم hajm – hajm چرخ charx – g'ildirak, خرج xarj – sarf, xarajat.

He harfi bo'g'izdan chiqadigan tovushni anglatadi. O'zbek tilida bunday tovush yo'q. Bu harfning

ikkinchi nomi hoye huti abjad hisobidagi uchinchi so'zdan olingan.

Mazkur harflarning yozilishiga jim harfi asos qilib olingan. Jim harfi



qadimgi somoy tasviriy yozuvdagi qaml – tuya tasviridan yasalgan. Kirill yozuvida "Г" shu asosida shakllagan. Chim, hoye huti, xe harflari esa jim asosida paydo bo'lgan.

29 - mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va yozing.

جیم، جان، جام، جمال، مجنون، جمیلہ، جہالات، جنجال، جهان، تاجر، جودہ، گنج، چال، اوچون، اوچ، چیت، آت، چاپر، بر نیچہ، کیچیک، چمن، آنجا، چاپ، اینجا، چپ، چوپ، چتر، چہ، چای، چی، دختر، تختہ، جا، خیر، نخر، پنج، حزب، جوان، چہار، چرا، نخ، یخ، پختہ، حال، احوال، محکم، محکوم، حکمت، حکیمزادہ، حکما، حزین، بلخ، خال، خالہ، خزینہ، خزان، خام.

30 - mashq. Quyidagi namunalardan foydalanib jim va che harflariga doir so'zlar yordamida gaplar tuzing.

مرجانه کچه اندیجاندہ میهمان بولدی. Marjona kecha Andijonda mehmonda bo'ldi.

گلچهرہ جودہ چیرایلی یازادی. Gulchehra juda chiroyli yozadi.

جمال دایم دوپییلی یورادی. Jamol doim do'ppili yuradi.

31 - mashq. Quyidagi maqollarni o'qing va ko'chirib yozing.

Yomon o'dak avval uchar. یامان اول اوچار.

Dili pokning yo'li pok. دلی پاک نینک یولی پاک.

Tekin eguncha, ekib ye. تیکین بیگونچه ایکیب یی.

Izoh: Ba'zan xe harfidan so'ng "vov" "alif" bilan kelsa "o" deb o'qiladi. Masalan: Xavorazm – Xorazm - خوارزم xon- خوان

Xavohlagan-xohlagan خواه - خواهلاغان xoh

xohar – opa خواهر x o'ja – خواجه

32 - mashq. Ushbu matnni o'qing.

پخته اوزبیک خلقینینگ بایلیگیدور پخته دان کوب نارسالار پیدا بولور پخته نی آق آلتون دیب اتاشور پخته اوزبیکستان نینگ همه بیریدا بیتیشتریلادی او خلقیمیز فراوانلیگی یورت آبادانلیگی اوچون هم یاخشی لاب پرورش قیلینماگی لازم دور. پخته میز فخریمیزدور

33 - mashq. Ushbu matnni o‘qing.

ييتتى خزينه نينگ بيرى
آنا بابالاريميز پرنده لارنى ييتتى خزينه نينگ بيرى ديميشلار. بو گپ
راست دور. بير دانه تخم بير دانه جوج ه بولادور. جوجه کاتتا بولوب
تاووق يا خوراز بولادور. البته بو ايش کوپ زخمت بيرلاندور. بيزنينگ
قيشلاقدا انا شونداي بير کارخانه بار. اودا جوج تاووق خوراز و باشقه
پرنده لار بسيار دور. جوجه لار پرورشيجا هم نارسالار بار. مينينگ
آتاملار او ييردا خدمت قيلادور. مين هم بوش وقتلاريمدا آتامگا ياردم
بيرامان.

34 - mashq. Ushbu hikmatlarni o‘qing va ko‘chirib yozing.

۱. جهان نينگ تيکانسيز گل لارى هنرمندلاردير.
۲. جهالت اولومدور بيلم تيریکليک.

35 - mashq. Berilgan matnni o‘qing.

رحمت

رحمت ايتماق هر بير ياخشى ايش اوچون خيرلى سوزدور. کيم که
مرحمتلى بولسا اونينگ قلبى دان رحمت سوزى چيقور. اينگ کيچيک
ايش و ياردم اوچون رحمت ديتماق کونگيل گا آرام بيرور اي فرزندلار
کمک قيلگان کيشى گا بو سوزنى ايتماق لازم و کوپ ياخشى ايشدور

36 - mashq. Xe, jim, chim va hoye hutti harflarining har bir
ko‘rinishini to‘rt qatordan yozing.

37 - mashq. Quydagi so‘zlarni arab grafikasiga o‘giring.

*Taxta, xona, axbor, xabar, xargush, shox, paxta, daraxt, xalq, paxtazor,
xazina, paxtakor, tuxum.*

38 - mashq. Ushbu matnni ko‘chirib yozing.

۱. اوزاقلاشگان قرينداشلارگا يقين بوليشگا کوشش قيل
۲. هر بير کيرگان خانه دا سلام ايتيشنى اونوتما
۳. تانگى اويغو اولوشنى کم قيلادور
۴. استاد شاگرد اوچون مقدس انسان دور

TO‘QQIZINCHI DARS

ض sod va ض zod harflari

Sod tovushi “s” harfini zod tovushi “z” harfini ifodalaydi. Bu harflarni
yozilishi ikki unsurdan iborat bo‘lib, satrda yoziladigan ص va satrdan pastda
yoziladigan ن nunga o‘xshash shaklga ega. Bu harfning so‘z boshidagi va so‘z
o‘rtasidagi ko‘rinishini yozishda aylana shaklidan so‘ng bir tish yozish kerak.

sod va zod harflarining yozilish.

Qo'sh. Hol	alohida.	talaffuzi
ص	ص	s
ض	ض	z

Sod, zod harflari yozuvda faqat bir nuqtasidan farqlanadi.

39 - mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va yozing.

صابر، صید، صیاد، صباح، اصلاح، صورت،

خاص، تصویر، مُصَرَّ، صنوبر، صحت، صحیح، صوت، خالص، صدا، زمین،
ضربه، بیاض، ضرورت، ضیا، ضرر، ضِد، ضدّیت، راضی، ضِد، صُبْح، شَخْص،
حاضر، صُلْح، صُبْحانه، شَخْصی، صابون، صَنْدَلی، اشخاص، ضَرْب، صَحیح،
تَصْحیح، رِضا.

40 - mashq. Quyidagi so'zlarni eski o'zbek yozuvida yozing.

Shaxs, so'leh, so'bhone, hozer, sedo, sobun, so'bh, zed, rozi, sandali, ashxos, zarb, rezo, sahih, tas'hih, sihat, musavvir, solih, saboh, sahih, salib, Sobir, sayyod, zarba, zarar, zamin.

- Ushbu matnni o'qing.

فصل لار

فصل لار تورت نوع دور بهار یاز کوز و قیش بهار فصل
لارنینگ ابتداسیدور بول فصل دا جهان سبز بولور تمام جانوارلار
جنبوشگا کیلغایلار نوروز عالم شول فصلدا کیلور بعد فصل یازدور
بول فصل ایسیسیغ بولوب اونینگ اینگ ایسیسیغ اوقاتینی چله هم دیبدور
لار سونگ کوز فصلی دور. بول فصل دا همه میوه لار پیشادور دهقان
خرمان جمع قیلادور بعد قیش فصلی دور بو فصل دا هوا بسیار ساووق
بولور اینگ اینگ ساووق قیسمینی چله یعنی قیرق کونلیک هم دییدیلار
تورت فصلنی جمع ایلاب بیر ییل دیرلار

To ط, zo ظ harflari

To harfi somiy tasviriy yozuvdagi tayt – kalava shakli asosida yaratilgan.



To, zo harflari ikki element asosida yoziladi. Satr chizig'ida yoziladigan qismi sod, zod harflarining so'z boshidagi ko'rinishiga, ikkinchi unsuri alif harfining yuqoridan pastga yoziladigan ko'rinishidir.

To til orqa undoshi o'zbek tilida yo'q. U arab tilidan kirib kelgan so'zlardagina uchraydi. Arab yozuvida ikkita "t" – bor. Ularni bir-biridan farqlash uchun to harfiga "itqi" s o'zi qo'shib aytiladi.

Qo'sh Hol	alohid a	talaffu zi
ط	ط	t
ظ	ظ	z

41 - mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va yozing.

وطن، سلطان، مطلوب، طالب، طیر، سطر، طاهر،
طبيب، طوطی، ظلم، ظالم، مظلوم، نظم، ظلمت، نظامی،
منظره، ظاهر، ظل، إظهار، ظاهر، طاؤس، ظلم، لطف .

42 - mashq. Quyidagi so'zlarni eski o'zbek yozuvida yozing.

Lafz, defo', to'lu, zoher, tuti, zo'lm, taraf, zarf, izhor, nizomiy, mazlum, zulmat, manzura, manzara, nazm, zilol, zolim.

- Ushbu matnni o'qing.

طوطى

طوطى گوزل قوش دور او کوپراق هندوستان دا افريقا قطعه سيندا
ياشايدى طوطى اوزگالار سوزى گا تقلید قیلادور

43 - mashq. Ushbu matnni ko'chirib yozing.

منصور و طاهر اکا و اوکادور لار طاهر مکتبدا تحصیل کورادی
منصور طلبه دور او مدرسه دا اوقییدی طاهر و منصور مهربان آدابی
و باخوش طلبه لاردور

44 - mashq. Ushbu hikoyatni o'qing.

حکایت

بیر نقاش بیر شهرغا باریب اول بیردا طبیبلیک آغاز قیلدی بیر نیچا
کوندین کییین بیر کیشی انینک وطنیدین مذکور شهرغا باریب نقاشنی
کوروب سورادیکه امدی نیما ایش قیلورسین دیب ایتدی او جواب بیردی
طبیبلیک اول کیشی یانا سورادی نیکا نقاش ایتدی بول سببدینکه اگر
طبیبلیکدا خطا قیلسام توپراق انی یاپار دیدی

- Ushbu matnni o'qing matnni daftaringizga ko'chirib yozing.

حکایت

بیر کیشی طبیب نینگ آدیغا باردی و ایدی قارنیم آغریدور دوا
قیلغیل طبیب سورادی که بو کون نیمه ییب ایردینگ اول کیشی ایدی
کویغان نان ییب ایردیم طبیب انینگ کوزیغه دوا قیلماقنى خواهلاب
ایردی اول کیشی ایدی ای طبیب! قارین آغریغانیغا کوزنینگ نیمه
نسبتی باردور طبیب ایدی اول سینینگ کوزینگغا دوا قیلماق کیرک
زیراکه اگر کوزینگ درست بولسا ایردی کویگان نان ییماس ایردینگ

O‘NINCHI DARS

Ayn ع g‘ayn غ undosh tovushi

Har ikki harfning yozilishi ikki qismdan iboratdir. Satrda yoziladigan shakli bir tomoni ochiq aylana sifatida bo‘lib soat harakatiga teskari tomonga qarab yoziladi. So‘z o‘rtasida va oxirida ikki tomondan ulangani uchun uchburchak shaklda bo‘lib, soat harakatiga monand yoziladi. Satrdan pastda yoziladigan qismi

so‘z oxiri.	so‘z o‘rtasi	so‘z bosh.	alohida	talaffuzi
ع	ع	ع	ع	a,i,u
غ	غ	غ	غ	g‘

esa sal kattaroq yarim aylana shaklda yoziladi.

Ayn harfi esa arab tilidan kirib kelgan maxsus tovushni ifodalaydi. Arab tilida ayn jarangli, portlovchi,

bo‘g‘iz tovushi bo‘lib, eski o‘zbek tilida bu tovush o‘z talaffuz xususiyatini bir muncha yuqotgan holda ishlatiladi. eski o‘zbek tilida aynning quyidagi xususiyatlari bor:

a) So‘z oxirida kelib ma‘noni farqlaydi; من man – men, منع man’– man qilish, زر zar – zar, oltin زرع zar’– ekin, فر far – hashamat, فرع far’ – o‘shish, ko‘payish;

b) so‘z boshida kelganda ayn harfiga qo‘yilgan harakat talaffuz etiladi; علم ‘elm – ilm, عمر o‘mar – umar, عقرb aqrab – chayon, عادل odel – odil.

v) so‘z o‘rtasida yoki oxirida kelganda unli tovushdan so‘ng kelganda unga ta‘sir qilib, cho‘ziqroq talaffuz etishga ishora qiladi: تعليم ta‘lim(taalim), دفاع defo’ (defoo), تعطيل ta‘til (taatil).

g) Ayn bilan boshlangan quyidagi so‘zlar o‘zbek tiliga "h" bo‘lib kirgan.

aso – hassa – عسا

hait- (bayram) – عيد

d) Ayn so‘z ichida "a" unlisidan keyin kelsa, ‘ (tutuq belgisi) orqali ifodalanadi.

Ma‘no – معنا

ta‘na – طعنى

Ya‘ni – يعنى

ma‘raka – معركة

y) So‘z ichida yopiq bo‘g‘indan keyin kelgan ayn tovushi keyingi bo‘g‘inni oldingisidan ajratadi va u ‘ (tutuq belgisi) orqali yoziladi.

Sur‘at – سرعت

san‘at – صنعت

Tal‘at – طلعت

bid‘at – بدعت



Ayn, g‘ayn va yevropacha „O“ harflari somiy tasviriy yozuvdagi ayn – ko‘z shakli asosida hosil qilingan.

45 - mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va yozing.

شاعر، شروع، طوطی، وسیع، ظاهر، عمارت، ساعت، طاؤس، شعر، شعبه، ظلم، علم،
جُمعه، بعد، لطف، علی، تعطیل، طلوع، عادل، علیکم، جمع، عبادت، شاعر، معیار، معنی،
اعتبار، إعلان، طالع، تابع، مانع، طعنی، یعنی، معرکه، سرعت، سنت، بدعت، طلعت، شمع،
جمع، عالم، عادل، عندلیب، معلم، أعظم، علم، ساعت، عزیز، غلبه، مغلوب، تاغ، تیغ، غریب،
غُرَباء، غَرِیب، غَنی، مُغْنی، غَواص، اولوغ، مرغوب، غاز، غار، مرغوبه، غَلّه، بوغداى .

46 - mashq. Quyidagi so'zlarni eski o'zbek yozuvida yozing.

Lafz, defo', to'lu, zoher, so'at, o'li, jo'me', tuti, sho'er, zo'lm, ba'd, taraf,
zarf, vasi', jam', bulbul, ilm, muallim, so'at, A'zam, Aziza, sham, jam,
sur'at, san'at, Tal'at, bid'at, ma'no, ta'na, ya'ni, ma'raka, mone, tobe,
tole, me'yor, e'tibor, ma'no, e'lon.

- Ushbu matnni o'qing.

معاش

معاش هر بير محنت اهلى نينگ ايش حقى اوچون تولاودور كيم كه
محنت قىلسا شو قدر كوپ معاش آلور بيز شاگرد لار نينگ هم معاشى
ميز بار معاشيميز آلغان بهالاريميز ميزانيدور اگر شاگرد يعنى اوقووجى
كوپ اوقوسا شونچ ه يوقارى بها يعنى معاش آلور تحصيل صنعتى گا
يوقارى بها بيريلور مختصر مضمون شول كه دانالار نصيحتلاريدا
ايتورلار

علم الماق زمانلار تقاضاسى
ضيا آلسون آدم نينگ اعضاسى
ياش و قرى اوچون بو ايش ضروردور
ضايع قىلسانگ وقتينگ بسيار ضروردور

47- mashq. Ushbu matnni ko'chirib yozing.

تمام بير يوزينى ارض ديرلار اندا بشريت استقامت قيلور انينگ
تورت تامانى شمال مغرب مشرق و جنوب ديرلار اندا بيحساب دريا لار
اولكان تاغ لار كاتتا موزليكلا موجود دور ارض دومالاق شكلدادور
بيري يبلان بير اعضا كى باغلانكاندور ارضداگى بارچه نارسه لار بير
مضمون شول كه بارچه انسانلار ضرور حالتدل انگا كمك بيرماقلارى
لازم دور

48- mashq. Ushbu matnni ifodali o'qing va yod oling.

عقل مدحى

خدا نعمتلارين عالى سى ادراك
عقلنى مدح ايتار كيم كه دلى پاك
عقل يول كورساتوب دلنى ايلار شاد

هر ايکي عالمدا عقل لي آباد

عقل تورموش ايرور بوني يادلاب آل

عقلدين غمگينليک شادليک اوکتمليک

عقلدين بارليگو يوقليگو کملک

کيشي ايش قيلارکان بي عقل و ادراک

بولور قيلميشي دين يورک بغري پاک

49- *mashq*. Ushbu matnni o'qing va ko'chirib yozing.

سخاوت

آفتاب سيار دور کيم سخاوت پيشه و جان منبعي بولگان حرارتيني
عالم موجوداتي اوچون برابر تقسيم قيلور هر بير کيمسه هم اوز قلب
حرارتيني جانلي و جانسيز موجودات گا قوياش ديك اولاشماغي درکار
انينگ سخاوت حرارتيني بارچا بيدک قبول ايتسا ياکه برچه بيرديک
اونينگ حرارتيدين بهره آلسا شول کيمسه حقيقي خلق فرزندى ناميغا
مشرف بولغاي

الفبا

کيين طا و يگيرمنچي ايرور ظا

الف دين باشلانهر بيز نينگ الفبا

يگيرمي بيردا جاي آغان دورور عين

الف ا ديب اوقولغاي گهي آ

يگيرمي ايکي دا غين و کيين فا

بي دور ايکينچي سي پي دور اوچونچي

يگيرمي تورتي قاف و سونگ كيلور كاف

تي دور تورتونچيسي بيشينچي سي تا

يگيرمي آلتيدا گاف اولدي پيدا

ايرور آلتين چي جيم بيتينچي سي چيم

يگيرمي بيتي دا كيلگوسي دور لام

سيکيزي حاي حطي توقوزي خا

يگيرمي سيکيزيندا ميم مهيا

اونونچي دال دور اون بيريدورور دال

يگيرمي توقوزوندا كيلگوسي نون

اون ايکينچي سي ايرور را و اون اوچ زا

اوتوز واو و اوتوز بيرينچي دور ها

ژی اونتورتونچي سين دور اون بيشينچي

اوتوز ايکينچي حرف اولميش دورور يا

اون آلتينچي اوروون دا شين موندا

الفبا انتھاسي دين آليب جا

ايرور صاد اون بيتينچي اون سيکيز ضاد

O'N BIRINCHI DARS

Sukun, tashdid, tanvin, vasla, hamza belgilari.

Yuqorida soʻz yuritilgan fatha (zabar), kasa (zir) va zamma (pish) ham arab satr ostki va ustki belgilari tarkibiga kiradi, lekin ular faqat yozuvda aks etmagan qisqa unli tovushlarni ifodalashda qoʻllaniladi. Oʻqish, yozish va toʻgʻri talaffuz qilishga yordam beruvchi Yana bir necha belgilar ham borki, ular ham yozuvda juda kam hollardagina qayd etiladi. Bunday belgilarga quyidagilar kiradi:

1. Tashdid (تشديد) ّ Tashdid ikkilantirish degan maʼnoni anglatib, soʻz tarkibidagi undoshlarning ustiga qoʻyiladi. Tashdid belgisi tushgan undosh kuchaytirilgan va ikkilantirilgan holda talaffuz etilishi lozim. Bu belgi koʻpincha tilimizga arab va fors tillaridan oʻzlashgan soʻzlarga qoʻyiladi. Yozuvda yonmayon kelgan bir undoshni ikki bor takrorlash arab alifbosi qoidasi boʻyicha mumkin emas. Arab yozuvida qoʻsh undoshli soʻzlar kelganda oʻsha undoshning biri yozilib, uning ustiga tashdid belgisi qoʻyiladi va shu orqali soʻzda ikkita bir xil tovush borligi anglashiladi. Masalan:

نقاش naqqosh

محله mahalla

عطار attor

مكار makkor

Baʼzi hollarda tashdid belgisining ustiga fatha yoki zamma belgilari

qoʻyilishi ham mumkin (ّ ّ ّ). Bu esa har ikkalasini ham oʻqish zarurligini bildiradi. Buning uchun avval tashdid ostidagi undoshni takrorlab soʻngra tashdid ustidagi harakatni oʻqish lozim. Masalan:

اول avval

تبسم tabassum

محمد Muhammad

محبت muhabbat

Tarkibida qoʻsh undoshi mavjud boʻlgan turkiy soʻzlar, jumladan, oʻzbekcha soʻzlar arab grafikasida yozilganda, tovushlarning miqdoriga koʻra yozamiz. Masalan:

ساکیز sakkiz

قانتیق qattik

Soʻzlarga baʼzan qoʻshimchalar qoʻshilganda oʻzakdagi undosh bilan birga qoʻshaloq undosh hosil qilishi mumkin. Bunday hollarda ular yozuvda toʻliq yoziladi. Masalan:

تاققا

toqqa

بیلاکا

bilakka

2. Tanvin (تنوين) ّ . Bu ham arab satr usti belgilaridan biri boʻlib, faqatgina arabiy soʻzlardagina ishlatiladi va yozuvdagi shakli quyidagi koʻrinishlarda boʻladi. ّ tanvin fatha, ّ tanvin kasa va ّ tanvin zamma. Tanvin koʻpincha soʻz oxirida kelib, taglik vazifasida olingan alif harfining ustiga ikkita

zabar ko‘rinishidagi chiziqcha qo‘yish orqali hosil qilinadi. Tanvin belgisi talaffuzda an tovush birikmasini beradi. Masalan,

مثلاً masalan

تخميناً taxminan

Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar tanvin belgisini olib, ravish so‘z turkumiga kiradi. Tanvin belgisi yozuvda tushib qolishi mumkin, lekin talaffuzda saqlanadi. Shu sababli so‘z oxrida tanvin belgisiga taglik vazifasini bajarib kelayotgan alif o tarzida o‘qilmaydi.

3. Sukun (سكن). Sukun arabcha so‘z bo‘lib, to‘xtab turish, tinchlik, orom degan ma’nolarni bildiradi. Bu belgi ba‘zan sokin deb ham yuritiladi. Uning asosiy vazifasi bo‘g‘inning yopiq ekanligini bildirishdir. Sokin belgisi undosh harf ustiga qo‘yiladi va shu undoshdan so‘ng unli yo‘q ekanligini bildiradi. Masalan:

فرزند farzand
majlis
مجلس

مملكت mamlakat
maslahat
مصلحت

4. Hamza belgisi (همزه). Bu belgi o‘zining vazifasiga asosan quyidagilardan iborat:

a) ikki unli qator kelganda ularni ajratish uchun yoziladi. Masalan:

شرائط sharoit

غرائب g‘aroyib

عجائب ajoyib

عائلة oila

b) bo‘g‘inni ajratish uchun qo‘llanadi. Masalan:

مسؤولية mas‘uliyat

تأسيس ta‘sis

مثله mas‘ala

تأكيد ta‘kid

v) forsiy izofiy birikmalarda agar aniqlanmish qisqa i unlisi bilan o tugallangan bo‘lsa, hamza belgisi shu harfning ustiga qo‘yiladi.

شجره ترك Shajarai turk

نقطه نظر nuqtai nazar

5. Vasla (وصله). Bu belgi arabiy izofalarda ishlatilib, al aniqlik artikli ustiga qo‘yiladi. Vasla so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, qo‘shish degan ma‘noni bildiradi. Demak, vasla belgisi qo‘yilgan al aniqlik artikli to‘la holda o‘qiladi. Agar al aniqlik artikli ustida vasla belgisi qo‘yilmasa, biz faqatgina artiklning a harfini o‘qib, keyingi kelayotgan so‘zning birinchi tovushini ikkilantirib o‘qiymiz. Bu haqda shamsiy va qamariy harflar va izofa bo‘limlariga qarang. Masalan:

دار الفنون dorul funun

كمال الدين Kamoliddin

Yuqorida tilga olingan belgilar yozuvda ifoda etilmasligi mumkin, lekin bu belgilarning xususiyatlarini to‘liq o‘zlashtirmog‘imiz lozim.

حرکت لار

بیزلار آنجا نامیمیز بیر حرکت

اویان بویان سیلجیشدا کوپ برکت

یاخشی اورگان ابجد خان قیل اعتبار

بیر قرآن کور سونگرا دییین مینگ رحمت

من زیرمن حرف اوستیدا یورورمن

سوز باشیدا ع ا دا تورارمن

«A» دیب آغیز آچماسانگیز کورگاندا

تانیمادی دیب «A» «A» لاب کولارمن

زیر

زیردور آتیم حرف آستیدا تیرگاکمن

نی ایتیر چاغدا کیراکمن

«E, I» کلام الله کتابیدا خوب ضرور

هم تاووشمن هم حرف آستی بیزاکمان

زیر

شمایلیم واو حرفیدان آلینگان

«O» «U» لازم بولسا ایشگا سالینگان

حرف اوستیدا تورار جاییم پیش نامیم

بلکه سیزگا پیچ دیب نامیم چالینگان

پیش

من ساکن من سیوارمان اونداشلارنی

اورتاسیدا یات یوق قرینداشلارنی

اوقیش چاغی بیر کورگاندا توختالینگ

زنجیر کابی باغلانگان قانداشلارنی

سکون

بیرنی ایکی قیلش وظیفم

بیر خیل اونداش بار جایدا مینینگ کولبام

قیره قیره شکلیم توشسا یازوودان

عیبسیزدا بیتتا اونداش بولور کم

تشدید

نامیم وصله ال اوستسدا جاییم بار

بیر مقصدیم انیقلیک تکرار تکرار

عربیدا اککی سوزنی بیر قیلیب

کوپ قیلامان بو سوزلارنی معنادار

وصله

Tinish belgilar

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkistonda gazeta-publitsistik janrining paydo bo'ldi va unda e'lon qilingan mantlarda tinish belgilari qo'llana boshlagan. Xususan, «Turkiston viloyati gazetasi», «Oydin» va boshqa davriy nashrlarda hozirgi tinish belgilarining ayrimlarini uchratish mumkin.

Tinish belgilari ommaviy ravishda 1921 yildan so'ng qo'llana boshlangan. Bu arab yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvining isloh qilishi bilan bog'liqdir.

1921 yili arab alifbosidagi o'zbek yozuvi isloh qilingandan so'ng o'qish va yozishda engillik hosil qilish maqsadida hozirgi kunda mavjud bo'lgan barcha tinish belgilari joriy etildi. Gaplardagi his-hayajon, so'roq, darak ma'nolarini berish uchun nuqta, so'roq, his-hayajon va boshqa belgilar yordamida ifoda etilgan va o'quvchi tomonidan anglashilgan. Tinish belgilaridan so'roq va vergul belgilari teskari ko'rinish holatida yozilishi qabul qilindi: so'roq belgisi - ؟ , vergul -

Qolgan barcha tinish belgilari hozirgi ishlatilish qoidalariga mos ravishda qabul qilinib, hozirgi kunda qaysi mamlakatda arab yozuvi ishlatilib kelinayotgan bo'lsa, yozuvda, matbuotda barcha ko'rinishlari ishlatilish qoidasiga binoan qo'llanilib kelinmoqda.

Quyidagi so'zlarga fatha, kasra, zamma va satr ustki belgilarini quyib o'qing.

مقند منجم مداح تعجب مشقت تلفظ كله ترقییات غدار تردد تبر طنز
مره ذره بطل تفكر تصور معلم مقلد رسام مكار بره شفاف كذاب منت
سله رقاص تشبث مؤلف تصدق.

Tubanda berilgan so'zlarni eski o'zbek yoziviga o'giring va satr osti va usti belgilarini qo'ying. Shu so'zlarning ishtirokida gap tuzing.

Baqqol, siddik, takallum, farrosh, arra, tasadduq, darra, tashabbus, hammol, zilat, taalluq, xurram, tasavvur, sattor, takubbur, g'alla, raqqos, rddiya, zarra, oppoq, hatto, hurriyat, hammom, dallol, sala, shaddod.

Mazkur so'zlarni hozirgi o'zbek yozuviga o'giring.

تأسف تاریخ انشات مؤرخ تأکید غرائب مؤلف تاثر تامین عجائب
تأمل مأمور عائله قرأنت تألف

Quyidagi so'zlarni o'qing vasla belgisini tegishli o'rinlarga qo'yib ko'chiring.

عجائب المخلوقات دار الفنا دار البقا طالب العلم
محاكمه اللغتين فوايدالكبار سعادۃ الاقبال نوادر الشباب

Berilgan so'zlarga tegishli harakatlar va satr ustki belgilarini qo'ying va so'zlarni mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

مصور میسر ضمنا لسان العرب تكلم تنفس ترقیات جلاد عفت باطنا تكبر
علت مشقت تبرک قصص الانبیا منور عبد اللطیف عبد الله مناظره

O'N IKKINCHI DARS

YOZUV VA UNING TARIXI

Kishilik jamiyati o'z tarixining ko'proq qismini yozuvsiz o'tkazgan. U yozuvga yetib kelguncha uzoq yo'lni bosib o'tgan va nutqni yozib olish uchun bir necha ming yil ilgarigina belgilar qo'llanila boshlagan. Bu qariyb olti ming yil ilgarigina eramizdan oldingi to'rtinchi ming yillikda sodir bo'lgan deb hisoblaniladi. Biroq 1961- yil Transilvaniyada, Terteriya posyolkasi (Ruminiya) yaqinida arxeologlar juda ham ko'p sirli rasm belgilar chizilgan uchta sopol taxtacha topishdi. Bular deyarli yetti ming yillik o'tmishga ega yozma yodgorliklar edi.

Odamning tajribasi va bilimi orta borgan sari unda bilganlarni yodda tutish va boshqalarga berish zarurati tug'ildi. Zamonaviy til bilan aytganda axborotni saqlash va uzatish muammosi kelib chiqdi. Buyumlardan dastlab inemonika vositalari yoki "eslatuvchi" vositalar sifatida foydalanish zamonaviy yozuvga olib keluvchi mashaqqatli uzoq yo'ldagi birinchi qadam bo'ldi. Bu vositalar fikrni uzatmas, balki uni faqat eslatardi. Biror narsani eslab qolish uchun ro'molning uchini tugish odati shundan qolgan.

So'ngra buyumlarga aniq ma'no berila boshlagan. Ular oldindan kengashib, olingan narsalarni bildiruvchi o'ziga xos signallar shartli belgilar bo'lib hisoblangan. Cho'pxatga yoki daraxt tanasiga kertib belgi solish, tugunlar tizimchalar, urush e'lon qilish vaqtida esa kamon o'qi va boshqa buyumlar shunday shartli belgi vazifasini o'tagan. Buyumga ma'no biriktirib qo'yishning usuli "buyumli yozuv" deb atalgan.

Son, raqamlarni bildirish uchun, masalan, taxtachalarga kertib shartli belgilar qo'yilgan. Bu xatcho'plardan har xil shartnomalar tuzishda foydalanilgan. Shartnomalar tuzishda xatcho'pni bo'yiga qoq o'rtasidan bo'lib, yarmi bir tomonga, ikkinchi yarmi ikkinchi tomonga berilgan. Xatcho'p bo'laklari birlashtirilganda kertiklar bir-biriga mos kelgan.

Xatcho'plar kalendar sifatida ham qo'llanilgan (unga kunlar, haftalar soni va hokazolar o'yilgan). Ular qarz shartnomalarida tilxat o'rnida ham xizmat qilgan. Xotirada uzoq vaqt saqlab turilishi lozim bo'lgan voqealar to'g'risidagi unutilmas ma'lumotlar ro'yxati sifatida ham xatcho'plardan foydalanilgan.

Hozirgi vaqtda ham ishlatish qulay bo'lgan joylarda signalizasiya uchun buyumli yozuv prinsipidan foydalanishmoqda. Masalan, suv yo'llarida xatarli joylarni ko'rsatib turadigan suzg'ichlar, mayoqlar va signal bayroqchalari, dengizda, svetofoir va semaforlar – quruqlikdagi yo'llarda, signal lampochkalari-har xil priborlarda qo'llaniladi. Bularning hammasi axborot hissalar va perulik cho'ponlarning tizimchalariga «qarindosh»dir.

Buyumli yozuv o'zining asosiy vazifasini bajara olmadi, insoniyatning to'plangan bilimlarini saqlab, yodlab qoladigan o'ziga xos xotirasiga aylana olmadi. Ijtimoiy turmush murakkablashgan sari bunga ehtiyoj tobora ortib

borardi. Urf-odatlar, an'analar shakllandi, ularni yangi avlodga yetkazib berish lozim edi. Mehnat taqsimoti va mol ayirboshlash aniq hisob yuritilishni talab qilardi. Qabila boshliqlari va kohinlar ajralib chiqdilar, ularning faoliyatini abadiylashtirish zarur edi.

Piktografiya yoki rasmlardan iborat yozuv zamonaviy yozuvga olib boradigan yo'ldagi navbatdagi bosqich bo'ldi. Uning xususiyati axbarot uzatish bilan belgilanar edi. Rasmlardan iborat yozuvning xususiyati shuki, bunda fikr ayrim tushunchalarga ajratib emas, balki to'la ifodalanadi. Piktogrammaning eng mayda parchalari ham zamonaviy yozuvdagi jumlar qismlarga bo'linadi, ammo piktogramma bo'linmaydi. Piktogramma harakatni, voqea-hodisani tasvirlaydi, ammo og'zaki tilni buyumlarning nomlarini mutlaqo aks ettirmaydi. Piktogramma nimani tasvirlasa, o'shani ifodalaydi, unda simbolika yo'q. Shuning uchun piktogrammani har bir kishi, qanday tilda gapirishidan qat'iy nazar, sharhlab berishi mumkin.

Piktogrammalar ov haqidagi ma'lumotlarni, ro'zg'or ishlari bilan bog'liq yozuvlarni jangovar yurishlar, bosqinchilar, to'qnashuvlar to'g'risidagi xabarlarni, u kuf-suflarni (ular, ayniqsa, Shimoliy Amerika hindlari o'rtasida, shuningdek, Indoneziyada ko'p tarqalgan, siyosiy shartnomalarni, arznomalarni, ultimatumlar va sevgi maktublarini o'z ichiga olgan).

Piktogrammarni izohlash uchun eng qulayi she'riy formadir. Yerliklardan biri qiroat bilan o'qigan bunday she'ning har bir satri ayrim rasmni ifodalaydi. Piktografiya ibtidoiy san'at quchog'ida vujudga keldi. Olimlar insonlarning bundan 40-10 ming yil ilgari qadimgi poleolit davrida chizgan rasmlarini topishgan. Qadimgi odam toshni o'yib naqsh solgan, suyakka belgilar o'ygan, g'or devorlariga hayvonlar: bizon, mamont, ohular, karkidon, otlar, bug'ular, odamlar tasvirini bo'yoqlar bilan chizgan. Bu bilan u go'yo dunyoni bilib olgan va tasvirlagan.

Yevropada eramizdan avvalgi 9-6 ming yillik deb sana qo'yilgan mezolit davrida umumiy mazmunga birlashtirilgan murakkab tasviriy kompozitsiyalar yanada ko'proq tarqalgan. Ular rasmlar bilan ifodalangan tugal hikoyaga o'xshaydi.

Tadqiqotchilarning fikricha, piktografik yozuv neolit davrida, tarqoq urug'dosh guruhlar qabilaga birlasha boshlagan vaqtda uzil-kesil shakllangan.

Piktografik belgilar hozirda ham keng qo'llaniladi. Magazin va ustaxonalarining viveskalaridagi mollar tasviri, ko'cha harakatini tartibga solib turuvchi belgilar, zaharli moddalar solingan idishlar devoridagi bosh suyagi, chatishtirilgan suyaklar tasviri va yo'nalishni ko'rsatuvchi qo'l yoki strelkalar rasmi va hokazolar shular jumlasidandir. Masalan, Shimoliy Osetiyada marhumning fazilatlarini yoki iste'dodini bildiruvchi piktografik belgi chizig'i odati saqlanib qolgan mohir chavandozning qabr toshida – ot yoki egar, olimning qabr toshida – kitob, mohir tikuvchi qabr toshida esa tikuv mashinasi tasvirlanadi.

Tadqiqotchilar piktografiyani fikrni yozuv bilan ifodalashning dastlabki usuli deb hisoblaydilar. Piktografiya yaqqolligi tufayli hammabop bo'lgan-u, biroq ma'no, mazmunni ixtiyoriy sharhlashga yo'l qo'ygan.

Rasm fikrni aniq ifodalashga imkon beradigan, ko'p joyni egallaydigan vosita bo'lganligidan mavhum tushunchalarni rasm yordamida anglatish juda qiyin edi.

Yozuvni biladiganlar nihoyatda kam bo'lganligidan va yozuvdan tasodifiy hollardagina foydalanganligidan piktografik yozuvning kamchiliklari ko'zga tashlanmagan. Lekin davlat tuzumi rivojlanib, yozishmalar kundalik ishga aylana borgan sari yozuvga ehtiyoj ortavergan, yozuv kundalik hayotda zaruratga aylangan. Yozishni tezlashtirishga ehtiyoj tug'ilgan. Har bir tasvirdagi rasm asta-sekin soddalashib borishi va ularning hammasi aniq grafik belgilarga ajralib ketishi qonuniydir. Muayyan rasm buyumning nomi bilan atalgan, buyum tasvirlovchi bo'lib qolgan.

Yozuv bitiladigan material rasm-belgilarning shakliga jiddiy ta'sir o'tkazgan. Masalan, Old Osiyoda to'g'ri burchakli yoki cho'zilgan doiradagi sopol taxtachalarga belgilar chizilgan.

Loyning qovushqoqligi taxtachalarga aylana chiziqlar chizishni qiyinlashtirgan, shuning uchun pona shaklidagi belgilar-mixxat ishlab chiqilgan Misrda asosiy yozuv materiali sifatida papirusdan foydalanilgan. Papirus – xat yozish uchun maxsus tayyorlangan birinchi materialdir. Misr yozuvlari tasviriyligi bilan ajralib turadi. Xususan, toshga o'yib yozilgan xatlar ko'zga yaqqol tashlanadi. Ular ko'pincha naqsh bilan mohirona uyg'unlashtirilgan.

Yozma yodgorliklarning but saqlanishi ham qanday materialga bitilganiga bog'liq bo'ladi. Tez yirtiladigan, uvalanadigan, mo'rt materialga bitilgan xatlar yo'q bo'lib ketgan, pishiq, mustahkam asosga bitilgan yozuvlar esa zamonamizgacha saqlanib qolgan.

Uzoq o'tmish sadolarini bizga ana shu yetkazmoqda. Yozuv – insonning eng oliy kashfiyotlaridan biri. U o'tmish bilan kelajak o'rtasidagi vosita.

Ma'lumki, VII asrdan boshlab, arablar O'rta Osiyo va Kavkaz bo'ylab katta yurish qildilar. Natijada bu ulkan hududning asosiy qismi ular tasarrufiga o'tdi.

Tez fursat ichida arablar o'z tili, yozuvchi va madaniyati, urf-odatini mahalliy xalqlarga singdira boshladilar. Shu tariqa bu o'lkalarda arab alifbosi hukmron yozuv bo'lib qoldi. Barcha rasm-rusmlar, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar arab yozuvi asosida rasmiylashtiriladigan bo'ldi. Fan va madaniyat, adabiyot va san'at, o'qish va o'qitish ishlari ham arab yozuvi va tili negizida amalga oshirila boshladi.

Arab xatlarining turi ko'p. Shulardan qadim zamonlardan beri ishlatib kelinadiganlari asosan, mahalliy, tavqe', nastaliq, nasx, kufiy, riqo', shikasta, suls, ta'liq va boshqalar.

Bu yozuv turlarining har biri o'ziga xos xususiyatlariga ega kufiy va suls xatlari boshqalariga qaraganda o'qilishi va yozilishi jihatidan birmuncha

murakkab. Bu xatlar ko‘pincha imoratlar, me‘morchilik yodgorliklari peshtoqiga, qabr toshlariga yozilgan. Nasta‘liq yozuvi bu turlar ichida ason o‘qilishi va chiroyli yozilishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham O‘rta Osiyo va Kavkazda u rasmiy yozuv sifatida qabul qilingan. Yozma yodgorliklar shu yozuvda yaratilgan.

Nasta‘liq – «nasx» hamda «ta‘liq» xatlarining o‘zaro birikuvidan vujudga kelgan yozuv turidir. O‘rta Osiyo va Zakavkazyening boshqa xalqlari singari o‘zbek xalqining ham ming yillik ma‘naviy merosi ana shu yozuvda bitilgan.

Mashhur shoiru nosirlar, muarrixu mutarjimlarimizdan Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Bobur va Ogahiydan tortib Hamza, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho‘lponlarning eng yaxshi badiiyat durdonalarigacha, Beruniy, Juvayniy, Muhammad Narshaxiy, Rashiddin Votvot, Nasaviy, Bayhaqiy singari muarrixlar yaratgan o‘lkamiz tarixiga oid mumtoz asarlarning barchasi arab yozuvida bitilgan. Xalqimizning ko‘p asrlik ma‘naviyati, ruhiy olami, ijodkorlik salohiyati ana shu yozuvda aks etgan.

Savol va topshiriqlar

1. Eng qadimiy yozuvlar haqida ma‘lumot bering.
2. O‘rta Osiyo xalqlarining dastlabki yozuvlari qaysilar?
3. Yozma yodgorliklari bizgacha yetib kelgan yozuvlar haqida ma‘lumot bering.
4. Yozma yodgorliklarning asl yozuvi va turlarini sanab bering.

O‘N UCHINCHI DARS

ARAB YOZUVI TURLARI

Qadimiy Misr yozuvi arab yozuvining kelib chiqish zanjirining daslabki, birinchi xalqasi hisoblanadi. Bu yozuv asosida finikiya xati vujudga keladi. Finikiy xati ixtiro qilgan xalq dengiz sohilida, Finikiya o‘lkasi va Livan tog‘ etagida yashar edilar. Ularning shug‘ullanadigan yumushlari ko‘proq misr davlati bilan tijorat ishlari edi. Ular qadimgi Misr yozuvidan 15 harfni o‘z o‘lkalariga olib keladilar va unga shakliy o‘zgarish kiritib, yana boshqa harflar qo‘shib finikiy yozuvini keltirib chiqardilar. Keyinchalik esa, ushbu xatdan ikki shaxobcha kelib chiqadi. Bular musnad va oromiy yozuvlaridir.

Oromiy va musnad yozuvlari Arabiston yarim orolining janubida yashovchi somiy xalqning yozuvidir. Mazkur yozuvlar eng qadimiy arablarning dastlabki yozuvlari hisoblanadi. Ularning shaxobchalari esa samudiy, safaviy, layoxiydir. Oromiy yozuvi juda tez rivojlanib, yarim orolning shimolida joylashgan davlatlar Suriya, Iordaniya so‘ngra Iroq sarhadlarigacha yetib bordi. 270-milodiy yilida Nabotiy yozuvi vujudga keldi. Kufa yozuvi yuzaga kelgunga qadar nabotiy yozuvidan o‘zga bir qancha yozuv turlari vujudga kelgan. Bular xiriy, xijoziy yozuvlaridir. Bu yozuvlar asosida yana nimara, zayd, xiron

yozuvlari ham paydo bo‘di.

Nimara yozuvi Xira shahri yaqinidagi Duruz tog‘i yozuvi hisoblanadi. Uning vujudga kelish sanasi 323- milodiy yiliga to‘g‘ri keladi.

Zayd yozuvi Firot daryosi bo‘yida yashovchi xalq yozuvi hisoblanadi. Bu yozuv 512- yilda vujudga kelgan. Xiron yozuvi esa zayd yozuvidan kam farq qilib, 568- yilda paydo bo‘lgan. Undan so‘ng Ma‘qaliy xati vujudga keladi.

Ma‘qaliy kufiy xatigacha bo‘lgan qadimgi yozuvlardan biri bo‘lib, harflarning to‘g‘ri chiziqligi bilan kufiy xatidan ajralib turadi.

VII asrdan boshlab «Xatti ma‘qaliy» o‘rnini arab yozuvining eng qadimiysi va eng mashhuri hisoblangan «Xatti kufiy» egallaydi. Kufiy harflari burchakli nuqtalarisiz yoziladigan qadimgi arab yozuvining bir turi. Kufiy yozuvini ko‘zdan kechirish jarayonida xattotlar tomonidan uning arnameht shakli ijro etilishiga bo‘lgan e‘tibor ko‘zga yaqqol tashlanadi. Kufiy yozuvining rivoji X asrga kelib ancha susaydi. Bu davrga kelib endi nasx va so‘ls yozuvlari kufiy yozuvi o‘rnini asta – sekin egallay boshladi.

Ma‘qaliy va kufiy yozuvlari asosida arab yozuvining san ‘atkorona yaratilgan olti xil asosiy uslubi maydonga keladi. Bular محقق muhaqqaq, ثلاث – o‘ls, نسخ -nasx, – توقيع tavqi, ریحانی – rayhoni, رقاع – riqo xat turlaridir. Ba’zi tilshunos olimlar – ta’liq xatini bu olti xat yoniga qo‘shib, asosiy xat uslublarini etti turi qilib ko‘rsatadilar. Bu xat forsiy matnlarni yozish uchun ixtiro qilingan. Keyinchalik bu xat turi nasx bilan qo‘shilib, nasxi ta’liq xat turi yaratilgan. Bu xat turida forsiy va turkiy matnlar bitilgan.

Xattotlar arab xati turlarini rivojlantirib yangi – yangi turlarini ijod etganlar. Xatshunos olimlar tadqiqotlarida yuzdan ortiq xat turlari haqida ma’lumotlar beriladi.

Arab xatlari (yozuvlari)ning murakkab turlari ham borki, ularni o‘rganish uchun eski o‘zbek yozuvidagi matnlarni ko‘chirib yozib, mashq qilish kerak. Bunda qaysi xat turida yozmoqchi bo‘sangiz o‘sha xatda yozilgan namunani ro‘paraga qo‘yib qo‘yish kerak bo‘ladi.

كوز اوزا نطقه قويمای ایللاسا زور

نوابی

مردمی بولماغاندیك ایللاسه كور

Ko‘z uza nuqta quynay aylasa zo‘r ,

Mardumi bo‘lma‘g‘andek aylasa ko‘r. (A. Navoiy)

Arabcha chiroyli yozish uchun maxsus pero tayyorlash lozim. Chiroyli yozishda asosan qora siyoh ishlatiladi, Tush ham ishlatish mumkin. Yozganda ruchkani siyohga ozroq botirish kerak, hamma harflar qalin va xunuk chiqishi mumkin.

Savollarga javob bering.

1. Turkiy yoziv, uning kelib chiqishi va umumiy xususiyatlarihaqida so‘zlang.
2. Turkiy alifboda nechta harf bor?
3. Arab yozuvida yuzaga kelgan xat turlaridan qaysilarini bilasiz? Sanab

bering.

4. Nasx va nasta'liq xatlarining asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
5. Nima uchun O'rta Osiyoda nasta'liq xati keng yoyildi.
6. Nasx va nasta'liq xatlarining farqli jihatlari haqida so'zlang.

O'N TO'RTINCHI DARS

Eski o'zbek yozuvida raqamlar.

١ ٢ ٣ ٤ ٥ ٦ ٧ ٨ ٩ ٠

Eski o'zbek yozuvida raqamlar. Raqamlar - arab. رقم – son, nomer)—sonlar ifodalanadigan shartli belgilar. Eng qadimda sonlar so'zlar orqali ifodalangan. Xalqlarning ijtimoiy-xo'jalik hayoti rivojlanishi bilan mukammalroq belgilarga va hisoblash sistemalarini ishlab chiqishga ehtiyoj tug'ildi.

Eng qadimgi raqamlar bobilliklar va misrliklarga mansubdir. Misr ieroglif raqamlarida (mil. av. 3000-2500 yilda paydo bo'lgan) sonlarni ifodalash uchun maxsus rasm-belgilar, keyinroq ieratik va demotik yozuvlari paydo bo'ldi.

Bobil raqamlari (mil. av. 2000 yil boshi) asosan 1, 10, 60 va 100 ni bildiruvchi mixxat belgilari bo'lib, boshqa barcha raqamlar shular asosida ifodalangan. Misr ieratik yozuvidan Yaqin va O'rta Sharqdagi barcha yozuvlar va Yunon-Ioniya yozuvi, shu bilan birga alifboga asoslangan raqamlar kelib chiqdi. Bosma yunon alifbosi slavyan-kirillitsa va harfiy raqamlarga asos soldi.

Hozirgi raqamlarning timsollari (nol bilan birgalikda) Hindistonda 5-asrga yaqin yuzaga kelgan. Bungacha Hindistonda kharoshti raqamlari va u bilan deyarli bir vaqtda brahmi raqamlari bo'lgan. Brahmi raqamlaridan hind gvalior raqamlari kelib chiqdi. Gvalior raqamlari esa arab raqamlariga asos solgan.

Arab raqamlari ikki turli sharqiy va g'arbiy (g'ubor) raqamlardan iborat. Sharqiy arab raqamlari Misr va undan sharqdagi arab mamlakatlari, Eron hamda Afg'onistonda qo'llaniladi. G'arbiy arab raqamlari (g'ubor) esa Misrdan g'arbdagi arab mamlakatlarida qo'llaniladi. Evropada 9-asrdan boshlab g'ubor raqamlari tarqaladi va tezda ommalashadi. Sharq mamlakatlarida esa g'ubor raqamlari 19-asrgacha ham keng tarqalmadi.

Qadimgi raqamlardan faqat Rim raqamlari hozirgacha qo'llanadi

Hozirgi zamon raqamlarining evolyutsiya jadvali.

	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0
Брахми	—	=	≡	𑆑	𑆒	𑆓	𑆔	𑆕	𑆖	
Гвалиор	𑌨	𑌩	𑌪	𑌫	𑌬	𑌭	𑌮	𑌯	𑌰	𑌱
Шарқий араб рақамлари	۱	۲	۳	۴	۵	۶	۷	۸	۹	۰
Губор	1	2	3	4	5	6	7	8	9	
976 йил қўл ёзмаси (Европа)	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	
XII-аср бошидаги қўл ёзма	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0
Сакробоско асарининг қўлёзмаси (1442)	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0
А.Дюрер рақамлари (1525)	1	2	3	4	5	6	7	8	9	
Видманнинг босма асаридаги рақамлар (1489)	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0

Arab raqamlari – o‘nta matematik belgi: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9. Bu raqamlar bilan istalgan katta yoki kichik sonni yozish mumkin. Arab raqamlarining ishlatilishida mashhur o‘zbek matematigi Abu Abdullo Muhammad ibn Muso Xorazmiyning muhim hissasi bor.

Arablar Iroq, Misr va Suriyani istilo qilishguncha yunon alifbosiga asoslangan raqamlardan foydalanganlar. VI-asrdan boshlab arab alifbosi harflari bilan ifodalanuvchi raqamlar qo‘llanilgan. Muhammad Xorazmiy Hindistonda kashf etilgan o‘n raqamdan iborat pozitsion sistemani o‘rganadi, soddalashtiradi, kengaytiradi va birinchi marta arab tilida bayon etadi. Xorazmiy «Arifmetika»si bilan birga bu hind raqamlari arab Sharqiga kirib keladi. Xorazmiyning bu asari arabchadan lotinchaga tarjima qilinib, X-asrda Ispaniyaga, XII-asrda Evropaning boshqa mamlakatlariga tarqaladi va hanuzgacha jahonda mazkur raqamlar arab raqamlari nomi bilan yuritiladi. Arab raqamlarini jahonga tarqatgan Muhammad Xorazmiy ekanligi haqida Abu Rayhon Beruniy o‘zining «Hindiston» asarida aytib o‘tgan.

Eski o‘zbek yozuvida hozir arab raqamlari deb atalayotgan (aslida hind raqamlari bo‘lsa ham, ommaga arab raqamlari nomi bilan singib qolgan) raqamlardan foydalanilgan. Bu raqamlarning ba’zi shakllari hamda ko‘plikni ifoda etish tartibi hozirgi yozuvimiz raqamlari va uning tartibidan katta farq qilmaydi.

Agarda sonlar raqamlar bilan ifodalansa, sonlar chapdan o‘ngga qarab yoziladi va o‘qiladi. Raqamlarni yozish jarayonida avval ko‘pliklarni va oxirida birliklarni yozish lozimdir. Masalan:

1 dan 10 gacha bo‘lgan sonlar			11 dan 20 gacha bo‘lgan sonlar		
۱	بیر	bir	۱۱	اون بیر	o‘n bir
۲	ایککی	ikki	۱۲	اون ایککی	o‘n ikki
۳	اوچ	uch	۱۳	اون اوچ	o‘n uch
۴	تورت	to‘rt	۱۴	اون تورت	o‘n to‘rt

۵	بیش	besh	۱۵	اون بیش	o'n besh
۶	آلتی	olti	۱۶	اون آلتی	o'n olti
۷	ییتتی	etti	۱۷	اون ییتتی	o'n etti
۸	ساککیز	sakkiz	۱۸	اون ساککیز	o'n sakkiz
۹	توققیز	to'qqiz	۱۹	اون توققیز	o'n to'qqiz
۱۰	اون	o'n	۲۰	ییگیرما	yigirma
O'nliklar			Yuzliklar		
۱۰	اون	o'n	۱۰۰	یوز	yuz
۲۰	ییگیرما	yigirma	۲۰۰	ایککی یوز	ikki yuz
۳۰	اوتتیز	o'ttiz	۳۰۰	اوچ یوز	uch yuz
۴۰	قیرق	qirq	۴۰۰	تورت یوز	to'rt yuz
۵۰	ایللیک	ellik	۵۰۰	بیش یوز	besh yuz
۶۰	آلتمیش	oltmish	۶۰۰	آلتی یوز	olti yuz
۷۰	ییتمیش	etmish	۷۰۰	ییتتی یوز	etti yuz
۸۰	ساکسان	sakson	۸۰۰	ساککیز یوز	sakkiz yuz
۹۰	توقسان	to'qson	۹۰۰	توققیز یوز	to'qqiz yuz
۱۰۰	یوز	yuz	۱۰۰۰	مینگ	ming

Yozuvda sonlar so'zlar va raqamlar bilan ifoda etilishi mumkin. Harflar bilan yozilgan sonlar o'ngdan chapga qarab yozib boriladi va o'qiladi. Masalan:

تینگری تعالیٰ نینگ عنایتی بیلان و حضرت آن سرور کائنات نینگ شفاعتی بیلان و چهار یار با صفالاری نینگ همتی بیرلان سه شنبه کونی رمضان آیینینگ بیشیدا تاریخ ساککیز یوز توقسان توققوزدا فرغانه ولایتی دا اون ایککی یاشتا پادشاه بولدوم (ظهیر الدین محمد بابر "بابورنامہ دان")

Agarda sonlar raqamlar bilan ifodalansa sonlar chapdan o'ngga qarab yoziladi va o'qiladi. Raqamlarni yozish jarayonida avval ko'pliklarni va oxirida birliklarni keltirish bilan ifoda qilinadi. Masalan:

1997 tarzidagi raqamlar xuddi shunday, ya'ni ۱۹۹۷ tarzida yoziladi. Hozirgi o'zbek tilida 2, 7, 8, 9, 30, 50 sonlari tarkibidagi o'rtada kelgan undosh ikkilanadi: *ikki, etti, sakkiz, to'qqiz, o'ttiz, ellik* kabi. Eski o'zbek tilida esa yozuvda bir belgi bilan berilgan bo'lib, o'rniga qarab, ikki xil talaffuz qilingan: *iki//ikki, yeti//yetti, sekiz//sekkiz, toquz//toqquz, otuz//ottuz, elik//ellik* kabi.

80-90 sonlari *sekiz, toquz* sonlariga *on* (o'n) sonining qo'shilishi yo'li bilan hosil bo'lib, (*sekiz+on, toquz+on*), *seksen, toqsan* shakllari keyingi davrlarda vujudga kelgan. *Sekiz on, to'quz on* shakllari «Devonu lug'otit turk»da ham ko'rsatilgan (Qarang: MK, I tom, 410-b.).

Eski o'zbek tilida sanoq sonlarning kattalari *tuman* (تومان), *lak* (لك) bo'lib, oldida kichik miqdordagi sonlar qo'llangan. *Lak* «Boburnoma» asari tiliga xos: *Uch to'rt lak olub qo'yarlar* (BN, 332). *Bir lak afg'on yig'ilibdur* (BN, 468). *Tuman* so'zi esa barcha ijodkorlar asarlari tilida qo'llangan: *Bir tuman xalq qirildi bari* (ShN, 37). *Yuz tuman barqi balo urdung manga* (Nav. LT, 83).

Eski o'zbek tilida murakkab sanoq sonlar komponentlari orasida *dag'i//taqi* bog'lovchi bo'lishi hollari ham uchraydi. Masalan, *Yigirmi dag'i bir* (ShN, 223). *Yilg'a ming sakkiz yuz-u, to'qson edi* (Furqat, 2, 26).

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

50-mashq. Parchani o'qing, sonlarning yozilishi va o'qilishiga diqqat qiling. Qaysi asardan olinganligini aniqlang.

... قورغانينىڭ شرق جنوبى جانبيدا بىر موزون تاغ توشوبتور براكو
غا موسوم بو تاغينىڭ قله سىدا سلطان محمودخان بىر حجره ساليبتور
اول حجره دين قوييراق اوشبو تاغينىڭ تومشوغيدا تاريخ توقوز يوز
ايكىدا مين بىر ايوانلىق حجره سالدېم اگرچه اول حجره موندين مرتفع دور
... خبردا كيلمىش قوشلوق آشيغا تورت يوز قانگلى يانا ايمىشلار
يىتتى يوز قانگلى اون خرج بولور ايردى تاقى ايمىشلار تال يىغاچلار
يىغيب سبد توقوب كيليم كيب سبد ساتار ايردى ياريم بهاسين صدقه
قىلور ايردى ياريم بهاسى غا ارپا ايتماك نى آليب يبيور ايردى
51 - **mashq.** 1, 5, 8, 9, 12, 16, 17, 23, 24, 26, 29, 31, 35, 38, 83, 97, 98 sonlarini arab raqamiga va yozuviga o'giring.

V. Uyga vazifa:

52 - **mashq.** Birlik va o'nlik sonlarni arab raqamlari bilan yozing.

53 - **mashq.** Namunaga muvofiq murakkab sonlarga 10 ta misol yozing.

Namuna: 1987-1987 - بىر مىنگ توققېز يوز ساكسان يىتتى

54 - **mashq.** Berilgan matnni o'qing, sonlarning yozilishi va o'qilishiga diqqat qiling.

55 - **mashq.** Quyidagi sonlarni o'qing va yozing.

۱۴۶۳ ۱۶۳۹ ۷۲۸ ۳۸۹ ۹۳۵ ۵۶۷ ۳۰ ۲۹ ۲۶ ۲۵ ۲۲ ۱۷ ۱۱ ۱۶ ۲۵ ۲۲ ۱۹
۳۵۰۵۴ ۹۸۰۶ ۴۳۵۳ ۷۶۸ ۶۲۵ ۲۲۲۸ ۱۷۴۱ ۱۴۸۶ ۱۹۶۰ ۹۴۳۷ ۵۶۴۲ ۱۸۲۶

56-mashq. Quyidagi maqolni o'qing va husni xat tarzida yozing.

حق يولیده کیم سینگابر حرف اوقوتمیش رنج ایله
ایلاماک بولماس ادا آنینگ حقین یور گنج ایله (نوایی)

قابوس نامه دن حکایه

بر کون افلاطون اوتیرمیش ایردی شهر اولوسی نینگ خاصلاری دین بر
کیشی انینگ سلامی غه کیلیب اولتوردی و هر تورلیک سوز ایتور غه تیل
ایوردی سوز اراسیدا دیدی ای حکیم بو کون فلان کیشینی کوردیم کیم سینینگ
تعریفینگ نی ایتیپ کوپ دعالار قیلدی و من تیلادیم کیم انینگ شکرین سنگا

یتکورای من افلاطون حیران بولدی اول کیشی دیدی منینگ بو سوزیمدین
 حیران و دل تنگ بولدینگ مو افلاطون دیدی ای خواجه منگا سینینگ بو
 سوزینکدین هیچ رنج و تنک لیک یتوشمادی و لیکن منگا اولوغ مُصیبت بو
 فکردا ایردی کیم منی جاهل تُولیف قیلغای منینگ ایشیم انگا مقبل توشگای اگر
 من بر جاهلانه ایش قیلیمیش بولغایمن کیم جاهل منی توصیف ایتگای و من بو
 جهتیدین غمگین من کیم جاهل لار نینگ مرغوبی بولغای من و جاهل نینگ
 معنوبی جاهل بولغوسی دور .

O‘N BESHINCHI DARS

Turkiydagi unlilar

Alisher Havoiiy davri tilida (XV asr) 10 ta unli tovush mavjud bo‘lgan.
 Bular: a, ā, e, I, I:, ы, o‘, θ, u, Y. Mazkur unli tovushlar yozuvda quyidagi
 harflar bilan ifodalangan:

Unli tovush	Tavsifi	Harflar	Misollar	So‘zda kelish o‘rni
A	orqa qator qattoq	ا (alif) ه (hoye havvaz)	ادیر، تارماق، ایرتا نیچه، مونچه، تذکره	Barcha o‘rinda So‘z oxirida
ā	orqa qator qattoq, ochiq	آ (maddali alif) ا (alif)	آلمه، آقارماق بقا، یغما، بابا، حکما	So‘z boshida So‘z ichi va oxirida
e	old qator, yumshoq	ی (yo) ای (alif –yo)	بیرماک، بیماک، بیکار، میوه ایتماک، اینه که، ایندین	So‘z ichida So‘z boshida
i i:	old qator, yumshoq	ی (yo) ا (alif) ای (alif –yo)	نیلی، قیسقا، کیلدی، تیر املا، اختیار، اتفاق ایستاک، ایضاح، ایلیک	So‘z ichi va oxirida So‘z boshida So‘z boshida
ы	orqa qator, qattoq	ы (yo) а (alif)	خالق، قیزیق، بالیق اختلاف، اقبال، اقرار	So‘z ichida So‘z boshida

		ای (alif –yo)	ایخچم، ایرغای	So‘z boshida
o‘	orqa qator, qattoq	و (vov) او (alif-vov)	قول، شور، توقوز، شوخی اورماق، اوتون، اولپان، اوغول	So‘z ichida So‘z boshida
θ	old qator, yumshoq	و (vov) او (alif-vov)	کوز، جوره، توک اوزبیک، اوکتم، اوتماک	So‘z ichida So‘z boshida
u	orqa qator, qattoq	و (vov) او (alif-vov)	هوش، قوم، قویروق، سوغارماق اوزاق، اولاق	So‘z ichida So‘z boshida
Y	old qator, yumshoq	و (vov) ا (alif) او (alif-vov)	دود، توزوک، بویوک اومید اوی، اوج، اوچون	So‘z ichida So‘z boshida So‘z boshida

Ammo so‘zdagi barcha unlilar ham maxsus harflar bilan yozilavermaydi. Odatda, ko‘pincha so‘z o‘rtasida ayniqsa, undosh bilan boshlanuvchi so‘zlarning birinchi bo‘g‘inidagi unli tovushlarni ifodalaydigan harflar yozilmaydi, ammo gap yoki matn mazmuniga ko‘ra, ushbu so‘zdagi unlilar talaffiz etilaveradi .

Bundan tashqari, harakatlar (yozuv belgilari) dan ham unlilarni ifodalash uchun foydalanilgan. Fatha yoki zabar (َ-), kasra yoki zir (ِ-), zamma yoki pish (ُ-) belgilari, odatda, yozuvda harflarning ustiga yoki ostiga qo‘yilib a, I, o‘, θ , u va Y unlilarini ifodalagan.

57-mashq.

1-topshiriq. Quyidagi maqollarni ko‘chiring va lotin yozuvi ga aylantiring.

مقال لار

عاقل غه اشارت يامان غه کوتک
يخشی آت قه بیر قمچی يامان آت قه مینگ قمچ

آز آشیم غوغاسیز باشیم
موشوک کا اویون سیچقان غه اولوم
آتا آنا نینگ کونگلی بالادا بالانینگ کونگلی دالادا
یامان یولداش دین تایاق یاخشی
عقل سیز دوست دین عقل لیغ دشمن یاخشی

2- topshiriq. Yuqoridagi gaplardan aslida unli harf bo'lib, shu harflarsiz yozilgan so'zlarni ajratib oling va izohlang:

مقال لار maqollar so'zining birinchi bo'g'inidagi a tovushi harfsiz ifodalangan.

58 - mashq.

1- topshiriq. Quyidagi matnni ko'chiring va lotin yozuviga aylantiring.

حکایه

بیر آدم بیر طوطی نی آلیب انگا تورکی تیلینی اورگاتیب توردی اما هر چند سعی
قیلسه هم اول طوطی " موندا نیمه شک بار " دیگان سوزدین باشقا نرسه نی
اورگانمادی. اول آدم هر قنداغ سوال قیلسا طوطی " موندا نیمه شک بار " دیب جواب
بیرار ایدی. بیر کونی اول آدم اول طوطی نی ساتماق اوچون بازار غه آلیب چیقیب
بهاسینی یوز روپیه اظهار قیلدی. طوطی " موندا نیمه شک بار " دیدی.

2- topshiriq. Harf usti va harf osti belgilariga e'tibor berib o'qing.

علم نینگ آفتی ایشدن چیقارماقلیق و علمگا رغبتی بولماغان کیشیلارگا
اورگاتیب اونی ضایع کیتکازماقلیق دور. منافق لیق بیلگیسی اوچته دور یالغان
سوزلاش، وعده نینگ اوستیدن چیقمسلیک و آمانت گا خیانت قیلش.

A va ā unlilari

Turkiy tullarda qadimdan mavjud bo'lgan orqa qator, qattiq a (qar, g'am, xaqan) va old qator , yumshoq a (mana, zar, bilak) turkey yozuvda alif (ا), hoye havvaz (ه), ayn (ع) harflari bilan yozilib va zabar (آ) belgisi bilan ifodalanib kelingan.

ā tovishi o'zbek tilida XV asrda fors-tojik tilidan o'tgan so'zlar tufayli paydo bo'ldi. Bu davrda ba'zi turkiy (o'zbekcha) so'zlardagi orqa qator, qattiq a ning ā ga tomon siljishi ro'y berdi.

Bu unli o'zbek yozuvida madli alif (آ) va alif (ا) bilan yozilgan :
آداب – odob, باش – bosh, عالم – olam kabi.

59 - mashq.

1- topshiriq. Quyidagi hikmatli so'zlarni ko'chirib yozing va lotin yozuviga aylantiring.

حکمتلی سوزلار

انگا بوغداى اورماق نینگ امكانى

اگر اړپا هم ساچسا بولماققا توق
يوق

کورار هر نی کیم ظاهر ایتی همان
اما سوز سیپاماق باشقا آفت دور
نخل ترین انگلا قوروغان اوتون
اورنون گه قیزیق دورور ساووتما
شبان محنتیدین نی اندیشه دور
علی شیر نوایی

اگو کیمسه دین ظاهر بولدی یمان
اگر تیلینی اسراماق کونگولگا محنت دور
باقماسا دهقان چمنین تون و کون
بیگانه نی اویونگ ساری یاووتما
بوریغا قوی بوغماغی بیسه دور

2- topshiriq. Yuqoridagi matndan **a** unlisi qatnashgan so'zlarni (qo'shimchasi bilan) ajratib oling va unung harfli yoki harfsiz ifodalanganini quyidagicha izohlang:

Alisher so'z boshida ayn harfi o'qilmaydi, fatha harakati o'qiladi. Birinchi bo'g'indagi **a** harfsiz ifodalangan. Navoiy so'zining ikkinchi bo'g'inidagi **ā** alif (ا) harfi bilan berilgan.

کامل خوارزمی (۱۸۲۵ - ۱۸۹۹)

هر نیچه ایلا بان اظهار فصاحت شعرا،
آجیبان لطف ملاححت گلین اشعاریدین،
قیلسه لار هر نیچه اظهار صداقت شب و روز،
شعرا.

قیلماس امید قیلورشکر شرارت ایلینینگ،
حق سوزین شاه و گدا قاشیده کتمان ایتماس،
تیل و ایلکیدا اگر قالسا سلامت شعرا.
بو جهتتین هدف تیر ملامت شعرا.

60-mashq. Yuqoridagi matndan **ā** unlisi qatnashgan so'zlarni (qo'shimchasi bilan) ajratib oling va qanday ifodalanganini quyidagicha izohlang:

Komil so'zining birinchi bo'g'inidagi **ā** unlisi alif harfi asosida ifodalangan. Xorazmiy so'zining birinchi bo'g'inidagi **ā** unlisi alif harfi asosida ifodalangan (alifdan oldingi vov (و) shu o'rinda o'qilmaydi.

61- mashq.

1- topshiriq. Quyidagi matnni ko'chirib yozing va lotin yozuviga aylantiring.

مقال لار و حکمتلی سوزلار

آنا یورتینگ آمان بولسه رنگ و رویینگ سامان بولماس
یورت قوريسانگ اوزارسن قوریماسانگ توزارسن
ایر بیگیت نینگ قدرینی آغاسی ایماس ایل بیلور
قامتی گا ایشانگان قدینی بوکوب کیتادی
کوپچیلیک کا ایشانگان تیلاگی گا بیتادی
نالیش بیلان ایش بیتمایدی مرد نامرد گا تیز چوکمایدی

دشمن گاه امان بيرما
غيرت ايتگان تاغنى كيسار غيرت تيمير ارقان نى اوزار
ايل سينگا ايتسا ندامت دنيا دا تور الماسسن سلا م
كيماگا كيرگان نينك جاني بير
ارسلان نينگ اولوگى سيچقان نينگ تيريگى
بيگيت كيلسا ايشگا قارى كيلسا اشگا
قورققان آلدن مشت کوتارار

2- topshiriq. Yuqoridagi matndan alifnin qanday tovushlarni ifoda etganini quyidagicha izohlang:

مقالار maqollar so'zining ikkinchi bo'g'indagi ā tovushini ifodalaydi. Uchinchi bo'g'indagi alif esa a tovushini ifodalaydi. اير Er so'zi boshida kelgan alif o'zidan so'nggi ی yo harfi bilan birgalikda e tovushini ko'rsatadi.

O'N OLTINCHI DARS

E unlisi

Bu unli XV asrda yuzaga kelgan. U qadimgi turkey til (V-X asrlar) va eski turkey til (XI-XIV asrlar) dagi old qator, yumshoq a (keldi, sekiz, er)ning o'zgarishidan paydo bo'di: keldi, sekiz, er.

E unlisi tirkiy so'zlarning faqat birinchi bo'g'inida qo'llangan, hozirgi tilda ham shu holat saqlangan.

Vaznda turkey so'zlardagi e ochiq bo'g'inda qisqa, yopiq bo'g'inda cho'ziq bo'g'in hosil qiladi.

Yozuvda e unlisi so'z boshida alif – yo (اى), so'z o'rtasida yo (ى) harflari va zir (ۈ-) belgisi vositasida ifodalangan.

62- mashq.

1- topshiriq. Quyidagi matnni ko'chirib yozing va lotin yozuviga aylantiring.

خوارزمى

محبت نامه دن

ايا كورك اجرا عالم پادشاهى
جهان توتى سينيگ حسنونگ سپاهى
پرى رخسارلار نينگ كوركايى
يوزونگ نوروز قاشينگ بيرم آيى
كونگول شيرين سوزونگا بولدى فرهاد
كوزونگ کشمير جادوسيغا استاد

قارا مینگ آل ینگاقینگ گایراشور
باشیم دایم اداقینگ گایراشور
بویونگ سرو صنوبرتیک بیلیگ قیل
وفا قیلغان کیشیلار گایر قیل

2- topshiriq. Yuqoridagi matndan e unlisi qatnashgan so'zlarni (qo'shimchasi bilan) ajratib oling va harfli yoki harfsiz ifodalanganini quyidagicha izohlang:

دهقانلیق so'zining birinchi bo'g'indagi e unlisi harfsiz ifodalangan. ییرنی yerni so'zining birinchi bo'g'indagi e unlisi yo (ی) harflari bilan berilgan.

63 - mashq.

1- topshiriq. Quyidagi matnni ko'chirib yozing va lotin yozuviga aylantiring.

ساقی نامه دن

کیتور ساقیا مژده جامدین
که پژمرده بولمیش مین ایام دین
بو گلشن گلیغا چو یوقتور وفا
نی پرهیز ایتای جام گلفام دین
چو یوق شام هجران خماریغا صبح
ایچیب انگلامای صبح نی شام دین
خلاص ایلائی اوزنی می و نقل دین
سوو دانه سی بیر لا بو دام دین
بولای دیر پریغا انداغ مرید
که یاد ایتمایین شیخ الاسلام دین
کیرای دیر ارا ایلا مجنون مست
که کیتسون خود خاص ایلا عام دین
سالای بیر علاج خرابات ارا
که چیقسون فغان اهل ایام دین
خرابتی اولماق لیغیم زاهدا
سوال ایتما مین زار بدنم دین
گرو قیلغالی می غا چون قالمادی
نی تسبیح نی خرقة نی کام دین
خرابات ارا کیردیم آشفته حال
می استار گا ایلگیمدا سینغان سفال

2- topshiriq. Yuqoridagi matndan yo (ی) harfi qatnashgan so'zlarni ajratib oling va bu harflarning vazifasini izohlang:

(ى) Soqiynomadan so‘zining ikkinchi bo‘g‘inidagi yo harfi I va y tovushlarini ifodalaydi. كيتور ketur so‘zining ikkinchi bo‘g‘inidagi (qo‘shimchadagi) yo (ى) harfi e tovushini ko‘satadi.

I, BI va I: unlilari

I va BI unlilari qadimgi (V-X asrlar), eski (XI- XIV asrlar) turkey tilda va keyingi davrlar o‘zbek tilida mavjud bo‘lib, old qator, ingichkaligi (i) , orqa qator, qalinligi (BI) bilan farqlangan.

I unlisi so‘zning barcha o‘rinlarida kela oladi, yozuvda yo (ى) alif (ا) , alif-yo (اى -so‘z boshida), ayn (ع – so‘z boshida) harflari va zir (ِ-), belgisi vositasida ifodalangan.

BI unlisi so‘z o‘rtasida va so‘z boshida qo‘llanadi, yozuvda yo (ى) , alif (ا) alif-yo (اى) harflari yordamida ko‘rsatiladi:

قىزىق، خالق، اختلاف، ايسيق، عرق، عشق.

I: unlisi I ga nisbatan cho‘ziq, so‘zda ma’no farqlashga xizmat qiladi:

Tariq(don) – tari:q (yo‘l, usul)

Qarib(qarimoq)- qari:b (shunga ko‘ra)

Biz (olmosh)- bi:z (bigiz)

Tir (ter)- ti:r (o‘q)

I: unlisi mavjud bo‘g‘inlar o‘ta cho‘ziq bo‘g‘inlardir. Bu unli tovush yo (ى) alif-yo (اى) harflari.

64 - mashq.

1- topshiriq. Quyidagi matnni ko‘chirib yozing va lotin yozuviga aylantiring.

بابر شعرلاری

صبا اول گل حریمیغا گذار قیل
مینینگ حالیمدین اول گل گا خبر قیل
سلامیم بیتکوز اول آرام جانغه
يانا مونداغ دیگیل اول دلستان غه
یوزونگ نی کورساتیب کونگلو منی آلدینگ
دیگیل دلدارلیق مونداغ بولور مو
آلیب کونگلو منی کوزدین مینی سالدینگ
طریق یارلیغ مونداغ بولور مو
بو ینگلیغ رحم سیز هم بیلماس ایردیم
سینی مونداغ تصور قیلماس ایردیم
سینی دیب بارچه عالم دین کیچیپ مین
رفیق و یار و همدم دین کیچیپ مین

زمانی قیلمادیم سیندین فراغت
ولی باردور سینگا میندین فراغت

2-topshiriq. Yuqoridagi matndan i tovushi qatnashgan-u, lekin harf bilan yozilmagan so'zlarni ajratib oling va quyidagicha izohlang:

بابر bobur so'zining ikkinchi bo'g'ida mavjud bo'lgan I tovushi harfsiz ifodalangan.

ارام جانغه Oromijong'a so'zining birinchi so'z oxirida I tovushi (fors izofasi) harfsiz ifodalangan.

O'N ETTINCHI DARS

O' va θ unlilari

Orqa qator , qattiq O' unlisi tirkiy tillarning eng qadimgi davridan hozirgi kungacha mavjud bo'lgan tovushdir: qo'l, g' o'r, o't, to'qqiz, qo'ra kabi.

O' tavushi yozuvda (و) vov va (او) alif-vov harflari vositasida ifodalangan.

Old qator, yumshoq θ (O') unlisi ham turkiy tillardagi eng qadimgi tovushlardir: k θ z, k θ ra, θ zbak kabi.

O' va θ unlilarining alohida nutq tovushlari deb qaralishiga sabab, ular ma'no farqlaydi:

O't (o't, olov) – θt (o'tmoq). bo'z (qo'riq) – b θz (mato).

bo'lmoq (hozir bo'lmoq) – bθlmoq (kesmoq)

bo'la (semiz) –bθla (qarindosh)

θ (o') tovushi ham yozuvda vov (و) va alif-vov (او) harflari vositasida beriladi.

65 - mashq.

1- topshiriq. Quyidagi matnni ko'chirib yozing va lotin yozuviga aylantiring.

ظهیر الدین محمد بابر

هر کیم که وفا قیلسه وفا تاپقوسی دور

هر کیم که جفا قیلسه جفا تاپقوسی دور

یخشی کیشی کورماگای یمانلیق

هر کیم که یمان بولسه جزا تاپقوسی دور

اعضا و جوار حینگ نی حاضر قیلغیل

جان بیرله کونگول حاضر و ناظر قیلغیل

هر لحظه بیر اندیشه و بیر فکرنی قوی

اندیشه و فکرنی بارین بیر قیلغیل

کونگلی تیلاگان مرادیغه بیتسا کیشی

یا بارچا مرادلارنی ترک ایتسا کیشی

بو ایکی میسر اولماسا عالم دا
باشینی آلیب بیر ساریغا کیتسا کیشی

2- topshiriq. Yuqoridagi matnda so'z va qo'shimchalar tarkibidagi O' va θ unlilarining ifoda etilishiga diqqat qiling. Shu tovushlarning harfli va harfsiz berilishini izohlang:

اوتار θtar so'z ning birinchi bo'g'inda keluvchi θ(o') tovushi yozuvda alif (ا) va vov (و) birikmasi asosida berilgan.

اوغلی o'g'li so'z ning so'z boshidagi o' tovushi yozuvda alif vov birikmasi (او) asosida beriladi.

3-topshiriq. Quyidagi so'zlarni eski yozuvga aylantiring.

Qo'l, o'roq, bo'sh, ko'z, o'zak, ko'za, g'o'za, b'g'moq, to'qqiz, to'rtinchi, bo'zlamoq.

U va Y unlilari

Orqa qator qattiq U unlisi turkey tillarning barcha davrlarida mavjuddir: uzun, tuz, buzmoq, turmush, burunduq.

U unlisi so'zning oxirgi ochiq bo'g'inidagan tashqari turli o'rinlarda kela oladi. Yozuvda vov (و) , alif-vov(او) harflari, shuningdek, pish (ؤ-) belgisi bilan ko'rsatilgan.

Old qator, yumshoq Y unlisi ham eng qadimgi turkey tovush bo'lib, oxirgi ochiq bo'g'indan tashqari o'rinlarda uchraydi. o'y, ko'y, bo'yo'k, o'ya, bo'yarak, o'cho'n kabi. Bu unli ham yuqoridagi harflar yordamida yoziladi, pish (ؤ-) belgisi mazkur unli uchun qo'llanilmaydi.

U va y unlilari so'zda ma'no farqlashga xizmat qiladi:

t yz (tuzmoq)-	tuz (osh tuzi)
hur (ozod, erkin)-	x yr (xurmoq)
b yz (muz)-	buz (buzmoq)

66 - mashq.

1- topshiriq. Quyidagi matnni ko'chirib yozing va lotin yozuviga aylantiring.

خوارزمی

مُحَبَّتْ نَامَه دَنْ

بویونگ سرو و صنوبر تیک بیلینگ قیل
وفا قیلغان کیشیلارگا وفا قیل
عقیقینگ صحبتیدین جان بولور سوز
قمر تیک چهرنگا باقسا قمر کوز
اورور نرگس لارینگ ناوک تی جانغا
کولار چهرنگ چچک تیک ارغواو غا
محبت ناری جان دین کیتما دی هیچ
قولوم سیم آلمانگیز غا بیتما دی هیچ

2- topshiriq. Yuqoridagi matnda so'z va qo'shimchalar tarkibidagi U va y unlilarining ifoda etilishiga diqqat qiling. Shu tovushlarning harfli va harfsiz berilishini izohlang:

محبت نامه دن Muhabbatnoma so'zining birinchi bo'g'indagi U tovushi harfsiz holatda ifodalangan.

حسنونگ husnung so'zining birinchi bo'g'indagi y tovushi harfsiz berilgan. Qaratqich kelishigi affiksi (-ning) tarkibidagi y tovushi vov (و) asosida berilgan.

67 - mashq.

1- topshiriq. Quyidagi matnni ko'chirib yozing va lotin yozuviga aylantiring.

گلخنی

ضرب المثل

اما راویلا ر انداغ روایت قیلور لار کیم ایلگاریگی ایام دا فرغانه اقلیمیدا
کیقباد آتلیغ پادشاه دین قالغان بیر ایسکی شهرستان بار ایردی اندا بای اوغلی
وطن توتمیش ایردی اما انی هواسی خوش و بادی دلکش سبزه ریاحین انواع
گلار چیچکلار کثرتیدین قورغان بهار چاغدا طوس نی پر لاری دیک تورلانیب
منقش کورونور ایردی و انینگ یانیدا بیر ییغاچ لیک بیردا یفلاق قوش مسکنی آتا
باباسیدین قالغان جایی بار ایردی اما بای اوغلی نی بیر قیزی بار ایردی که مهر
خاوری یوزیگا بنده ایردی.

2- topshiriq. Yuqoridagi matnda so'z va qo'shimchalar tarkibidagi U tovushi qatnashgan-u, lekin harf bilan berilmagan so'zlarni ajratib oling va izohlang:

گلخنی Gulxaniy so'zining birinchi bo'g'indagi y (o'old qator yumshoq) tovushi harfsiz yozilgan.

ضرب المثل zarbo'lmasal so'zining ikki so'z o'rtasidagi ul yozuvda al (ال) bilan beriladi.

68 - mashq.

1- topshiriq. Quyidagi matnni ko'chirib yozing va lotin yozuviga aylantiring.

حزینی

غزل لاردن

مثل مجنون لیلیدیک دیوانه بولسام کاشکی،
یار اوچون عالما ارا افسانه بولسام کاشکی.
دیر ارا پیر مغان من تیلبه غا سونسا شراب،
باده نوشی ساکن میخانه بولسام کاشکی.
جام وحدت دا محبت شربتیدین نوش ایتیب،
مست اولوب ادراکدین بیگانه بولسام کاشکی.

شبلى دىك رقص ايلسام هر كوچه، وبازار ارا،
 عشق اوتىغه اورتانيب بريانه بولسام كاشكى.
 ملك اشيادين كيچيب كيتسام يارانلار بينشان،
 ايل كوزيدىن بير يولى پنهانه بولسام كاشكى.

2- topshiriq. Matndagi o', θ , u va Y qatnashgan so'zlarniajratib yozib chiqing.

1. u qatnashgan so'zlar:
2. Y qatnashgan so'zlar:
3. o' qatnashgan so'zlar:
4. θ qatnashgan so'zlar:

O'N SAKKIZINCHI DARS

Turkiydagi undoshlar

Navoiy davri o'zbek tilida 25 ta undosh mavjud bo'lgan:

b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g' sh, ch, ng , ' (ayn va hamza).

Bundan:

- a) 14 tasi jarangli undosh: b, d, g, j , j (ajdar), l, m, n, r, v, y, z g' ng.
- b) 10 tasi jarangsiz undosh: f, h, k, P, q, s, t, x, sh, ch.
- d) ' tutuq belgisi

على شير نوایی

غزل

مینی عشق دین منع ایتار ساده شیخ
 دیما ساده شیخ انی کیم لاده شیخ
 می اوستیدا گی خسچه قیلماں حساب
 اگر سو اوزره سالسا سجاده شیخ
 یارو غلوق ایماس ممکن اندین که بار
 ضلالت طریقیدا افتاده شیخ...
 کیرار آدمی سانیکا قیلسا نوش
 فنا دیریدا بیر قدح باده شیخ
 ارادت دین اولغای ایدیم بنده سی
 اگر تاپسام ایردی بیر آزاده شیخ
 ایرانلار دین اوزنی توتار گرچه بار
 او گوش زیب و زینت بیلا ماده شیخ
 نوایی تیلار ساده یوزلوک ییگیت

نى غم گر انى منع ايتار ساده شيخ

69 - mashq. Quyidagi jadvalni daftaringizga ko'chiring

Jarangli undoshlar

undosh	harflar	Misollar	Izoh
b	ب (be)	بيل، باغ، كيبي، لب	so'zning barcha o'rinlarda uchraydi
d	د (dol)	داد، ايديش، ديوار	so'zning barcha o'rinlarda uchraydi
g	گ (gof)	گاه، اگر، تيگ	so'zning barcha o'rinlarda uchraydi
j	ج (je)	جان، عجب، تاج	so'zning barcha o'rinlarda uchraydi
j(ajdar)	ژ (je)	ژاله، اژدر، مژگان	so'z boshida o'rtasida uchraydi
l	ل (lom)	لاله، بالا، آل	so'zning barcha o'rinlarda uchraydi
m	م (mim)	ميم، گمان، هم	so'zning barcha o'rinlarda uchraydi
n	ن (nun)	نان، قانى، فن	so'zning barcha o'rinlarda uchraydi
r	ر (re)	راضى، طرح، بار	so'zning barcha o'rinlarda uchraydi
v	و (vov)	وقت، تاووق، قراو	so'zning barcha o'rinlarda uchraydi
y	ى (yo)	يير، آياقى، نى	so'zning barcha o'rinlarda uchraydi
z	ز (ze) ذ (zol) ض (zod) ظ (zo)	بوز، زيراک، ايزلاماق ذات، ذوق، عذاب ضرور، عرض، ضربه ظالم، ظلمت، نظر، لفظ	Turkcha so'zlarning barcha o'rinlarda Faqat arabcha so'zlarda
g'	غ (g'ayn)	غش، ياغى، تاغ	so'zning barcha o'rinlarda uchraydi
ng	نگ (ng)	دانگ، تينگيز، کونگول	so'zning boshida uchramaydi

Savollarga javob bering:

1. Qaysi undoshlar birdan ortiq harflar bilan yoziladi va buning sababi nima?
2. J (ج) va j (ژ) tovushlarining farqini ayting va yozilishiga misollar keltiring.
3. Jadvalda ko'satilgan jarangli undoshlarning qaysi biri hozirgi o'zbek tilida saqlanmagan.
4. Qaysi undosh ikki harf birikmasi bilan yozilgan?
5. N va ng tovushlarning farqini ayting va yozilishiga misollar keltiring.

70- mashq. Quyidagi jadvalni daftaringizga ko'chiring.

Jarangsiz undoshlar

f	(fe)	فغان، توفراق، صاف	soʻzning barcha oʻrinlarda
h	(hoye hutti) (hoye havvaz)	حاکم، محرم، روح همراه، مهر، بهار	oʻzlashgan soʻzlarda soʻzning barcha oʻrinlarda
k	(kof)	کیت، ایکماک، ایشیک	soʻzning barcha oʻrinlarda
p	(pe)	پیچاق، اریه، کوپ	soʻzning barcha oʻrinlarda
q	(qof)	قان، توقوز، یوق	soʻzning barcha oʻrinlarda
s	(se) (sin) (sod)	ثبات، نثر، باعث سین، جسم، نفس صیاد، وصل، قصاص	arabcha soʻzlarda soʻzning barcha oʻrinlarda Arabcha va forschada soʻzlarda barcha oʻrinlarda
t	(te) (to)	تیز، آتا، بات طلب، طاهر، لطف	soʻzning barcha oʻrinlarda Arabcha soʻzlarda soʻzning barcha oʻrinlarda
x	(xe)	خط، یاخشی، تخت	soʻzning barcha oʻrinlarda
sh	(Shin)	شاه، کیشی، قوش	soʻzning barcha oʻrinlarda
ch	(chim)	چال، آچ، کیچ	soʻzning barcha oʻrinlarda

Savollarga javob bering:

1. Qaysi undoshlar birdan ortiq harflar bilan yoziladi va buning sababi nima?
2. X va h tovushlarining farqini ayting va yozilishiga misollar keltiring.
3. Jadvalda koʻsatilgan jarangsiz undoshlarning qaysi biri hozirgi oʻzbek tilida saqlanmagan.

71- mashq. Quyidagi jadvalni daftaringizga koʻchiring.

Tutuq belgisi

(tutuq belgisi)	ع (ayn undoshi)	عالم، معلوم، جامع	soʻzning boshida oʻqilmaydi
	ء (hamza)	مسئله، تأسیس، عائله	soʻz boshida qoʻllanilmaydi

1. Ayn (ع) tovushi hozirgi oʻzbek tilida bormi?
 2. soʻz boshida uchramaydigan tovush va soʻz boshida yozilsa- da, oʻqilmaydigan harf qaysi?
- Oʻqing.

حافظ خوارزمی

آلدی نقاب یوزیدین اول یار بو کیچه
بولدی کشاده یوز گل و گلزار بو کیچه
کور گوزدی ایرسا کورگلو یوزین گلستان بیکی
جان بلبلی کوروب انی سائرار بو کیچه
مجلس آراسیدا اوشه نینگ زلفی سوزیدین
شرمنده بولدی نافه تاتار بو کیچه
مخمور اول قرا کوزی نینگ دوریدا مدام
کوز کورا کوردی دولت بیدار بو کیچه
بیر سورسام ایردی تار آغزین کیم سوچی ایرو
جان بولغای ایردی واقف اسرار بو کیچه
عاشق اومید توتسا وصالین عجب ایرماس
چون بنده سینی شاهی سویور غار بو کیچه
زلفی نگار توشسه بو حافظ نینگ ایلکینه
باغلاغای ایردی بیلینه زنار بو کیچه

72- mashq. Matnni o'qing.

اسماعیل سامانی مقبره سی

منه مینگ ییل دیر که حاضرگی بخارا شهری یقینیدا بیز نینگ کونلار یمیز
گاچه آمان ساقلانیب قالگان قدیمی اسماعیل سامانی مقبره سی شهرگا کیلگان هر
بیر کیشینینگ دقتینی اوزیگا جلب قیلادی.

۸۱۹-۹۹۹ ییلار دا ماوراء النهردا حکم سورگان سامانیلار سلاله سی
نینگ اساسچیسی اسماعیل سامانی نینگ تبرک خاکی شو بیردا. او اولکامیزدا
۱۵ ییل

(۸۹۲ - ۹۰۷ ییل لار) دوامیدا مدنیت، صنعت، معمارچیلیک و ادبیات
رونقیگا حامیلیک قیلدی .

اسماعیل سامانی مقبره سی اوشه دور معمارچیلیک نینگ نادر نمونه سیدیر.
حکمدار اوز پدری اوچون قوردیرگان مقبره سیگا کیینچه لیک اونینگ اوزی،
اوغلی و نبیره سی دفن قیلیندی. مقبره نینگ شکلی، نقشلاری عادی، شونینگ
بیان بیرگاغایت گوزل دیر. تورت تامانداگی ایشیکلار دنیا نینگ تورت طرفیگا
قاراتیب بیر خیل شکلدا اورناتیلگان.

افسوسکه معمار نینگ اسمی بیزگا نامعلوم. اما او کیم بولماسین، بریبیر او
بنیادکار یاراتگان مقبره بو دوردا گی معمار چیلیک یوکساک درجدا رونق
تاپگانیدن دلالت بیرادی. ۱۹۳۷-۱۹۳۹ ییل لار دا اونی تعمیر قیلگان بخارالیک
قولی گل معمار لار هم بنانینگ قدیمی قیافه سینی قندای بولسه، شوندای ساقلاب
قالگانلار .

O'N TO'QQIZINCHI DARS

Unlilar uyg'unligi va uning qo'shilchalarga ta'siri

XV asr o'zbek tilida unlilar uyg'unligi qonini mavjid bo'lgan. Unlilar uyg'unligi deganda o'zak-negizlardagi unlilarning moslashuvi, ohangdoshligini tushunamiz. Masalan, birinchi bo'g'inda til oldi, yumshoq *e, θ, Y* bo'lgan so'zlar yumshoq negizli so'zlar bo'ladi (*کولماک* – *kYlmok*, *اوزبیک* – *θzbak*, *ایتماک* – *etmek* kabi) tarkibida til orqa, qattiq *ā, o', u* bo'lgan so'zlar qattiq negizli so'zlar bo'ladi (*بازار* – *bāzār*, *تولدی* – *to'ldi*, *اوزون* – *uzun* kabi). Tarkibida *q, g* undoshlari bo'lgan so'zlarning o'zak-negizi qattiq hisoblanadi (*قیشلوق* – *qishloq*, *باغ* – *bog'*, *غم* – *g'am* kabi), tarkibida *k, g* undoshlari bo'lgan so'zlarning o'zak-negizi yumshoq sanaladi (*کولماک* – *kulmak*, *ییتکورماک* – *yetkurmak* kabi).

Alisher Navoiy davri tilida qattiq o'zakli so'z o'zagiga qo'shimchaning qattiq shakli, yumshoq o'zakli so'z o'zagiga qo'shimchaning yumshoq xili qo'shiladi.

توتماق – *Tutmoq* *چایماق* – *chopmoq*

کولماک – *Kulmak* *ایچماک* – *ichmoq*

Bundan tashqari, so'z o'zagidagi unlining lablangan yoki lablanmagan bo'lishiga qarab, qo'shimcha tarkibidagi unli o'zgaradi: lablangan bo'lsa, lablanadi, lablanmagan bo'lsa, lablanmaydi.

Masalan, so'zlarga ravishdoshning -ib yoki -ub shaklli qo'shimchalarining qo'shilishi shunga ko'ra yuz beradi:

بیریب – *berib*

ایتیب – *etib*

کیلتوریب – *kelturub*

سورتوب – *surtub*

73 - topshiriq. Quyidagi matnni ko'chirib yozing va lotin yozuviga aylantiring.

محبوب القلوب دن

تورتونچی فصل ظالم و جاہل و فاسق پادشاہ ذکریدا عادل پادشاہ کوزگو بو
انینگ اوچہ سیدور اول یاروغ صبح و بو قارانغو کیچہ سیدور ظلم انینگ
کونگلیگا مرغوب فسق انینگ خاطریغہ محبوب ملک بوزو غلیغیدین ضمیریغہ
جمعیت و اولوس پریشان لیغیدین خاطریغہ امنیت آبادلار انینگ ظلمیدین ویرانہ
و کبوتر تاقچہ لاری بایقوش قا آشیانہ بادہ سیلی بزמידا چون طغیان قیلیب اول
سیل ملک معمورلارین ویران قیلیب سوچی خانہ سیغہ فرش مسجد رواقی
توکولگانیدین و کویلاری باشیغہ خشت مہراب طاقی بیمرولگانیدین اگر قان
توکماک پیشہ کیم کہ جانی بارانکہ اندیشہ اگر شریغہ مشعوف کوی و کوچہ دا
مسلمانلاریغہ مخوف اگر فاسق بولسا و بداعمال ایل اہل عیالیغہ اندین بیم نکال

و اگر ستیزه روی بولسا و خودرای مشفق نوایی جانپغه وای.

2- topshiriq. Yuqoridagi matnda unli tovushlar uyg'unligiga oid belgilarni aytib bering.

74 - mashq.

1-topshiriq. Quyidagi matnni ko'chirib yozing va mazmunini so'zlab bering.

یخشی خلق لار

پاک لیک عقل قدرین بیلماک، اوز دینی نی سویماک، وقت نی بیکار اوتکاز مسلیک، الله تعالی گاه عبادت قیلماق، آناغا اطاعت قیلماق، قرینداشلارنی عزت و حرمت قیلماق، توغری سوزلاماک، محتاج لار گاه یاردم بیرماک، سخاوت، یومشاق لیک، آچیق یوزلیک، تواضع، شفقت و مروت، بولار نینگ همه سی یخشی خلق لار دندور.

یامان خلقلار

جهالت، یالقاولیک، قورقاق لیک، تعصب، یالغان چیلیک، حيله کار لیک، حسد، اسراف قیلماق، منافق لیک بیهوده سوز سوزلاماق، سرایتماق لیک، چقیمچی لیک، ظلم قیلماق، غضب لیک بولماق، بولار نینگ همه سی یامان خلقلار دندور.

Savollarga javob bering

1. XV asr o'zbek tilida nachta unli tovush bo'lgan? Ular qaysilar?
2. Unli tovbushlar yozuvda qanday aks ettirilgan? Harfli, harfsiz va harakatlar vositasida ifodalanishiga misollar keltiring.
3. XV asr o'zbek tilidagi a va ā unlilarini va ularning yozilishini qisqacha ta'riflab bering.
4. ā unlisining yuzaga kelishi va yozilishini aytib bering.
5. Navoiy davri (XV asr) tilida I, I: va ы unlilarning qo'llanishi va yozilishi haqida so'zlang.
6. o' bilan θ bir-biridan qanday farqqa ega? Yozuvda ular farqlanganmi?
7. u va Y unlilarni tavsiflab bering. Ular yozuvda qanday aks ettirilgan?
8. XV asr o'zbek tilida nachta undosh tovush mavjud bo'lgan? Ularni sanab ko'rsating.
9. Undoshlarni jarangli, jarangsiz deb guruhlanishining sababini bilasizmi? Undoshlarning yana qanday turlari bor?
10. Qaysi undoshlar birdan ortiq harflar vositasida yoziladi, qaysi tovush ukki harf birikmasi asosida yoziladi?
11. Unlilar uyg'unligi qonuni deb nimani tushunasiz? Navoiy davri tilida bu qonun bormidi? Hozirgi tilda-chi?

12. Qattiq negizli soʻzlar va yumshoq negizli soʻzlarga tavsif bering. Nega soʻzlarga qoʻshimchalarning turli (yumshoq va qattiq, jarangli va jarangsiz) shakllari qoʻshilgan?

YIGIRMANCHI DARS

FORS IZOFASI

Izofa arabcha soʻz boʻlib, bogʻlanish, qoʻshish maʼnolarini anglatadi. Fors izofasida aniqlovchi bilan aniqlanmish izofa deb ataluvchi i tobushi orqali bogʻlanadi. Hozirgi oʻzbek tilida fors-tojik izofasi uchrab turadi. Masalan: dard – i – sar درد سر, dard-i-bedavo درد بيدوا, tarjima-i-hol ترجمه حال, nuqta-i-nazar نقطه نظر.

Eski oʻzbek yozuvi namunalarida uchraydigan ana shunday izofalar mazmunini tushunib olish uchun mazkur grammatik mavzuning quyidagi tomonlariga eʼtibor bermoq zarur.

Fors izofasida soʻz tartibi oʻzbek tilidagiga nisbatan teskari boʻladi: oʻzbek tilida avval aniqlovchi, keyin aniqlanmish kelsa, fors izofasida birinchi aniqlanmish, keyin aniqlovchi keladi. Fors izofasidagi soʻzlar ajratib oʻqilmay, bir butun talaffuz etiladi.

Fors izofasining tuzilish tartibi quyidagicha:

a) Birinchi oʻrinda turgan aniqlanmish undosh bilan tugasa, izofa "i" (ِ - zer) tarzida talaffuz etiladi. Masalan:

dard-i-sar درد سر Saddi Iskandariy سدّ اسکندری

b) "a" (hoye havvaz) unlisi bilan tugagan soʻzlardan soʻng izofa hamza belgisi orqali yozilib, "i" deb talaffuz etiladi. Masalan:

tarjima-i-hol – ترجمه حال nuqta-i-nazar – نقطه نظر

oina-i-jahon – آینه جهان (nazar nuqtasi)

(jahon oynasi)

v) Choʻziq unlilar bilan tugagan soʻzlardan soʻng izofa ى yo harfi orqali yozilib, "e" (ye) deb talaffuz etiladi.

Masalan: tuti-ye gʻazalxon – طوطی غزلخان

may-ye nob – می ناب – toza may

ru-ye zebo – روی زیبا – chiroyli yuz

75-mashq. Quyidagi fors izofalarini arab harflari bilan yozing.

Oshiq-i beqaror, mardum-i-Fargʻona, qomat-i-zebo, xamsa-i-Navoiy, zabon-i-forsi, ofat-i-jon, ahl-i-ilm

76-mashq. Quyidagi fors izofalarini yozing.

شجره تراکمه، حسن جمال، سد اسکندری، باب اول، سرو گل، بستان سعدی، عین وقت، مرد کار، عشق محبوب، چرخ فلک، آب روان، آب دیده، روی راست، دیوانه مشرب، کان

77- mashq. Quyidagi she'rlardan fors izofasini toping.
She'rlarni ko'chirib oling.

معدن انسان گوهری سوز دورور
گلشنِ آدم ثمری سوز دورور

Ma'dani inson gavhari so'z durur

Gulshani odam samari so'z durur

آدم اولغان زیب ظاهر دین دیماس

کیمکه اندین فخر ایتار آدم ایماس

Odam o'g'lon zebi zohirdin demas,

Kimki andin faxr etar, odam emas.

کیچه کیلگوم دور دییان اول سرو گلو کیلمادی

کوزلاریمگا کیم کیچه تانگ آتگونچه اویقو کیلمادی

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulru kelmadi

Ko'zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi.

(Navoiy)

78- mashq. Quyidagi sherlardan fors izofasini toping va ularni arab harflari bilan yozing.

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,

Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim.

(Bobur)

Yuzungizni oftobini ko'rub hayron bo'lib qoldim,

Falakka qo'l uzotib, shamsi anvarin olib bo'lmas

(Mashrab)

FORSIY IZOFAGA MISOLLAR

mushki anbar	–	مشکِ انبر	yoqimli hid taratuvchi narsa
gunohi kabir	–	گناه کبیر	katta gunoh
sultoni muntasir	–		yengilmas sulton
G 'aznai munavvara	–	nurli G 'azna	
vohidi zamon	–		zamona yagonasi
sarvari koinot	–		koinotga yo'l boshlovchi, rahnamo
mavlonai zamon	–		zamon mavlonosi
risolai muborak	–		muborak xat, maktub
ilmi urfon	–		ilm ahli, olimlar
allomai vohid	–		olimlar orasida yagonasi
vaziri a'zam	–		buyuk ishonchli vazir
arkoni davlat	–		davlat arboblari
chehrai shams	–		quyoshga o'xshash chehra, yuz
chehrai moh	–		yuzing yangi chqqan oyga o'xshatilishi

allomai zamon	–	zamonning ilmlī kishisi
baloi nafs	–	nafs balosi
kulli mo‘minin	–	butun musulmonlar
sulton salotin	–	sultonlar sultoni, zo‘ri
amri ma‘ruf	–	diniy o‘git, pand-nasihāt
hakimi davron	–	zamonlarning o‘tkir tabibi
jumlai mo‘min	–	musulmonlar
zoti sharif	–	muqaddas, tabarruk zot
jumlai jahon	–	jahondagi barcha kishilar
piri murshid	–	to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi
ahli mo‘min	–	musulmonlar ahli
zoti muborak	–	muqaddas, tabarruk zot
hakimi xoziq	–	eng o‘tkir tabib, mohir tabib

79- mashq. Berilgan jummalarni ko‘chirib yozing. Jummalarda ishtirok etgan izofiy birikmalarni aniqlang va ularning imlo qoidalarini tushuntiring.

حفظ لسان ديب هر بير ملت اوز انا تيلي و ادبياتيني ساقلاماكنى

ايتيلور (عبدالله اولانى "تركى گلستان")

خدای تعالی ایکی فرشته نی یوباردی الار کیلیب ایدیلا رای لقمان

خواهلاسانگ پیغمبر بولغیل؟ خواهلاسانگ علم حکمت نی تعلیم بیرای

(ربغوزی "قصص النبیدان")

مولانا شرف الدین علی یزدی دور مولانا نینگ صاحب کمال لیغی

عالم اهلی قاشیدا مسلمدور (علیشیر نوایی "مجالس النفائس" دان)

... تاریخ هجری مینگ تقی ییتیمیش توردا بیز بو کتابنی ابتدا قیلدوق

و تقی شجره ترک تیب آت قویدوق و تقی توققوز باب قیلدوق (ابوالغازی

بهادرخان "شجره ترک" دان)

Berilgan matnni ko‘chirib yozing. So‘zlarning to‘g‘ri yozilishi va izofa birikmalariga e‘tibor bering.

اقسام جهالت

جهالت ایکی قسم دور که بیرینی "جهل بسیط" ایکیچیسینی "جهل

مرکب" دییلور جهل بسیط مرضی گا مبتلا بولگان کیشیلار بیر نارسانی

بیلماسالار بیلماگانلیکلارینی اقرار و اعتراف قیلورلار شونینگ اوچون

بونینگ دواسی آسان فقط بیلماک و اورگانماک یولیدا جهد و جدل قیلماک

ایلا بولور جهل مرکب مرضی گا مبتلا بولگان کیشیلار بیر نارسانی

بیلماسالار بیلماگانینی هم بیلماسدان بیلمان دیب دعوا قیلور بیزدا بوندای

کیشیلار گا "اوزباشیمچه" و "اوزوی بیلارمان" اسمینی بیورورلار بو درد

بیدونینگ علاجی جناب حق نینگ لطف و عنایتی ایلا حل اولونماسا

ترکی گلستان توزالماغی مشکل و آغیردور (عبدالله اولانى)

O'qing va ko'chirib yozing.

ابو الغازی بهادرخان

شجره ترک

ایران بیلا توراندا اوتکان چینگیزخان اوغلانلاری نینگ آت لارینا آیتیلغان تاریخ لاردین اوشبو زمان فقیرنینگ آلدیندا اون سیکیز مجلد حاضر تورور اما بیز نینگ آتا و آقالاریمیزنینگ بیپروالیغی و خوارز م خلقی نینگ بی وقوف لیغی بو ایکی سبب بیزنینگ جماعتیمیزنی عبدالله خان نینگ آتالاری بیرلان بیزنینگ آیریلغان بیریدین تا بیزگا کیلگونچه تاریخ لارینی بیتمای ایردیلاز بو تاریخ نی بیر کیشیگا تکلیف قیلالی تیب فکر قیلدوق هیچ مناسب کیشی تاپمادوق ضرور بولدی اوزیمیز ایتدوق ترک نینگ مثلی تورور اوکسوز کندیکن اوزی کیسار دیگان آدم زمانیدن تا بو دم گاچه اولچاقلی تاریخ آیتیلغاندور کیم حسابینی تینگری بیلور هیچ پادشاه و امر و هیچ حکیم و دانشمند اوز تاریخی نی اوزی آیتغان ایرماس تورور بیزنینگ یورتیمیز نینگ هواسیندین و اهل خوارزم نینگ بی بضاعت لیکیدین هیچ زماندا بولماغان ایش بولدی. ایمدی کونگلینگیز گا کیماسون کیم فقیر طرف توتوب یالغان آیتغان بولغایم و یا اوزومنی غلت تعریف ایتگان بولغایمین بو فقیر غه خدای تعالی عنایت قیلیب کوپ نیمرسا بیرگان تورور خصوصاً اوچ هنر بیرگان تورور اول سپاهی گرایک نینگ قانونی و یوسونی کیم نیچوک آتلانماک و یوریماق و یاوغا یاساق یاساماق کوپ بیرلان یورگاندا نیچوک قیلماق آز بیلان یورگاندا نیچوک قیلماق دوست غه دشمن غه نیچوک سوزلاشمک ایکیچی مثنویات و قصاید و غزلیات و مقطعات و بارچه اشعارنی فهملمک لیک عربی و فارسی و ترکی لغت لار نینگ معنی سینی بیللمک لیک اوچینچی آدم عهدین دین تا بو دمگاچه عربستان دا و ایران و تران دا و مغلستان دا اوتگان پادشاه لار نینگ آتا لاری و عمرلاری نینگ کم و زیادین بیلماکلیک بیر دقت دا فهملاماک لیکدا و تاریخ بیلماک لیکدا فقیردیک کیشی شاید عراق دا و هندوستان دا بولسا بولغای یوق دیسام یالغان بولغان.

YIGIRMA BIRINCHI DARS

Oy va quyosh harflari

Arab alfavitidagi 28 ta harf ikkiga, ya'ni oy – qamariya قمریه va quyosh – shamsiya شمسیه harflariga bo'linadi. Oy harflari ham, quyosh harflari ham 14 tadan.

شمسی حرفلار

ت ث د ذ ر ز س ش ص ض ط ظ ل ن

قمری حرفلار

Arab tilidagi soʻzlar aniq va noaniq holatda boʻlishi mumkin. Arab soʻzga ال -al qoʻshilsa, (al bilan kelsa) soʻz aniq, holatda deb aytiladi.

al-kitob – الكتاب

al-bob – الباب

Fors va eski oʻzbek yozuviga xos boʻlgan p – پ ch – چ je – ژ gof – گ harflari, qaysi harflardan yasalgan boʻlsa oʻsha harflar bilan bir guruhga kiradi.(b asosida p, j asosida ch, z asosida je, k asosida g harflari yasalgan)

ARAB IZOFASI

Arab izofasi fors izofasidan shu bilan farq qiladiki, fors izofasidagi birinchi

oʻrinda turgan aniqlanmish "i" bilan tugaydi.

Arab izofasida esa birinchi oʻrinda turgan aniqlanmishning qanday tovuah bilan tugashi aniqlovchining oy yoki quyosh harfi bilan bogʻliq.

a) Agar aniqlovchi oy harfi bilan boshlansa aniqlanmish bilan uning oʻrtasida (orasida) "ul" hosil boʻladi, yaʼni aniqlanmishning "u" – si aniqlovchi ال – alining ل – lomi ustiga tushadi, natajada "ul" oʻqiladi. Masalan:

ilm uyi – dardul-funun دار الفنون

talaba -tolibul – ilm طالب العلم

ikki shoxlik – zul-qarnayn ذو القرنين

Zu soʻzi arab tilidan "egasi, ega boʻluvchi" deb tarjima qilinadi.

b) Agar aniqlovchi soʻzning birinchi harfi quyosh harfi bilan boshlansa, aniqlovchining ال – alining lomi oʻqilmaydi, uning birinchi harfi ikkilantiriladi (tashdid qoʻyiladi).

qush tili – lisonut – tayr لسان الطير

quyosh nuri – nurush – shams نور الشمس

bolalik gʻaroyibotlari – gʻaroyibus- sigʻar غرايب الصغر

ikki tillilik – zul-lisonayn ذو اللسانين

Arab izofasi koʻpincha oʻzbek tilidagi atoqli otlarda (kishilarning ismida) uchraydi. Masalan:

Ubaydullo (h) – عبید الله Abdullo (h) – عبد الله

Nuriddin – نور الدين Husniddin – حسن الدين

Abdulmalik – عبد الملك Abdurahmon – عبد الرحمان

Rahmatullo – رحمت الله Shamsiddin – شمس الدين

80- mashq. Quyidagi soʻzlarni oʻqing va yozing.

کمال الدین، زین الدین، صدر الدین، هدايت الله، نعمت الله، بدر الدین، حکمت الله، شمس الدین، عصمت الله، قدرت الله، قمر الدین، ظهر الدین، اسد الله، نجم الدین، سعد الله، نبی الله، جمال الدین، خیر الدین.

81- mashq. Quyidagi soʻzlarni oʻqing va arab harflari bilan yozing.

Muhiddin, Hikmatillo, Rahmatullo, Shukurullo, Husniddin, Abduqahhor, G'iyosiddin, Ubaydullo, Sayfiddin, Habibullo, Abdusattor, Ramziddin, Hifziddin, Nasrullo, Sa'dullo, Abdullo.

82- mashq. Berilgan jummalarni ko'chirib yozing. Jumlalarda ishtirok etgan izofiy birikmalarni aniqlang va ularning imlo qoidalarini tushuntiring.

مولانا لطفی علیہ الرحمہ اوز زمانی نینگ ملک الکلامی ایردی
فارسی و ترکی دا نظیری یوق ایردی
(علیشیر نوایی "مجالس النفائس" دان)

حضرت لقمان حضرت علیہ السلام نی وقتلاریدا بار ایردی (ربغوزی
"قصص النبیدان")

چون لسان الحانی بیلا ترنم توزوب مین قوش تیلی اشارتی بیلا
حقیقت اسرارین مجاز صورتیدا کورگوزوب مین (علیشیر نوایی "محاکمة
اللغتين" دان)

جهانگیر شاه روح میرزا جمیع ماور النهر ولایتینی اولوغ اوغلی
اولوغبیک میرزاغا بیریب ایدی اولوغبیک میرزادین اوغلی عبد اللطیف
میرزا آلدی
(ظهیر الدین محمد بابر "بابرنامه"
دان)

چون میزان الاوزان بحرلاری دا غواص بولدوم اول معیار بیلا
نصیر طوسی عذرین قولدوم
(علیشیر نوایی "محاکمة اللغتين" دان)

Berilgan matnni o'qing va ko'chirib yozing.

استعدادلی طلب

فضل الدین مدرسه گا بارغان چاغیدا ۱۳ یاشدا بولوب طلبه لار
آراسیندا اوتکیر ذهنی بیرلان اوزگا طلبه لار گا نمونه ایردی. ریاضیات
جغرافیا و فلکیات علملاریدا اوز بیلیم درجه سی بیرلا حتی استادلارین هی
هم تعجبگا سالار ایردی نظم رشته سیدا استاد لتقی و نوایی نی کوپ
سویار و الارغا تقلید ایلاب غزل لار یازیب الارنی مهارت لاریغا حمد و
ثنا اوقور ایردی کمال الدین بهزادگا تقلید ایلاب گاهی تصویرلار کشید
قیلار ایردیکیم مدرسه استادلاری انینگ چیزغان تصویرلارینی کوروشوب
آفرینلار ایتور ایردیلار شول سببدین اکثر طلبه لار انینگ استعدادیغا
هوس بیرلا بعضی لاری حسد هم قیلور ایردیلار

بابرنامه دین

یوسف داروغا کیلیب ایکی تیزی ییلان یوکونیب دیدیکیم سیزدین نه
 یاشورایین سلطان احمد بیکنینک خبری یوقتور بایزید شیخ خبر تاپیب مینی
 ییباردی بو سوزنی ایشیتگاچ منگا طرفه حالت بولدی عالمدا جان و همیدین
 یمانراق نیمرسا یوق ایکاندور مین دیدیمکیم راست ایتقین کیم اگر ایش اوزگا
 یوسونلوق بولسا مین وضو قیلایین یوسف آنتلار ایچتی اما مین انینگ آنتینی قاید
 ایناندور مین مین اوزومدا بیطاقت لیق تاپمادیم قویوب باغنینگ بیر بورجیغا
 باریب خاطریمغا کیلتوردوم کیم اگر آدم یوز ییل و اگر مینگ ییل تیریک بولسا
 اخر اولمک دین اوزگا چاره یوقتور اوزومنی اولومگا قرار بیردیم اوشال باقدا
 بیر سو آقوب کیلادور ایدی وضو قیلدیم ایکی رکعت نماز او قودوم باشیمنی
 مناجات قا قویوب تیلایدور ایدیمکیم کوزوم اویقوغا باریبتور کورادور مین کیم
 خواجه یعقوب خواجه یحیی نینگ اوغلی حضرت خواجه عبدالله نینگ نبیره
 لاری روبرویمغا ابلق آت مینیب کوب جماعت ابلق وار بیلان کیلدیلار دیدیلار
 کیم غم بیمانگیز خواجه احرار مینی سیزگا ییباردی لار دیدیلار کیم بیز الارغا
 استعانت تیکوروب پادشاه لیق مسندیغه اولتور غوزوب بیز هر بیردا مشکل ایش
 توشسا بیزنی نظریغا کیلتوروب یاد ایتسون بیز اندا حاضر بولور بیز حالا او شرو
 ساعت فتح و نصرت سیز نینگ یاریدور باش کوتارینگ اویغانینگ اوشال حالده
 خوشحال بولوب اویغاندیم کیم یوسف داروغا و همراه لاری بیر بیرلاریغا
 مصلحت قیلادور لار کیم بهانه قیلیب حيله قیلادور توتوب باغلاملق کیراک بو
 سوزنی مین ایشیتیب دیدیمکیم بیزلار بو یوسونلیق سوزلار سیز اما کوراییم کیم
 قایسینگیز مینیم قاشیمغا کیلا آلور سیز اوشبو سوز نینگ اوستیدا ایدی کیم باغنینگ
 دیواریدین تاشقاری قالین آت نینگ کیلور آوازی کیلدی یوسف داروغا دیدیکیم بیز
 اکثر سیزنی آلیب تنبل قاشیغا بارساق بیز نینگ ایشیمیز ایلگاری بارور ایدی حالا
 ینه کوپ کیشی ییباریبتور سیزنی توتغالی اول تعین قیلدیکیم بو آواز تنبل نینگ
 ییبارگان کیشیلاری نینگ آتی نینگ تاوشی بولغای بو سوزنی ایشیتگاچ منگا
 اضطراب کوپراق بولوب قیلور ایشنی بیلما دیم اوشل حیندا بو آتلیق لار باغنینگ
 ایشیگینی تابارغا فرصت قیلما دیوارنی کیم ایسکی بولغان بیریدین رخنه قیلیب
 کیردی لار کورساکیم قوتلوق محمد برلاس و بابا بوغری کیم مینینگ جان تارتقان
 نوکرلاریم اون – اون بیشی ییگیرمه بولغای بیتیب کیلدیلار بولار یاووق کیلیب
 آت تین اولوینی تاشلاب یراغدین یوکونوب تعظیم قیلیب مینینگ آیاغیمغا
 ییقیلدی لار اوشال حالدا منگا انداق حالت بولدیکیم گویا که منگا یانقی باشتین خدا
 جان بیردی مین دیدیمکیم سیزلار قیدین کیلاسیر نیچوک خبر تابتونگیز قوتلوق
 محمد برلاس دیدیکیم اخسیدین قاجیب چیققاندا سیزدین ایریلا توشگاندا اندیجان
 کیلدیم کیم خانلار هم اندیجان کیلیب کیردی لار مین توش کوردیم کیم خواجه عبد

الله ديدىلار كيم بابر پادشاه كرمان ديگان كينت تا دور باريب انى آليب كيلگين كيم پادشاه ليق مسندى انكا تعلق بولوبتور مين بو توشنى كوروب خوشحال بولوب اولوق خان كيچيك خانغا عرض قىلديم خانلار غا ديديم كيم مينينگ بيش آلتى ييتى اوغولوم بار ينه بير نيچه ييگيت قوشونگيز كرمان طرفدين باديب خبر آليين خانلار ديدىلار كيم بيزنينگ هم خاطر يميز غه ييتادور كيم اوشال يولغا بارغان بولغاي اون كيشى تعيين قىلدىلار ديدىلار كيم اوشال سارى باريب خوب تحقيق قيايب خبر آلينگ باري كيم ظاهراً خبر تاپقاي بيز اوشول سوزدا ايدوك كيم بوغرى ديدىكيم مين هم باريب ايستار مين اول هم ايكي ييگيت اينيسى بيلان اتفاق قيايب آتلاندوق بو كون اوچ كون دور كيم يول كيلا بيز الحمد لله سيزنى تاپدوق ديدىلار.

YIGIRMA IKKINCHI DARS

ABJAD HISOBİ

Arab yozuvida mavjud bo'lgan har bir harf raqam ma'nosini ham ifoda etadi.

Masalan: Alif-bir, be -iklki, dol -to'rt, nun -50, te -400, g'ayn – 1000 – mingga barobar.

Harflar vositasida son tushunchasini ifoda etish abjad hisobi deyiladi. Mumtoz adabiyotlarda muhim tarixiy voqealar, biror shxsnning tug'ilgani yoki o'lgani, biror imoratning qurilgani, asarning yozilgan yilini raqam bilan emas, balki mana shu abjad hisobi asosidagi harflar orqali berilgan. Abjad hisobidagi harflarning son ma'nosi quyidagicha:

ا	ب	ج	د	ه	و	ز	ح	ط	ى
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
ك	ل	م	ن	س	ع	ف	ص	ق	
20	30	40	50	60	70	80	90	100	
ر	ش	ت	ث	خ	ذ	ض	ظ	غ	
200	300	400	500	600	700	800	900	1000	

اَبَجَد هَوَز حُطَى كَلَمَن سَعَفَص قَرَشَت ثَخَذ ضَظَغ

Mazkur abjad hisobini esda saqlash oson bo'lishi uchun arab alifbisidagi 28 ta harflardan tuzilgan 8 ta so'z berilgan. Bu harflar orasida keyin kirgan p, ch, j, g harflari yo'q. Lekin ب-پ, ج-چ, ز-ژ, ك-گ bildirgan raqamlarni anglatadi.

Masalan: Kim – كيم so'zining son ma'nosini bilish uchun abjad jadvalidan kof, yoy va mim harflarini topamiz: 20-ك, 10-ى, 40-م va ularni jamlaymiz $20 + 10 + 40 = 70$ demak, كيم – kim so'zining son ma'nosi 70 ekan.

Mumtoz yozuvchi va shoirlar o'zlari yozgan asarlari yilini so'z bilan

ifodalaganlar. O'sha so'zning harflariga son ma'nolari qo'yilsa, asar yozilgan yil chiqadi. Masalan: "خوش" لفظى دن اولدى حاصل تاريخ چو " خوش so'zida ishtirok etgan uchta harfning son ma'nolarini abjad hisobi jadvalidan topib qo'yamiz.

300-ش, 6-و, 600-خ Sonlarini jamlasak, 906 chiqadi. Bu 906 hijriy yil, melodiylar – 1486 yil bo'ladi.

Ba'zi mumtoz shoirlar aytmoqchi bo'lgan so'zlarni o'z asarlarida son bilan berib yashirganlar, uni topishni kitobxon oldiga muammo qilib qo'yganlar. Shoir Komyob ijadida "bog'", "sh e'r", "qadah" kabi so'zlar yashirilgan chistonlar diqqatga sazavordir.

"Sh e'r" so'zi yashirilgan chistonni quyidagicha ta'riflaydi:

عجب قوش کورمیشم باشی اوچ یوز
بیلی بیتمیش آیاغی هم ایککی یوز
Ajab qush ko'rmisham boshi uch yuz,
beli ytmish oyog'i ham ikki yuz.

Arab alifbosidagi har bir harf ma'lum bir sonni ifodalaydi. Shunga ko'ra sh e'r – dagi sonlarni harf bilan almashtirsak, boshi uch yuz -ش, beliyetmish-ع, oyog'i ikki yuz – ر sh e'r so'zi kelib chiqadi.

O'qing va ko'chirib yozing.

برهان الدين ربغوزی

اوزوم حكايه سى

حكايتدا كىلتورو بتورلار كه شيطان ملعون اوزومنى اوروغىنى اوغىرلادى. هيچ وجه بيلا تاپالماديلار همه حيوان لار دين سوردىلا هيچ قايسى بيلمادى آخرى شيطان نى توت تيلار شيطان ايتتى اوزوم گا اوچ مرته سو قويماقتى منگه بيرسانكىز تاپيب بيراي ديدى نوح عليه السلام قبول قىلديلار اوزومنى اوروغىنى تاپيب بيردى وقتيكه كيمه دين چيقتيلار بارچه اوروغنى ايكديلار اوزوم نينگ اوچ سويىنى شيطان لعين سوغاردى اول تولكى نينگ قانى بيلا اندين سونگ شيرنينگ قانى بيلا اندين سونگ توغوز نينگ قانى بيلا سوغاردى انينگ بيرگان سويدين چاغر بولدى هر كيم چاغر ايچسه اول تولكى بولوب كورماگان كيشى بيلا دوستلوغ آغا قىلور اندين سونگ مست بولغاندا يولبرس ديك بولور همتى جوش بولوب هر كيمگا نيمرسا بيرور اندين سونگ مستراق بولسه توغوز ديك بولوب هيچ ايشدين قورقماس هر قسم يامان ايشلار صادر بولور شيطان بيرگان سولار فعليدور.

اندين سونگ نوح عليه السلام ايكى مرته سو بيردىلا بيرى بهشت زنجبيل دين ايردى اندين شينى پيدا بولدى بيرى سلسبيل دين اندين سرکه پيدا بولدى بو نيمرسالار هر اويدا بولسا اويدىن هرگز فرشته كم بولماس ديديلار.

YIGIRMA UCHINCHI DARS

Tarix san'ati

Abjad hisobida asoslangan, yozuvdagi harflar bilan bog'liq bo'lgan muhim sanalardan biri tarix san'atidir. Tarix san'ati hayotda yuz bergan, xotirada saqlab qolish zarur bo'lgan ayrim hodisalar sanasi abjad hisobi ixcham va unutilmas bayon qilib berish san'atidir. Farzandning tug'ilishi, o'limi, biror yangi binoning qurib bitkazilishi, podsholarning taxtga o'tirishi, urushdagi g'alada, tabiiy ofat kabi voqea-hodisalar kelgusi avlodlarga san'at yo'li bilan nafis ifodalar, so'z o'yinlari orqali yetkazildi.

Ulug' o'zbek olimi Mirzo Ulug'bekning fojiali o'limi tarixdan hammaga ma'lum, ammo ko'pchilik fojiani aniq sanasini esda saqlay olmaydi. Shunday holatda "...voqeaning tarixi nima edi? Degan savol qo'yiladi va javoban voqeaning tarixi "عباس کشت Abbas ko'sht (Abbos o'ldirdi)" bo'lgan, degan ma'lumot beriladi.

Abjad hisobidan xabardor kishilar "عباس کشت Abbas ko'sht" ni darhol eski o'zbek yozuvida ag'daradilar va har bir harfda uning o'z raqami ma'nosini berib hisoblab chiqadilar: birinchi harf ع – abjad so'zida yo'q, hutti, kalamam so'zida yo'q. Sa'fasda bor (ikkinchi harf) ع –70 raqamiga teng. Ikkinchi va uchinchi harflar

(ا، ب) abjadda bor, 2 va 1 raqamlarini anglatadi. (س sa'fas) 60-س, 20-ش, 300-ت hammasini jamlasak, 853 raqami kelib chiqadi.

Demak, Mirza Uluybek 853 hijriy yilida (1449-1450m. yil) Abbas nomli qotil tomonidan o'ldirilgan ekan. Ulug'bekning padarkush o'g'li Abdulatif ham oradan azgina fursat o'tib Bobo husayn degan kimsa tomonidan o'ldirilgan edi. Uning o'limi tarixi ham, "Boburnoma"da qayd etilishicha, o'z qotili nomi bilan "Bobo Husayn ko'sht" bo'lib qolgan.

بابا حسین کشت
 $400+300+20=720$ $50+10+60+8=128$ $1+2+1+2=6$ jamlasak 854 h.q.(1450-1451m.)

Abjad hisobidan foydalanib tarix bayon qilish usullari xilma – xildir. Ifodada nimagaki ishora qilingan bo'lsa, o'sha qism (harf yoki so'zlar) tarix moddasi deb ataladi.

Tarix moddasi:

Alohida – alohida sanab kaltirilgan harflardan iborat bo'lishi mumkin. Ko'zda tutilgan raqam bunday hollarda harflar jamidan kelib chiqadi. Abjad hisobi asosida tarix ifodalashning bu sodda usuliga Durbekning "Yusuf va Zulayho" asari muqaddimasida keltirilgan ishorati misol qilib ko'rsatish mumkin. Asarda asar yozilgan tarixiy sana voqeaning tafsilotiga qo'shib quyidagicha bayon qiladi.

Zod edi tarix, taqi heyu dol,

Muddati hijratdin o'tib mohu sol.

ضاد ایدی تاریخ تقی حی و دال
مدت هجرت دین اوتوب ماه و سال

Misralardagi tarix moddalari **zol**, **he**, **dol** harflaridir. ض zod – 800, ح he – 8, د dol – 4 hammasi 812 ga teng. Miladiy hisobi bo'yicha u 1409-yilga to'g'iri keladi. So'zlar yoki so'z birikmalaridan, bir butun jumladan iborat bo'lishi mumkin. Bunda tarix uchun asos qilib olingan so'zlar o'zining ma'nosini ham saqlaydi. Shu bilan birga, raqam ifodalashga ham xizmat qiladi. Masalan, "Mahbub ul-qulub" asarida Alisher Navaiyning o'zi tomonidan yozilgan tarix mana shu usulda edi:

Bu nomaki, lisonim uldi qoyil,
Kilkim tili har nav el ishiga moyil.
Tarixi "xush" lafzidan o'ldi hosil,
Har kim o'qisa ilohi bo'lg'ay xushdil.

بو نامه که لسانیم اولدی قایل
کیلکیم تیلی هر نوع ایل ایشیگا مایل
تاریخی خوش لفظیدین اولدی حاصل
هر کیم اوقوسه الهی بولغای خوش دیل

Bu yerda tarix moddasi "xush" zo'zidan bo'lib, 906 h.yili(1500m.yili)ni ifodalaydi. So'z, birikma, misra yoki baytdan iborat bo'ladi, mo'ljalidan kamayib qolgan raqam, adibning ishorasiga ko'ra qo'shiladi yoki ortiq bo'lsa, isqot qilinadi. Masalan, shoir Zavqiyning Dukchi eshon haqidagi hajviyasida eshonning o'limi tarixi:

Har kishi bu sho'rishi Farg'onadin so'rsa nishon,
Zavqiy aytur: "Jon" chiqib tarixidur "ig'vo eshon".

هر کیشی بو شوریش فرغانه دین سورسه نشان
ذوقی ایتور: "جان" چیقیب تاریخی دور " اغوا ایشان".

Bunda tarix moddasi "ig'vo eshon" bo'lib 1370 raqamini bildiradi.

Tarixiy asarlarda murojaat qilsak, Dukchi eshon vodeasining 1898-yilda yuz bergani ma'lum bo'ladi. Demak, bu raqam ortiq. Matnga qayta nazar solib: "jon chiqib" ishorasiga e'tibor qaratamiz va 1370 raqamidan "jon" (54) ni chiqarib tashlaymiz: $1370-54=1316$ h.q. $1316:33=39q29$ (40) $1316-40=1276$ $1276+622=1898$ raqami qoladi.

Ijodkorlar taomilida tarixgo'ylar oldiga ma'lum talablar qo'yilar edi. Eng muhimi, tarix aniq va to'g'ri ifodalangan bo'lishi lozim. Agar tarix shaxslarga aloqador bo'lsa, ularning nomi, laqabi, kasb-kori aks ettirilishi kerak. Bino to'g'risida bo'lsa, uning to'rt devor (misra) bilan o'ralgan bo'lishi, o'limga bag'ishlangan bo'lsa, isqoti bilan berilishi (chiqarib tashlanishi), tug'ulishiga atalgan bo'lsa, qo'shuv alomatlari hisob qilingan. Tarixning muammo shaklida, yuksak badiiy mahorat bilan yozilgan

namunalarni katta adabiy asar o'rnida qadrlangan.

Mumtoz adabiyotimizda uchraydigan tarixlar hijriy sanada asoslangan. Hzirgi zamon kitobxoniga hijriy era sanalarini milodiy era sanasiga ko'chirib tushuntirish zaruriyati tig'iladi. Shunga ko'ra biz tarix yechish bilan bog'liq bo'lgan mashqlarimizni keyingi o'ringa surib, sana chiqarish yo'llari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishamiz.

YIGIRMA TO'RTONCHI DARS

YIL HISOB

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, dastlabki yil hisobi misrliklarga taalluqlidir. Mamlakatda yuz berib turadigan qurg'oqchiliklar misrliklarni qattiq qayg'uga solgan. Ular Nil daryosining suvini bekorga isrof bo'lib dengizga oqib ketmasligining chora-tadbirlarini izlaganlar. Nihoyat Misr kohinlari 21 yoki 22 iyun – yoz kechasining eng qisqa kuni sahar paytida koinotda Sirius yorug' yulduzining paydo bo'lishini va buning natijasida Nil daryosining tosha boshlashini aniqlashga muvaffaq bo'lganlar. Siriusning bu yildan keyingi yilga qadar paydo bo'ladigan kunlari 365 kun ekanini hisoblab, uni o'ttiz kundan iborat o'n ikki bo'lakka bo'lganlar, qolgan besh kunini yil oxiriga qo'shimcha ilova qilganlar. Shunday bo'lsa ham yulduzning namoyon bo'lishi har to'rt yilda bir sutkaga kechikkan. Ular kunlarni yana qayta boshdan hisoblab chiqib bir yil 365 kun, olti soatga teng, degan xulosaga kelganlar. Lekin taqvimni o'zgartirmay o'z xolicha qoldirganlar. Bu tuzatishni oradan ancha vaqt o'tgach (meloddan avval 46-yilda) Rim imperatori Yuliy Tsezar amalga oshirdi. Bunda bir oy o'ttiz, ikkinchi oy o'ttiz bir, faqat bir oy – fevral yigirma sakkiz kun qilib olindi. Ana shu qisqa oy – fevralga to'rt yilda bir marta bir kundan qo'shiladigan va shu yil kabisa (orttirilgan) yili deb ataladigan bo'ldi. Bu tuzatish natijasida bir yil 365 kun, olti soat emas, balki 365 kun besh soat, qirq sakkiz daqiqa, o'n to'rt soniyadan iborat bo'lib, bu farq to'rt yuz yilda uch kecha kunduzni tashkil qiladi va taqvimni orqada qolishiga sabab bo'ladi.

1582 yili Rim papasi Grigoriy XIII tomonidan taqvimga yana yangi tuzatish kiritildi. Evropa mamlakatlari asta-sekin shu taqvimga o'ta boshladilar. Faqat Rossiyagina Yuliy taqvimidan istifoda etishda davom etdi. 1918 yilga kelganda Yuliy va Grigoriy taqvimi orasidagi farq o'n uch kunga etgan edi. Maslahat bilan ana shu o'n uch kun tashlab yuboriladigan bo'ldi va 1918 yilning o'ttiz birinchi yanvaridan keyin bira to'la 14 fevralga o'tishga qaror qilindi. Qarangki, yangi taqvim ham unchalik aniq emas ekan. Daqiqa va soniyalar yig'ilib uch ming uch yuzinchi yildan keyin bir sutkaga etar ekan. Hozirda olimlarimiz yanada aniqroq va mukammalroq taqvim yaratish yo'lida izlanyaptilar. Biz hozirda foydalanayotganimiz taqvim ana shu tariqa yuzaga kelgan.

MELODIY YILI

Melodiy yil hisobining boshlanishi Iso payg'ambarning tavalludi bilan bog'liq. Shu sabab isaviya, xristianlik yil hisobi deb yuritiladi. Xristianlik tarqala boshlagan ilk davrda bir qancha yil hisoblari mavjud edi va ulardagi har xillik

tufayli turli noqulayliklar tug'ilgan. Buni bartaraf etish uchun yangi yil hisobi tuzishga ehtiyoj sezildi. Manbalarda keltirilishicha VI asrda Rim monaxi Dionskiy hech bir dalil-hujjatsiz Iso payg'ambarning tavalludini bundan besh yuz yil oldin sodir bo'lgan deya, e'lon qilgan va shundan yil hisobi yuritishni taklif etgan. XVIII-XIX asrgacha Evropadagi ko'pgina davlatlar melodiy yil hisobini qabul qilganlar. Rossiya Pyotr I ning farmoni bilan 1700 yil birinchi yanvardan boshlab melodiy yil hisobiga o'tgan. O'rta Osiyoda bu ish XIX asrning II yarmidan amalga oshirilgan.

Melodiy yili planetamizning Quyosh atrofida bir yil aylanish davri 365, 25 kecha-kunduz hisobidan olingan. Ortiqcha 0,25 kecha-kunduz hisobiga esa har to'rt yilda fevral oyiga bir kun qo'shib yigirma to'qqiz kun hisoblangan. O'sha yili, yuqorida ham aytib o'tganimizdek, 366 kunga teng bo'lib kabisa yili deb atalgan.

HIJRIY YIL HISOBI

Hijriy yili musulmonlar yili bo'lib, 622 melodiy yilidan, ya'ni Muhammad payg'ambarning Makkadan Madinaga hijrat qilgan davridan boshlanadi. Hijriy yili ikki xil yil hisobiga ega. **Birinchisi – hijriy qamariy yil** hisobi bo'lib, oyning er atrofida aylanish davri 29,5 kecha-kunduz hisobidan olingan. Hijriy yil hisobi ham o'n ikki oydan iborat bo'lib, olti oyi yigirma to'qqiz, olti oyi o'ttiz kundan iborat bo'ladi. Bir yil 354 kunni tashkil qiladi. Kabisa yilida o'n ikkinchi oy o'ttiz kun qilib olinadi va buy il 355 kunni tashkil qiladi.

Ikkinchisi – hijriy shamsiy yilidir. Bu yil hisobi erning quyosh atrofini bir marta to'liq aylanib chiqish davriga asoslangan. Shu sabab hisob quyosh kunlari asosida olib boriladi va bir yil 365 (366) kunga teng bo'ladi. Faqat bir oy yigirma sakkiz kundan iborat bo'ladi. Har to'rt yilda bu oyga bir kun qo'shib, yuqorida aytib o'tganimizdek, yigirma to'qqiz kun tashkil qilinadi va shu yili kabisa yili hisoblanib 366 kundan iborat bo'ladi.

Hijriy qamariy yili hijriy shamsiy yilidan har yili 11 kun ortda qolib boradi. Shu sababli hijriy qamariy yilida yil boshi – muharram oyi doim ham bir vaqtga to'g'ri kelavermaydi. Hijriy qamariy yili o'ttiz uch yilda bir davrani aylanib chiqib yana bir vaqtga to'g'ri keladi. Uning o'ttiz uch yili hijriy shamsiyni o'ttiz ikki yiliga teng bo'ladi.

Bundan tashqari hijriy yilda har o'ttiz yil ichida o'n bir kun tuzatish kiritiladi. Ya'ni, taqvimiy oy hisobi oyning haqiqiy davridan daqiqa va soniyalar hisobiga ortda qolib boradiki, bular yig'ilib o'ttiz yilda o'n bir kunga etadi. Bu farqni yo'qotish maqsadida arablar har o'ttiz yilda o'n bir sutka qo'shib o'ttiz yilning o'n to'qqiz yilini 354 kun, o'n bir yilini 355 kun qilib hisoblaydilar. Shunda har o'ttiz yilning 2, 5, 7, 10, 13, 16, 18, 21, 24, 26, 29-yillari kabisa, ya'ni orttirilgan yillar bo'lib 365 kundan iborat bo'ladi. Odatda, kabisa yiliin aniklash uchun uni o'ttizga bo'lish kerak. Qolgan qoldiq yuqorida sanab o'tilgan sanalardan biriga to'g'ri kelsa shu yil kabisa yili bo'ladi. Masalan, 1423 yilning qanday yil ekanini tekshirib ko'rish uchun uni o'ttizga bo'lamiz, $1423:30=47$ bo'ladi va o'n uch qoldiq qoladi. O'n uch yuqoridagi sanalar ichida mavjud. Demak, 1423 yili kabisa yili ekan.

Sharq mamlakatlarida hijriy yil hisobi Muhammad payg'ambar (

s.a.v.) (570-633)ning Makkadan Madinaga o'tgan kunidan, ya'ni 622 yilning 16-iyulidan boshlanadi. Ko'chib o'tish arab tilida هجرت – hijrat deyiladi, yil hisobi esa هجرى – hijriy deb nomlangan. Oy – qamariy va quyosh – shamsiy yillari mavjud. Qamariy yili (354 kun) shamsiy yili (365 kun) dan 11 kun qisqa bo'ladi. Shuning uchun 32 shamsiy yiliga 33 qamariy yili to'g'ri keladi. Hijriy qamariy yilini Milodiy (milod – eramizdan boshlanadi) yiliga aylantirish uchun quyidagi berilayongan formuladan foydalaniladi:

$$\begin{aligned} & HQ \\ & HQ \text{ -----} + 622 = M \\ & 33 \end{aligned}$$

Hijriy – 853 yilni milodiy yilga aylantirish uchun hijriy – 853 ni 33 ga bo'lib, chiqqan sonni hijriydan ayiramiz, hosil bo'lgan songa 622 ni qo'shmiz.

$$1) 853 : 33 = 26 \qquad 2) 853 - 26 = 827$$

$$3) 827 + 622 = 1449 \text{ yil (milodiy)}$$

Milodiy yilini hijriy yiliga aylantirish esa quyidagi formula yordamida bajariladi:

$$M - 622 + \frac{M - 622}{32} = HQ$$

Milodiy (2007) yilini hijriy yilga aylantirish uchun milodiy yilidan 622 ni ayiramiz, so'ng milodiy yilidan 622 ni olib, chiqqan sonni 32 ga bo'lamiz va hosil bo'lgan sonni birinchi ayirma natijasiga qo'shmiz.

$$1) 2007 - 622 = 1385 \qquad 2) 1385 : 32 = 43$$

$$3) 1385 + 43 = 1428 \text{ hijriy yil hosil bo'ldi.}$$

Hozir ya'ni 2007 yil sharq mamlakatlarida 1428 yilidir.

Arab mamlakatlarida qamariy taqvimdan foydalaniladi. Eron va Afg'onistonda samsiy taqvimdan, diniy muassasalarda qamariy taqvimdan, xalqaro aloqalarda milodiy taqvimdan foydalanadilar.

Hijriy-qamariy oy nomlari

oy nomlari		kun	oy nomlari		kun
محرم	muharram	30	رجب	rajab	30
صفر	safar	29	شعبان	sha'bon	29
ربيع الاول	rabiul-avval	30	رمضان	ramazon	30
ربيع الثانى	rabiul-soni	29	شوال	shavval	29
جمادى الاول	jumodi ul-avval	30	ذوالقعدة	zul-qa'da	30
جمادى الثانى	jumodi us-soni	29	ذوالحجه	zul-hejja	29

Hijriy shamsiy taqvim

Hijriy shamsiy taqvimni milodiy yilga yoki milodiy taqvimni hijriy shamsiy sanasiga aylantirish uchun 621(622 yanvar, fevral, mart oylarida) qo'shish yoki olish bilan amalga oshiriladi.

$$\begin{aligned} M-621 &= H \text{ Sh} & 2007 \text{ m.}-621 &= 1386 \text{ hijriy shamsiy} \\ H \text{ Sh} + 621 &= M & 1386 \text{ h.sh} + 621 &= 2007 \text{ milodiy} \end{aligned}$$

Hijriy shamsiy oy nomlari

forscha	afg'oncha	o'zbekcha	Oylar
فروردین farvardin	حمل hamal	qo'y	21.03 – 20.04
اردیبهشت o'rdibehesht	ثور savr	Sigir	21.04 – 21.05
خرداد xo'rdod	جوزا javzo	egizaklar	22.05 – 21.06
تیر tir	سرطان saraton	qisqichbaqa	22.06 – 22.07
مرداد mo'rdod	اسد asad	Sher	23.07 – 22.08
شهریور shahrivar	سنبله so'nbo'la	Boshoq	23.08 – 22.09
مهر mehr	مزان mezon	Tarozi	23.09 – 22.10
آبان obon	عقرب aqrab	Chayon	23.10 – 21.11
آذر ozar	قوس qavs	Yoy	22.11 – 21.12
دی dey	جدی jadiy	Echki	22.12 – 20.01
بهمن bahman	دلو dalv	qovg'a	21.01 – 19.02
اسفند esfand	حوت hut	Baliq	20.02 – 20.03

O'qing va ko'chirib yozing.

ایلان و قارلوغاچ

حکایتدا کیلتور و بتورلار که کیمه ایچیدا اوچ نیمرسا یوق ایردی بیرى موشوک بیرى سیچقان بیرى قونغوز بو اوچ نیمرسا کیمه دا پیدا بولدی سیچقان قاجیب یوریب کیمه نی تیشدی سو چیقا باشلادی کیمه تولوب کیلادور همه لاریدن هوش کیتتی مناجات قیلدیلار خطاب کیلدی که بو سیچقان ایشی دور یولبرس نینگ پیشانه سینی سیلادیلار بور نیدین موشوک توشتی سیچقاننى توتوب ییدی اندین سونگ نوح علیه السلام ایدیلاز بیر کیمرسا بولغایمو کیمه نی تیشیگینی تاپیب بیرکیتگای؟ بیلان ایتتی اگر شو خدمتتی ادا کیلتورسام نیمه بیرور سیز؟ نوح علیه السلام ایتتیلار نیمه تیلاسانگ بیرورمن بیلان ایتتی نیمه نی گوشتی شیرین بولسه شونی بیرسانگیز نوح علیه السلام قبول قیلدیلار بیلان کیریب

ایزلاب تیشیکنی تاپوب حلقه بولوب یاتتی سو توختادی کیرگان سو نی ساجیب اداق قیلدیلار تیشیکنی موم بیلا بیرکیتیپ خاطر جمع بولدیلار وقتیکه کیمه گا کیردیلار کیمه روان بولدی آلتی آی سونی ایچیدا یوردیلار .

وقتیکه کیمه دین چیقیتلارییلان کیلدیکه یا نوح منگا قیلغان وعدنگیزنی بیرینگ دیدی نوح علیه السلام آرونی بویوردیلار باریب هر نیمرسانی گوشتینی تاتغیل قایو نیمرسانی گوشتی شیرین بولسا بیلان غا بیرایلوک .

اول باریب آدمنی گوشتیدین تاتلیراق گوشت یوق ایکان دیب کیلور ایردی قارلو غاچ باریب سوردیکه نیمه نی گوشتی تاتلیغ ایکان آرو ایتدی آدمینگ گوشتیدین تاتلیغ گوشت یوق ایکان قارلو غاچ ایتدی ای برادر تیلینگنی چیقار غیل من تاتیب باقی دیدی تیلینی چیقار غان همان اوزوب آلدی آری گونگ بولوب غینگیشلاب باردی قارلو غاچ هم آرقاسیدین کیلیب توردی هرچند سوز سورسالار غینگشیب قارلو غاچغه قارایدور قارلو غاچ ایتدیکه بیاباندا منگه اوچراب باقه نی گوشتیدین تاتلیغ نیمر سا یوق ایکان دیب حالا کیچ کیلگانیکا سوز لایالماس. نوح علیه السلام بیلانغا باقه نی بویوردیلار اول زماندین بوزمانغه چا بیلان باقه نی بیر بیلان بیلدیکه قارلو غاچ آدم فرزندیکا یخشیلیک قیلدی آرو منگا بولوشدی دیب بیلان قارلو غاچغا دشمن بولدی اول سببدین قارلو غاچ آدم فرزندى بیلان بیر اویدا دیدور.

YIGIRMA BESHINCHI DARS

MUCHAL YIL HISOBI

Muchal yil hisobidan O'rta Osiyo xalqlari qadimdan foydalanib kelganlar. Bu muchal yili hayvonlarning nomlari bilan atalgan 12 yildan iborat. Muchal yili 21- martdan boshlanadi.

Muchal hisobi 12 yilda bir doira qilib ajratib olinadi. Har biri bir hayvonning nomi bilan yuritiluvchi bu yillar sichqon, sigir, yo'lbars, quyon, baliq, ilon, ot, qo'y, maymun, tovuq, it, to'ng'iz tarzida qat 'iy bir tartibda qo'llaniladi. Muchal hisobi yilning hamal oyidan, ya'ni 21-martdan ayriladi va hisob doirasi 12 yilda bir aylanadi. Kim qaysi yilda tug'ilgan bo'lsa uning muchali ham o'sha yil nomi bilan (masalan, falonchining muchali "tovuq" falonchining muchali "quyon" deb) yuritiladi. Tug'ilgan yil takror qaytib kelganda, farzand bir muchalga to'ladi. Bir muchal – 12 yosh, bunda bolaning ona qornidagi hayoti ham bir yil hisobidan qo'shiladi. Muchalga to'lgan bola – 13 yoshda, ikki muchalga to'lgan kishi 25 yoshda deb qaralaladi. Muchal hisobidan foydalangan xalqlar orasida har bir yilning o'ziga xos xususiyatlari – "xosiyati" yoki "ko'ngilsiz tamonlari" borligi haqida har xil gaplar bor. Muchal hisobi o'zbek tili tarixida fors – tojikcha nomlar bilan ham ishlatilgan.

Muchal hisoblashda amal qilinadigan eng qulay usul kishining

tug‘ilgan yili sanasiga 9 raqamini qo‘shib, 12 raqamiga taqsimlash usulidir. Taqsimdan ortib qolgan qoldiq muchal yilining tartibini ko‘rsatadi. Masalan, 1950- yilda tug‘ilgan kishi o‘z muchalini bilmoqchi bo‘lsa, 1950ga 9 raqamini qo‘shadi. Natijani 12ga taqsimlaydi. Taqsimotdan qoldiq qolgan 3 raqami muchal hisobi bo‘yicha 3- yilni ko‘rsatadi. Bu yil “yo‘lbars” yilidir.

$1960+9=1969$ $1969:12=169$ qoldiq 1 Demak tug‘ilgan kishining muchal yili birinchi hayvon ekan.

Muchal yillari jadvali

1	sichqon,mush	موش	1948	1960	1972	1984	1996	2008
2	sigir,baqar	بقر	1949	1961	1973	1985	1997	2009
3	yo‘lbars,palang	پلنگ	1950	1962	1974	1986	1998	2010
4	quyon,xargush	خرگوش	1951	1963	1975	1987	1999	2011
5	baliq,nahang	نهنگ	1952	1964	1976	1988	2000	2012
6	ilon,mor	مار	1953	1965	1977	1989	2001	2013
7	ot, asb	اسب	1954	1966	1978	1990	2002	2014
8	qo‘y, go‘sfand	گوسفند	1955	1967	1979	1991	2003	2015
9	maymun, hamduna	همدونه	1956	1968	1980	1992	2004	2016
10	tovuq, murg‘	مرغ	1957	1969	1981	1993	2005	2017
11	it ,sag	سگ	1958	1970	1982	1994	2006	2018
12	to‘ng‘iz, xuk	خوک	1959	1971	1983	1995	2007	2019

Muchal yilini hisoblab chiqarish qiyin emas. Bunday ma’lumotlar ko‘p gazeta va jurnallarda berib boriladi.

موچل

موچل باشینی بیلای دیسنګ سیچقاندور
سونګرا سیگیرکیین برس و قویاندور
کیینگیسی بالیق سونګرا ایلاندور
سونګرا آت و قوی کیلماگی عیاندور
کیین میمون تاووق و ایت کیلگوسی
تونګوز بیلان موچل تمام بولغوسی

Burj. «Burj» so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, «yasanmoq», «bezanmoq» degan ma’nolarni anglatadi. Ilmi falakiyotda quyoshning yillik harakati doirasidagi o‘n ikki to‘p yulduz nomini bildiradi. Burj nomlari quyidagilardan iborat:

1. Hamal. 2. Savr. 3. Javzo. 4. Saraton. 5. Asad. 6. Sunbula. 7. Mezon. 8. Aqrab. 9. Qavs. 10. Jadiy. 11. Dalv. 12. Hut.

Etti sayyora – Oy, Utorid, Zuhra, Quyosh, Mirrix, Mushtariy, Zuhallar mana shu burjlarni turli vaqtlarda bosib oʻtadilar. Chunonchi, quyosh bir yil davomida, oy esa bir oy ichida mazkur oʻn ikki burjni bosib oʻtadilar.

Manbalardan maʼlum boʻlishicha, turkiy xalqlardagi oylarning nomlari ham burjlardan olingan. Masalan:

Bahor fasli «burji obiy» deb atalgan va oʻz ichiga hamal (21 martdan), «savr» (21 apreldan), javzo (21 maydan) oylarini olgan.

Yoz fasli – «burji noriy» deb atalib, saraton (21 iyundan), asad (21 iyuldan), sunbula (21 avgustdan) oylaridan iborat boʻlgan.

Kuz fasli – «burji bodiy» deb yuritilgan va oʻz ichiga mezon (21 sentyabrdan), aqrab (21 oktyabrdan), qavs (21 noyabrdan) oylarini olgan.

Qish fasli – «burji hokiy» nomi ostida jadiy (21 dekabrdan), dalv (21 yanvardan), hut (21 fevraldan) oylarini oʻzida mujassam qilgan.

Burjlardan qoʻlyozma asarlarning yozib tugallangan muddatini belgilashda, davlat ahamiyatiga ega boʻlgan muhim hujjatlarning bitilgan yoki tasdiqlangan sanasini, hamda biron muhim hodisa yoxud voqealarning sodir boʻlgan aniq vaqtini belgilashda istifoda etilgan. Shuningdek, badiiy adabiyotda ham burjlarning harakati yoki tavsifidan obrazli tasvir yaratishda muvaffaqiyat bilan foydalanilgan. Misol tariqasida Alisher Navoiyning «Sadi Iskandariy» dostonining muqaddimasini keltirish mumkin. Muqaddima tarkibidagi mavjud naʼtda Muhammad paygʻambarning oʻz argʻumogʻi – buroqi bilan maʼnaviy olamga qilgan sayohati tasvirlanadi. Uning samoviy safari osmoni falakning sakkiz charxi falagi, yaʼni sakkizta yulduz toʻplami va burjlar orqali oʻtadi. Navoiyning yuksak mahorati shundaki, u ana shu sayohat orqali koinot goʻzalliklari, yulduzlar turkumi, burjlar, ularning xususiyatlari, holatlarinin haqqoniy tasvirini ham yaratib oʻquvchining koʻz oldida jonli manzara chizadi. Eng muhimi u oʻz kitobxonini koinot sirlariga oshno qiladi.

Navoiy paygʻambar qadami tekkan har bir falak yoki burjni tasvirlar ekan, ularning masnadrishin «hokim»¹ lari sifatlariga hayotiy jonli koʻrinishlardan chizgilar beradi. Inson hayotiga xos ayrim koʻrinishlarni ularning harakatlariga moslab goʻzal badiiy tasvirlar yaratadi.

Chunonchi, Muhammad paygʻambarning buroqi ikkinchi falakka qadam qoʻyishi bilan, Utoridning siyohdonu qalami sinadi. Bu maktab koʻrmaganlar (yulduzlar turkumi)ning mashgʻuloti tezlik bilan ilm oʻrganishdan iborat boʻlib qoladi. (Ikkinchi planeta hisoblanmish Utorid sayyorasi afsonalarga asoslanib adabiyotimizda «falak kotibi» yoxud «shoirilar homiysi» deb atalgan). Yoki uchinchi falak sohibasi Zuhra Muhammad paygʻambarni koʻrgach, aytayotgan qoʻshigʻini bas qilib, chalayotgan udini tezlik bilan chodiriga yashiradi va oʻrnidan turib yoʻl boʻshatadi. (Qadimgi shoirilar «Zuhra» - «Choʻlpon» yulduzini «osmon cholgʻuchisi», «sozanda»si deb ataganlar).

Muhammad paygʻambarimiz shu tariqa har bir sayyorani bosib oʻtgach, uning safar yoʻli endi oʻn ikki burj orqali oʻtadi: «Hamal» Muhammadek mehribon kishini topgach, Muso (paygʻambar) singari choʻpondan voz kechdi. Osmoni falak esa xudi juvozkash Xoʻkiz (savr) singari unga fidoyilik bilan

¹ Qadimgi astronomiyada sayyoralarning (Moh, Utorid, Zuhra, Shams, Mirrix, Mushtariy, Zuhul) oʻrniga qarab, osmon etti qismdan iborat, deb taʼriflanadi va har bir sayyora bir osmonning hokimi, deb ataladi.

atrofida aylanar edi. «Javzo» («egizaklar», «dupaykar» deb ham yuritiladi) ham uning xizmatiga bel bog'lashib, duosiga qo'l ochib turardi. Falakdagi «boshoq» donalari jilvalanuvchi gavharni eslatar, gavhar ham emas, yonib, porlab nur sochayotgan yorug' yulduzlar singari edi. Uning oyoq tomonida «Mezon» joylashgan bo'lib, o'z ishini adolat bilan yuritar edi. «Dalv» esa yo'l ustiga qo'yilgan katta xumlarni suv bilan to'ldirish ila ovora, suvi tugasa o'rniga inju sochish niyatida aylanar edi. Sakkiz falak va burjlarni osonlik bilan bosib o'tgan Muhammad o'z arg'umoni bilan osmonning eng yuksak - to'qqizinchi qavati Arshi a'loga kirib boradi. Ma'naviy safar uning Haq bilan uchrashuvi va undan gunohkor bandalarining gunohini o'tishi hamda osoyishtaligini ta'minlashni so'rab olish bilan yakunlanadi.

Ko'rinadiki, Navoiy bu hayratomuz safar tasviri orqali kitobxonni yo'l-yo'lakay osmon jismlarining holati, haqiqat sirlari, sakkiz sayyora va o'n ikki burj bilan tanishtira boradi. Shu bilan birga, ular tasavvurini o'rta asr astronomik bilimlari bilan boyitishdek oliyjanob maqsadni ham amalga oshira borgan.

Adabiyotimizda «Quyosh Asad burjida» degan gap ham bor. Ma'lumki, asad (iyul-avgust) yilning juda issiq davriga to'g'ri keladi. "Sher ustida quyosh chiqishi" (Sherdor madrasasi) tasviri shunga ishora bo'lib, u shon-shavkatni, qudratni bildiradi. Bu Ibn Sinoning hayot yo'liga ishoradir. Ya'ni u ilimli bo'lib bu yo'lda baxt topdi, qiyinchiliklarga ham duchor bo'ldi. Oxir oqibat ularni bilim kuchi, ilm qudrati bilan engib shon-shavkatga burkandi.

YIGIRMA OLTINCHI DARS

ESKI O'ZBEK YOZUVINI O'QISHGA DOIR BA'ZI TAVSIYALAR

Arab alifbosini bilib olish bilan darhol eski o'zbek yozuvi manbalarini ravon o'qib ketish qiyin, chunki ularning yozilishi va o'qilishida o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Chunonchi, ba'zi qo'shimchalar hozirgi zamon o'zbek tili imlosidagi kabi so'zlarining oxiriga bevosita qo'shilib emas, balki alohida yozilish hollari uchraydi. Ayrim harflar yoki diftonglar so'z boshida kelganda turlicha o'qilishi mumkin. Shu sababli, qo'lyozmalarni to'g'ri va bexato o'qishda o'quvchiga yordam berish uchun quyida eski o'zbek tiliga xos ayrim xususiyatlar ustida to'xtalamiz.

1. Quyidagi qo'shimchalar ko'pincha so'zlarga qo'shilmay alohida yoziladi:

-ni	نى	kishini, xatimni	كېشى نى، خطىم نى
-man	من	Hayronman	حيران من
-lari	لارى	Xulqlari	خولق لارى
-ga	گا	Holiga	حالى گا
-lik, liq	لىك (لىق)	Yaxshiliq	يخشى لىق

-ning	نینگ	Ovchining	آوچی نینگ
- ki (m)	کی(م)	so‘radiki	سوردی کی
-dur	دور	yo‘qdur, zolimdur	یوق دور، ظالم دور
-si	سی	Maynasi	مینہ سی
-sin	سین	o‘ninchisin	اونینچی سین
-g‘a	غہ	qozig‘a, minbarg‘a	قاضی غہ، مینبر غہ
-dan(din)	دن (دین)	Voqeadin	واقع دین
-cha	چہ	Ixtiyorimcha	ایختیاریم چہ
-siz	سیز	Kitobsiz	کتاب سیز

So‘zning oxiriga qo‘shimchalar qay holda qo‘shilishi yoki qo‘shilmasligi to‘g‘risida aniq qoida yo‘q. Lekin shuni aytish kerakki, ko‘p eski o‘zbek yozuvi manbalarida "a" tovushini bildiradigan hoye havvaz va alif harflari bilan tugaydigan so‘zlarga yuqoridagi qo‘shimchalar qo‘shilmay alohida yozilgan.

2. So‘z boshida ی – yo shaklning kelishi

ی shakli bilan boshlanadigan so‘zlar eski o‘zbek yozuvida ko‘p uchraydi. Lekun matn mazmuniga qarab "i" yoki "e" deb o‘qilishi mumkin:

a) ی (alif-yoy) shaklning "i" deb o‘qilishi:

ایکی	ikki
ایچره	ichra
ایدیش	idish
ایلیک	ilk

b) ی shaklning "e" o‘qilishi

ایرکین	erkin
ایگر	egar
ایمس	emish
ای	ey
ایشیک	eshik
ایتیک	etik

v) ی shaklning "i" hamda "e" o‘qilishi:

ایسلیک	islik, eslik
ایشان	ishon, eshon
ایتار	itar, etar
ایلیت	ilit, elit
ایچکی	ichki, echki
ایل	il, el

ایپ ip, ep

g) shakli "ay" diftongini ham bildirib keladi:

ایران	ayron
ایوان	ayvon
اییق	ayiq
ایتسین	aytsin
ایلانمه	aylanma

Shuningdek,

a) ! hamzali zer (kasra) bilan boshlanuvchi arabcha soʻzlarining ham ayrimlarida dastlabki harf "i" yoki "e" oʻqilishi mumkin. Masalan:

إصلاح	isloh
إحتیاج	Ehtiyoj
إقبال	iqbol
إحترام	Ehtirom
إمتحان	Imtihon
إحتیات	Ehtiyot
إخلاص	ixlos
إعتقاد	eʻtiqod

b) Arab tilidagi oʻzlashgan ayrim soʻzlar ع "ayn" harfi bilan boshlangan boʻlsada, "i" deb oʻqiladi. Masalan:

علم	ilm	علاج	Iloj
عمارت	imorat	علت	Illat
عراق	iroq	عشرت	Ishrat
عزت	izzat		

3. Soʻz boshida "0" unlilfrining kelishi

a) sof oʻzbek s oʻzlari ا (alif) bilan boshlanganda "a", آ (maddali alif) bilan kelganda "o" oʻiladi. Masalan:

ارره	arra	آق	Oq
اری	ari	آو	Ov
ارغومچاق	argʻumoq	آش	Osh
اسراش	asrash	آلتین	Oltin

b) eski oʻzbek yozuvi manbalarida baʼzi soʻzlar "a" deb oʻqilsada, aslida bu soʻzlar sof alif emas, balki ع ayn bilan boshlangan boʻladi. Masalan:

afv	عفو	Aysh	عیش
an 'ana	عننه	Alomat	علامت
aql	عقل	Asal	عسل
aks	عكس	Amma	عمه
ahd	عهد	Amal	عمل

v) o'zbek tiliga o'zlashgan shunday arab so'zlari borki, ular "ع ayn" (ع ayn, undan keyin alif) harfi bilan boshlansa ham "o" deb talaffuz etiladi. Masalan:

orif	عارف	Oily	عالی
olam	عالم	Or	عار
oshiq	عاشق	Obid	عابد
ojiz	عاجر	Odil	عادل

4. So'z boshida "u" va "o'" unlilarining o'qilishi

a) او (alif – vov) shakli bilan boshlangan o'zbekcha so'zlar "u" yoki "o'" deb o'qiladi. Masalan:

ukki	اوکی	o'rmon	اورمان
uchqur	اوچقور	o'rik	اوریک
uchun	اوچون	o'ktam	اوکتام
urmoq	اورماق	o'tloq	وتلاق
usta	اوسته	o'zbek	اوزبیک
uzdi	اوزدی	o'g'il	اوغیل
ukasi	اوکاسی	o'smoq	اوسماق

b) او shakli bilan boshlangan quyidagi so'zlar ikki xil o'qilishi mumkin:

uqimoq, o'qimoq	وقیماق
uradi, o'radi	ورادی
uch, o'ch	اوچ

Lekin او (av) bilan boshlangan ko'plikdagi arab so'zlarida bu ikki harfni "u" emas, balki "av" deb o'qish lozim.

birlik	ko'plik
valad-bola	اولاد avlod-bolalar
vaqt-vaqt	اوقات avqot- vaqtlar
vazn	اوزان avzon- vazn
vali-ega, sohib	اولیا avliyo – valilar

v) ba'zi arab so'zlarining bosh harfi "u" unlisi kabi o'qilsada, aslida bu so'zlar hamzali pesh ا (damma) bilan boshlangan bo'ladi. Masalan:

أصول	usul	أسلوب	Uslub
أستاذ	ustoz	ألف	Ulfat
أمر	umaro	أمة	ummat

g) ع Ayn harfi bilan boshlangan ayrim arabcha so'zlar ham shunday xususiyatiga ega:

عذر	uzr	عمر	Umr
عرف	urf	عمومي	umumiy
عقوبت	uqubat	عضوى	Uzviy
عثمان	Usmon	عنصور	Unsure
عمر	Umar	عبيد	Ubayd
عشاق	ushshoq	عزلة	Uzlat

Izoh: 1) Arab tiliga xos bo'lgan ع ه ظ ط ض ص ح ث harflari sof o'zbek so'zlarida او " u " va " o " unli harflaridan so'ng kelmaydi. Demak, او shakli bilan boshlangan so'zlarning asliy o'zbekchaligiga to'la ishonch hosil qilib. o'qish kerak.

2) ا va ع "u" bilan boshlangan arab boshlangan arab so'zlarini buzib "o" deb o'qish qo'pol xato bo'ladi. Chunki arab tilida "o" tovushi yo'q. Shuning uchun O'smon emas – Usmon, o'mumiy emas, umumiy o'qish lozim.

حکمت

غریب لیغ ده غریب بولگان غریب لار
غریب لار حالی نی بیلگان غریب لار
سبب بیرله یراق سیرگا باریبان
قرینداش قدرینی بیلگان غریب لار
سوساگانه سوگا محتاج بولغان
تریکده زار اولوب اولگان غریب لار
کیشنی بیلماس غریب لار حالی نیدور
مگر بیلگای غریب بولغان غریب لار
غریب لیغ قاتیغ ایشدور ای عزیزیم
کیم اول بی قدر اولار مسکین غریب لار
کیل ایمدی احمد اوزونگا باقخیل
غریب سین سین غریب مسکین غریب لار

میرزا اولوغ‌بیک‌نینگ تورت اولوس تاریخیدن کتابیدان

اوغوزخانینگ تورک قوملاریگا لقب قویگانی

مذکور تاریخدا اوغوزخان تورکلارینینگ قوملاریگا لقب‌لار قویدیکه اولار تا حنوز اوشا اسم و لقب‌لار بیلان مشهور دورلار جمله دان، بیر نیچا قومنینگ لقب‌لاری قوییداگیچه مثلی اویغور، قانقلی، قیپچاق، قارلوق، خالاج، چیبوغلار اما **اویغور** نینگ معنی سی (قوشماق) باغلاماق، بیرری بیرری بیلان عهد و پیمان باغلاماقدور بو طافه اوغوزخانگا بیر جنگدا بی سبب مدد بیرگان ایردی شو بئس‌دین اولارگا اویغور دیب نام قویدی

اما **قانقلی** عقل‌لیک، فراست‌لیک معنی سیدور اوزی بیر نارسادین بیر معنی چیقارماقدیر چونانچه، بیر جنگدا اوغوزخان قولیگا جوده کوپ بایلیک اولجا توشگان ایردی غنیمدان هشیار اولجا آلیب اونینگ قلفینی آچا آلمانگدی لشکر داگیلار نینگ توغری فکر یوریتوچی بیر توده سی اورونیب کوریشدی بئترتیب قیلدی‌لار، اول اولجانی آسانلیکچا آچیب تاشلاب، آلدیلار اوز عقل و فراستی بیلان دنیا مشکل لارینی بیچا آلمانلیک لاری سببیدین الارگا قانقلی، دیب لقب قویدی

اما **قیپچاق** قابوق سوزیدان آلینگان قابق بیر درختنینگ نامیدور او درخت ننه سینینگ ایچی کاوک بولادی پوستیدان تاشقاریسیدا کوکلیک یوقدیر یاغاچنینگ ایچی چیریگان، غاوک بولادی ایتادی‌لار که، جنگلار نینگ بیریدا اوغوزخان لشکری شکست ییب‌دور اوغوزخان آدم‌لاری نینگ کوچیلگی قتل اینتیرادی اوغوزخاندان دشمنگا قارشی ضربه بیریش قوتی قالمایدی ناچار احوالدا قالیب، چیکینیشگا یوز توتادی صحرادا ایکی دریا آریغیدا آندان توشادی لشکر‌دا بیر خاتین نینگ قارنیدا حامله سی بار ایردی اول خاتین نینگ ایری و آتاسی اوغوزخان کوزی اونگیدا اوغوزخان دشمنی بیلان بولگان جنگدا اولدیریلگان ایردی‌لار اول خاتین نینگ دردی قوزیب قالدی الاچسیر قالگان خاتین یانیداگی درخت نینگ کاوگیگا کیردی او بیردا اوندان بیر بقوت اوغیل توغیلدی اوغوزخان بو واقعدان خبر تاپگاچ، اولار حالیگا رحم و شفقت قیلیب، دیدی آتاسی و باباسی نی و آتاسی و ایرینیکه بیز طفیلی اولدیریشدی او بیتیم قالدی اوشا اوغیل بالانی فرزدلیککا قبول قیلدی و قیپچاق دیب نام بیردی بوگونگی کونداگی قیپچاق قومینی اونینگ بیر اوغلی نصلیدین دیب بیلادی‌لار

ایتیشلاریچا، اوغوزخان نینگ اوشا جنگیدا ایران والیسی ایت‌براق همراه ایدی 17 ییل اوتگاچ، ایت‌براق اوستیدان غالب کیلدی و ایران نی ایستلا قیلدی بیر نیچا مدت اوتیب، اوغوزخان تورانگا قایتگاندا، ایشیتدیکه، یانا اونینگ دشمنلاری باش

کوتاریبدي فرزندیم ديب اتاگان قیپچاققا بویوردیکه ، اوزیگا یاقیب تابع آدماری بیلا اولار اوستیگا بارگای و ماماق ناحیه لاریدا چیگره مُحافزه سی بیلان قارلیق اوغوزخان غور سرحدیدان توران زمین تامان یولگا چیققاندا، قیش جودا ساووق کیلگان ایردی دشت و صحرانی تمام قار قاپلاب آلگان ایدی او بویوردیکه، هیچ کیم لشکردان آرقادا قالیب کیتماسون اما قار کویلیگی و ساووق نینگ کوچلیلیکیدین بعضیلاری لشکردان آرقادا قالیب کیتدیلار اوغوزخان گا بو معلوم بولگاچ، یانا فرمان بیردی اولارنی تاییب کیلدیلار سوراقلانلاری بیلان باریبیرقالیب کیتگان لار بولدی سوریشتیروب، اولارگا قارلیق ديب نام بیردیلار ایندی قارلیق نجادینی اولار نسلیدان ديب بیلادیلار اما خالاج توغریسی دا دیدیلارکه ، اوغوزخان مملکتلار تَسخری اوچون لشکر تارتگاندا، حُکم قیلدیلارکه، هیچ کیم لشکردان قالیب کیتماسین اوشا اورتادا بیر کیشی بولیب، خاتینی حاملاسیدان قوتولگان ایردی، اما کمقوتلیکدان سوتی یوق ایردی صحرادا بیر شاغالنی کوردیکه، تاووقنی اولاب تورگان ایردی سوتی یوق خاتون نینگ ایری اوشا آدم بیر کالتاکنی آلیب، شاغالگا آتدی توستاووقنی اوندان قوتقاریش و اونی خاتینیگا کباب قیلیب بیریش مقصدیدا ایردی، تا اول خاتوندا سوت پیدا بولگای و فرزندینی سوتدان تویدیرگای اوشا خاتین توستاووق کبابیدان بیگاچ، سوتی کویپیدی و فرزندینی سوت بیلان تویدیردی اوغوزخان اولار احوالیدین واقف بولوب، یول عزابینی تارتگان معنی سیدا بولگان خالاج نامینی اول اوغلیغا قویدی نظم مضمونی شو یوموشدان یوپانیب بیر نیچا آدم ، اوغوزخان ایشیتدی اولاردان شول دم اچچیغلاندى و دیدیکه، کیمینینگ خاتینی ، توغسا، نیچون آرتگا تارتار آتینی شاه زمان اونگا قویدی خالاج نام، معنیسی شول قالیب کیتما، آپاجان

اما چپیورغا ایتادیلارکه ، اوغوزخان سفرلاری نینگ بیریدا شبگیرلیک یوز بیردی بیر بیرگا بیتگاچ، آتدان توشدی و قاراسا ، بیرتوده آدمالار لشکردان اجراب آرقادا قالیب کیتگانلار قاتار آرقاسیدان کیلا باشلاگانلار شو سببدان اول آدمالار نی چپیورغانلار ديب اتادی نظم مضمونی چپیورغان تورکی دا قاتار معنی سینی بیرادی شهریار شوندای ديب خطاب قیلدی اوغوزخان تورکی نجاد قوملاریگا شو ترظدا نام قویدی سین اولار نینگ بارچاسینی تورک ديب بیل، فقط ناملاری تورلیچا بولدی

دابوسی قلعه سی تاریخیدان

دابوسی قلعه سی قدیمگی میان قال واحه سینینگ مرکزی بولیب حاضرگی سمرقند ولایتی پختاچی تومانی حدودیدا زرفشان دریاسی بوییدا جایلاشگان دابوس سوزی مستحکم قورغان دیگان معنای بیلدیرادی قورغان تیمیردای مستحکم قیلیب قوریلگانلیگی اوچون هم او تیمیر قورغان نامی بیلان یوریتیلگان

اون توقیزینچی عصردا یاشاگان بیریک تاریخ چی و گیاگراف عالم الیاقوبی دابوس قلعه سی نی دشمن تیغی اوتمایدیگان مستحکم و مشهور بیر شهر دیب تعریفلادی نرشیخی نینگ (نارشاخی) بخارا تاریخی اثریدا پادشاه تورادیگان کتتا قیشلاق بایکند (پایکند) ایدی قلعه دابوسی یعنی دابوسی قلعه سی بولیب شهر دیب شونی ایتارایدیلار دیب یازادی ۷-۹ عصر لارگا دایر بعضی بیر تاریخی منبعه لاردا یازیلشیچا دابوسیه سوغدیانه نینگ کتتا شهر لاریدان بیر بولیب عرب لار استلاسی دوریدا اوندا ۱۰ مینگ قوشین جایلاشتیریلگان اورتا عصر تاریخی لاری ایستارخی مقدسی لار نینگ یازیشلاریچا ۱۰ عصردا دابوسی قلعه سیدا ربات یعنی شهر اطرافیداگی بینالار ۷۰ گیکتارنی شهر قلع سی ایسا ۲۲ گیکتارنی اشغال قیلگان دابوسی قلعه سی اطرافی بلند و مستحکم دیوار لار بیلان اورالگان دابوسی قلعه سی ۲۳۲۵ ییل ایلکاری بنیاد ایتیلگان دیب تخمین قیلینادی دابوسی قلعه سی جودا قدیمی شهر قلعه بولیشیگا قاراماسدان علمی ادبیات صحیفه لاریدا ۷-۹ عصر لاردان باشلاب تیلگا آلینادی اوشا دور تاریخیچیلاری نینگ یازیشیچا دابوسی ۲ عصردا بخارا و سمرقند اورتاسیداگی اینگ مستحکم قلعه لاردان بیر بولگان قلعه اطرافی کتتا جارلیک لار بیلان اورال گان و بو بیردان هیچ کیم اوتا آماگان ۱۵ عصر تاریخی سی حافظ ابرو دابوسی قلعه سی نی سلطان جلا الدین قوردریگان دیگان فکرنی ایتادی شیبانی نامه تاریخی داستانیدا دابوسی قلعه سی ایچیدا مینگ لاب اویلار بولگان لیگی و اولار جودا مستحکم ایکانلی گی یازیلگان

بویوک ایپاک یولیدا جایلاشگان دابوسی قلعه سی ۹-۱۱ عصر لار دا تیزریواجلان گان و بو بیردان اولوغ کیشیلار عالیم و ایجادکار لار بیتیشیب چیققان دابوسیه شهری بیتتی اقلیم دولت لار بیلان باغلانیب تورگان سودا کروانلاری سمرقند ایشخان کرمنه دابوسیه لیک هنرمند لار تییار لاگان عالی نوع نفیس گزماللار کلالچیلاک متل و شیشه بویوملار و تورلی زیب زینتلاربویوک ایپاک یولی آرقالی دنیانینگ غرب و شرق مملکتلاریگا تارقالگان دابوسیه دا آلتین کوموش و مس نتگالارضرب ایتیلگان.

قلعه ایچیدا ایککیتا حاووز قورال- یارق و آزیق - اوقات انبار لاری اوتخانه لاری کلال چیلاک خومدانلاری بولگان شهر نینگ تورت دروازاسی دان بیتتاسی زرفشان دریاسی تامانیگا قاراگان .

عمارتلار گا ایشلاتیلگان مرمر تاشلار قبر تاشلاری اولارداگی چیرایلی یازوولار آلدیندان بو بیردا سنگ تراشلیک خطاطلیک ریواج تاپگانی نی کورساتادی حاضر دابوسیه شهری خرابه لاریدان بیزگاچا اوشا دوردان قالگان امام بهره آتا مقبره س ساقلا نیب قالگان .

دنیانینگ بیتتی معجزه سی

قدیمگی دنیا نینگ نایاب انشا اتلاری و هیکل تراشلیک یادگارلیکلارینی شوندا دیب اتاشگان افسوس که انسان عقل – ذکاوتی و قولی گل اوستالار یاراتگان بو عجایب یادگارلیکلاردان بیزنینگ دوریمیزگاچا بعضی بیرلاری بیتیب کیلگان مثلا مصر احراملاری پیرمیده لار بولار فرعونلارنینگ (قدیمگی مصر پادشاه لارینی شوندا اتاشگان) مقبره لاریدیر .

احراملارنینگ اینگ یوکساگی خوفو (حیاپس) دیر اونینگ بلندلیگی ۱۴۷ متر میلادان اول ۲۸ عصردا قوریلگان کتتالیگی جهاتیدان ایککینچی اوریندا حفره (حیفرین) پیرمیده سی تورادی او خوفو احرامیدان ۲ متر پست بو احرام آلدیدا باش قسمی آدم باشیگا اوخشاش شیر یعنی سانام توریدی بوسنم (هیکل) سیفینکس دیب اتالادی سیفینکس آبرزی انسان کبی دانالیک و شیر کبی کوچلیلیک رمزینی افادلایدی .

بیتتی معجزه نینگ یانا بیر سیمیرامیده نینگ سماویی باغلاریدیر بو باغلار حاضرگی عراق دولاتی اطرافیدا جایلاشگان بابلدا بولگان بو باغلار پادشاه نووخاداناسا فرمایشی بیلان میلاددان اولگی ۶ عصردا بنیاد ایتیلگان افسوس فرود دریاسی نینگ دهشتلی تاشقینی باغنی ویرانه گا ایلانتردی . کیچیک آسیا نینگ ایفیس شهریداگی یونان خداسی ارتیمیدا عبادت خانه سی دنیا مجزه سی نینگ اوچینچیسی دیر او عبادت خانه مرمردان ایشلانگان بولیب قریب ۱۲۰ ییل دوامیدا قوریلگان میلاددان اولگی ۳۵۶ ییلدا گیراسترات دیگان کیمسا نام چیقاریش مقصدیدا عبادت خانه گا اوت قویادی .

گریسیه نینگ جنوبیدا شهرتی عالمگا تارقالان عبادت خانه بولیب اونینگ توریدا یونانلارنینگ عالی خداسی زیفس قیافه سی تصویرلانگان هیکل اورناتیلگان هیکل جودا اولوغوار بولیب بلندلیگی ۱۴ متر .

دنیانینگ نوبت داگی معجزه سی پادشاه موسال و اونینگ رفیقه سی ارتیمیسیه مقبره سی دیر مقبره سوزینینگ یونانچا نامی ماوزالی پادشاه موسال نامیدان آلینگان مقبره اوچ قوتدان عبارت بولیب مقبره مراسیملار اوتکازیش اوچون مولجالانگان ایدی .

میلاددان اولگی ۳ عصردا راداس اهالیسی و اسکندر ذو القرنین سرکرده لاریدان بیر دمتری آراسیداگی بولگان اوروشدا راداسلیک لار غلبه قازاندیلارانا شو غلبه دان خاطره قالدیریش مقصدیدا کالسس نامی بیلان مشهور هیکل اورناتیلیب او ۳۶ مترلی برانزه دان یاسالگان قویاش خداسی گیلیاس تصویردیر .

بیتتینچی معجزه مصردا نیل دریاسی نینگ دینگیزگا قوییلش چاییدا فراس ارالی بولگان اونی اسکندریه میاگی دیب اتاشگان میاق مناره شکلیدا قوریلگان او اوچ قوتلی بولیب بلندلیگی ۱۲۰ متر ایدی اوچینچی قوتدا گلخن یاقیلیب او

اوزاق مسافه دان کورینیپ توریش مقصدیدا مخصوص کوزگولار اورناتیلگان.

خوقند و خوقندلیکلار

خوقند نی خوقند لطیف کهنه و همیشه نوقران شهر دیب اولوغلاشادی او وادی نینگ آباد شهرلاریدان بیریدیر .

خوقندنینگ یاشی تخمینا ۲۰۰۰ ییلدان آشادی شهر هقیداگی ایلک معلوماتلار ایسا ۱۰ عصردا یاشاب اوتگان عرب تاریخچیلاری کتابلاریدا اوچرایدی ۱۷۱۰ ییلدا خوقند خانلیکلارینینگ ۱۹۱۷ ییلدان باشلاب ترکستان مختاریتی نینگ پایتختی بولگان .

خانلیک دوریدا شهر هنرمندچیلیک و تجارت مرکزیکا ایلاندی اونینگ کوچه لاری توغیری و روان توشگان بولیب آزادلیککاتتیغ اعتبار قیلگان اصلی ایتالیالیک بولگان بینویری نینگ یازیشیچا ۱۷۲۵ ییلی خوقند منطقه داگی اینگ بیریک شهرلاردان بیریکا ایلانگان ۱۸۴۲ ییلدا شهر قلعه دیوارلار بیلان قورشاب آلینگان و شهرنینگ هر بیر دهه سیدا بیتتادان ۱۲ تا دروازه قوریلگان . اوشا پیتلار شهردا ۵۴۰ محله بولیب هر بیر محله اوز مسجدیکا ایگا بولگان شهرنینگ ۱۵ مدرسه سی معدلی خان ناربوتابی حاکم آییم خواجه دادخواه مینگ آییم مدرسه لاری اجرالیب تورگان .

شهرداگی اینگ بیریک تاریخی آبیدا شوبهه سیز خدایارخان اورداسیدور حشمتلی و اولوغوار بو سرای قوریلشی ۱۸۶۳ ییلدا باشلانیب ۱۸۷۳ ییلدا توگاللانگان اوردانینگ عمومی طرحی توغری تورنبورچاک شکلیدا بینا بیردان انچا کوتاریلگان غیشت پایدیوار اوستیدا جایلاشگان بولیب بورچاکلاری برج لار بیلان مستحکملانگان آلدینگی کورینیشی کاشینلار بیلان بیزالگان خانه لاری نینگ دیوارلاری گنج اویماکارلیگی اوستون ایشیک و دروازه لاری ایسا یاغاچ اویماکارلیگی نینگ یوکساک نمونه لاری بیلان بیزاتیلگان شیفتلاری بویاب نقشلانگان نقشلاری خوقاندلیک مشهور اوستالاردان محمد رسول محمد اوغلی ایشلاگان .

خوقند شاعرلار شهری امیر عمرخان بو بیردا ادبی موحیت یاراتیب ادبیات وکیل لارینی دایما قوللاب قوتلاب تورگان شهردان نادره اوویسی گلخنی مقیمی ذوقی فرقت انبر آتین چرخ کی زبردست شاعرلار بیتیشیب چیققان .

خوقند خلقی جودا مهماندوست تانتی اینی اوتا غورورلیدیر خوقندلیکلار اوزلارینینگ شهرلاری بیلان فخرلانیشادی اولار معامله نی اورنیگا قوییشادی خلق آراسیدا تارقالگان خوقندچا ملازمت عبارسی بیجز ایماس .

مبادا خوقانگا باریب قالسانگیز البته چایخانه چا آش بینگ چونغاری نینگ دیوزره گوروچیگا داملانگان آشنی اوزبکستان نینگ باشقا جاییدا اوچراتمایسیز پلاونی ایسا اساسان ایرکاکلار داملاشادی .

خوقند دا اوزبیکانه عرف – عادتلارقاتتیغ ساقلانیب قالگان توی و تانتنه لار اسکیه سیز اوتمایدی خوقند مراد جان احمداف حلیمه ناصیراوه نبی رحیمو رحیمه میرزاخداوه بویوک صنعتکارلار و بویوک عالملا رگا بیشیک بولدی.

خوارزمشاهلار

قاراخانی لار دولتی موار النهر نینگ اجتماعی اقتصاددی و سیاسی ترقیاتیدا یانگی باسقیچنی باشلاب بیردی ترک اهالیسی کورچمانچی قسمی نینگ اوتراقلاشووی، شهرلاری کوپاییشی و هنرمندچیلیک ایشلاب چیقاریشنینگ رواجلانیشی شرایتیدا کوچمانچی همدا اوتراق اهالی منفعتلاری قوشیلیب کیتدی و مرکزلاشگان بیتتا دولت دایره سیدا ایککالاسی نینگ بیرگالیکدا یاشاشی همدا همکارلیگی شکلی قرار تاپدی نتیجه دا ۱۲-۱۳ عصرلاردا خوارزمدا قیسقا بیر تاریخی وقت ایچیدا خوارزم شاهلار دولتی اولوغ جهان دولتیگا ایلاندى. امو دریانینگ سول ساحلیدا جایلاشگان گورگنج شهری ۱۰ عصردا سیبیر و جنوبی روسیه بیلان کروان سوداسینینگ سونگی چگره سی بولگانلیگی تفیلی کاتتا اقتصادی همدا سیاسی اهمیت کسب ایتدی کروانلار بو بیردان اوترار گاچا بارار، او بیردان ایسا ختای گا آلیب بارادیگان یولنینگ نوبتداگی قسمیگا اوتاردیلار باشقا یول بخارا گا ایلتار و بو بیردان ختای همدا هندستانگا یاکه مرو و خراسان آرقالی یاقین شرققا آلیب بارادیگان یوللار ایریلیشیگاچا بیتیب باراردی.

سیردریانینگ قویی آقیمیدا جایلاشگان بولیب، اسلامنی انچا آلدین قبول قیلگان جیند، خوواره و یانگی کند شهرلاری کاتتا حربی – سیاسی و اقتصادی اهمیت کسب ایتدی اولاردا اساسان اوغوزلار و قیپچاقلار یاشر، بوندا اوغوزلار تأسری کوپراق ایردی قیپچاق لار مملکتیدان بخاراگا آلیب بارادیگان کروان یولی اوستیدا جایلاشگان جیند اجرالیب تورار ایردی، اورتا عصر سیاح لارینینگ تأکیدلاشیجا، او کاتتا شهر ایدی خوارزم شاهلار لشکرینینگ اینگ یاخشی حربی قسملاری، سرکرده لاری شو بیردان آلینار، یوقاری لوازملى عملدارلار شو بیردان قیقار ایدی افسانه وی تیکیش اوزینی خوارزم شاه دیب اعلان قیلینیشیگاچا جیند ناییبی بولگان، بو بیرگا اینگ سویوکلای اوغلی نصر الدین ملکشاه نی نایب ایتیب تاینلاگان ایدی ۱۰۹۸ ییلدا سلطان برک یاروق اوزیگا صادق بولگان انوش تیگین نینگ اوغلی محمد نی خوارزم حکمداری ایتیب تأییتلاب، اونگا خوارزم شاه عنوانی نی بیرادی شو وقتدان باشلاب انوش تیگین نی خوارزم شاه لار دولتی نینگ تاریخی باشلانادی محمد خوارزم دا اوتتیز ییل حکمدارلیک قیلدی و وفاتیگاچا سنجر نینگ صادق فقراسی بولیب قالادی همدا اونینگ ایشانچینی قازانادی شو نینگ اوچون محمد وفات ایتگانیدا سنجر اونینگ اوغلی آتسیرنی

سیرا ایکیکلانماسدان وارث ایتیب تأینلادی لیکن او آتسیز خسوسیدا جودا یانگلیشگان ایدی. آتسیز خوارزم نینگ تولا مستقیللیگینی تأمینلای آلمادی قاراختای لار گا اولپان تولا شنی دوام ایتتیرگان حالدا ۱۱۵۶ ییل ۳۰- اییولدا وفات ایتتی نوبتداگی حکمدار ایل ارسلان خراسان نی بویسوندیریپ، آذربایجاندا اورناشیپ آلدی و او بیردا اولگی حاکم نی و سل قیلیپ قالدیرادی عین وقتدا او خوارزم همان اولپان تولا ب تورگان قارا ختای لارگا قارشی آغیر کوراش آلیب باردی او ۱۱۷۲ ییلدا وفات ایتادی اونینگ کاتتا او غلی تیکیش قاراختایلار مددی بیلان تخت نی ایگاللایدی او آتاسی کبی قارا ختایلارگا قارشی کوراش آلیب بارادی تیکیش نشاپورنی، سونگرا خراسان نینگ معلوم قسمینی باسیپ آلدی و خوارزم شاه لار ملکیگا قوشیب آلدی تیکیش اوکاسی سنجر یورک خسته لیگیدان اولگانیدان سونگ ترکیبیگا خراسان، مرو و هرات کیرگان بویوک بیردولت نینگ حکمداری بولیب قالادی تیکیش ۱۲۰۰ ییلی ۳ اییولدا بغداد اوستیگا قوشین تارتگاندا خوارزم و نیشاپور اوتاسیدا وفات ایتادی آرادان اوچ کون اوتیب اونینگ او غلی محمد الاوالدین گورگنج اهالیسی کوز اونگیدا سرای عیانلاری و امرلاری حاضر بولگان بیروضیتدا خوارزم شاه لار دولتی تختیگا اوتیرادی آرادان کوپ اوتمای اونینگ شاه لیگی تحلیکه لی بولیب قالدی محمد نینگ اوگای آغاسی نشاپور حاکمی هندوخان و خوارزم شاه آناسی تورکانخاتون بیلان باغلیق ایدی.

مرغوزی

قصص الانبياء دن

اون برينجي قصه ابراهيم عليه السلام نى واقعہ لاری
 ... ديب دورلار قتلید و رکیم و نیده تور کیشی جمیع عالمغه پادشاه
 بوغان ایردی ایکی سی مسلمان ایکی سی کافر ایردی مسلمان نى بیری سلیمان علیه
 السلام بیری اسکندر ذوالقمرین ایردی کافر نى بیری شداد العین
 بیری نمرود العین ایردی روایت قیلید و لارکیم بیری کون نمرود توش کوردیکیم
 اسماندین بر قوچتار پیدا بولوب کیم یب نمرود نى اورو بختیدین یقتیب
 تشدادی نمرود العین قورقوب او یغاندی ایتیه بیرله جمیع معبرلار نى میغیب
 تعبیر نى سوردی معبرلار جواب بیری دیکیم بات فیتنه بیری اوغول پیدا بولوب ملک
 مملکت لاینگ نى خراب قیلور ديب بوسوز دین نمرود نى کونگیغ بیری و هم توشوب
 ایتی کیم هر خاتون توغسه اوغول بولسا اولدورنگ لار ديب هم اوغول بالار نى اولدور دیلار
 قیز بولسا تیگما دیلار اندین نمرود علیه السلام نى بیزت تراشی بار ایردی الی تاریخ
 ایردی بت قیما خان چون آردیر ایردی لار نى خاتون نى بیچیم بیلاس ایردی بیری کون
 اوغول توغید افتاب تلمت مشتری سعادت قرانغو کیچ نى شعله نوری

روشن قیلور ایردی آنلارینی ابراهیم قیدیلار نمرودنی برلیغیدین قورقوب برتاغ نینگ
 کاواکیغ آلیب باریب قویدیلار اولسه بزم شونده اولسون کوز بیزنی آلدید
 اولدور گونچه دیب تشاب کیتدی لار باش بر ققلارینی آنغیلایغ سالیب
 ایحیب یاتار ایر دیلار آنالاری اوچ کونده تور کونده باریب کوروب ایمنیپ
 یانر ایر دیلار الله تعالی نی قدرتی بیلیمیتی یا شتقه کیدیلار بیر کون آنالاری اوکا آلیب
 بار دیلار آنالاریدین سور دیلار کیم منینگ تنگرم کیم دور آنالاری ایمنی پیدا قیلغان
 تنگرنینگ من دور من ینه سور دیلار سینگ تنگرنینگ کیم دور دیب آنالاری
 ایمنی آتنگ ازردیدیم ینه سور دیلار آتامن تنگرسیم کیم دور دیب آنالاری ایمنی
 آتنگ نی تنگرسیم نمرود دیدیم ینه سور دیلار نمرودنی تنگرسیم کیم دور دیب آنالاری
 ایمنی نمرودنی تنگرسیم بت دیدیم ینه سور دیلار بت نی کیم قیلغان دیب آنالاری
 ایمنی بت نی آتنگ قیلغان دیدیم ینه سور دیلار مخلوقنی خالق قیلماي
 خالق نی مخلوق قیلوردهو مخلوقنی قیلغان خدایک کارار مودیب آنالاری تیک
 توردی بو واقعنی ازرفه ایتی ازربو دیکه ینه ایلتیب اوشال کاواکغه قویوب
 یانغیل سزغه ضرر قیلور دیدیم آنالاری ینه شونده ایلتیب قویدی انده اولتور دیلار
 بیلاس ایر دیلار تنگرسیم کیم دور بیر کون کاواکدین حقیق بآینی کور دیلار عالم نی

شعله می سید روشن قیلیب دور یولدوزلار هم بار اینی لار کیم بول یرو آسمان نی
 یراتگان شولدور و دیب سجه قیلدیلاز بیر زماندین کیین ییگرا باتیب یوق بولوب
 کیتدی ایدیلار تنگریم بو ایماس ایکان تنلری بولسه ایدی ییگرا کیریب کیتاس
 ایدی دیب تور و ب ایدیلار آفتاب تابان پیدا بولدی عجب بیر شان
 شوکت لیک تنگری شول دیب نه سجه قیلدیلاز کون هم باتیب ییگرا
 کیدی بو هم تنگری ایماس تنگری لیک کایر اماس مونینگ هم یراتگان ایگاسی باردور
 دیب حضرت حق سبحانه و تعالی غه کو نکل باغلاب کوز تکیب تور دیلاز خطاب
 حضرت الهی بولدی کیم ای ابراهیم اولار غه باور قیلماس سن کیمگا سجه قیلور سن
 دیدی حضرت ابراهیم ایتی که ییرو کوک و جمیع مخلوقات و موجودات نی و منی
 یراتگاندور شونگا سجه قیلور من قرآنه تعالی ائی و جئت و جھنی للذی فطر
 السموات و الارض خینفا و ما انا من المشرکین دیدی و قتیکه سکیز یا شمه
 کیردیلاز اتالاری نه آلیب باردیلار نیچه کونین کیین اتالاری بر بت قیلیب
 ساتقالی بازار غه چیقاردیلار مونچ تنگ گاساتیب کپلمکیل دیدی سوردیلار
 موننی نیمه قیلا دور کیم الودور ایتی که اولار هم سن آدم یوق سیز ده کته
 بولدونگ بیلماس سن بو خلق نی خدایی دور بیر نینگ هم خدایمیز دور

دیدی ابراهیم علیه السلام بت نی آتالارینی الیدین ناری آلیب باریب
 بوینیغه بیرایپ باغلاب سمودراب بازارغه آلیب باریب قیچقیر دیلار کیم
 خریدار بار موسن مونداغ نیمر سه دور کیم ایشیتکالی قولاغی یوق کورگالی کوزی یوق
 تو تقالی قولى یوق یورگالی آیاغی یوق هر کیم آله ضرر بولغای هر گز فایده سی
 بولمغای دیب قیچقیر و ایر دیلار القصة بیر یگاکیلیب قضای حاجت غه
 اولتور و بولوب دیوارغه تایاب قویوب اولتور و ب ایر دیلار برایت کیلیب
 بت نی باشیغه سییب کیتی اندین نیه سمودراب آلیب کیلیب آتالاریغه
 ایتی لار کیم ای آتا بول نچوک تنگری بولور باشیغه ایت سییب اوتار کوزی
 کورماس دیدیلار آتالاری ایتی کیم ای ابراهیم بیزنی خداییمیزنی مونداق سمودراب
 بولغاب یورور سن دیدی ابراهیم علیه السلام ایتی لار ای آتا اول اگر خدا بولسه
 سمودراغان بیله سمودر الور مو و بولغاغان بیله بولغانور مو بو اوزونگ یغاچدین سیانان
 نیمر سه دور هر گز تنگری ایماس تنگری دیگان همیشه حاضر دور تنگری دیب آسماننی
 سیرنی آی و کون و یولدوز و دریالار و تاغ لارنی و جمیع موجودات و مخلوقات لارنی
 یراگاننی ایتور لار ...

یگرمه سکینز نیچی قصه حضرت لقمان نینگ واقعه لاری ترور
 حضرت لقمان حضرت داود علیه السلام نی وقتلاریده بار ایردی لار زات لاری
 حبش دین ایردی اقا بیر ذریه گرنی قلی ایردی لار خدایتعالی غه کوپ طاعت قیلغان
 سبب لاری دین اوج مینگ بیش یوز یا شده ولاری تمام بولدی بیر کون توش
 وقتق ایردی خدایتعالی اکی فرشته نی یباردی کیلیب ای دیلار ای لقمان خاها سنگ
 پیغمبر بولغیل خاها سنگ علم حکمت نی تعلیم بیرای دیدیلار حضرت لقمان ای دیلار
 پیغمبر لیک اولغ یول دور علم حکمت دین کوپ کیشینی حاجتی چیقار دیدیلار
 اندین بو فرشته لار علم حکمت نی تعلیم بیر دیلار جمیع پادشاه و اهل عالم بولار کا
 محتاج بول دیلار حضرت لقمان علیه السلام بیر کون تمام خلائق کا نصیحت قیلیب
 اولتوروب ایر دیلار بنی اسرائیل اولغ لاری ده بیر کرمه کوردیکه خلائق لار بیر
 ییر گایغیلیب دور کیلیب لقمان نی کوروب سور دیکه ای لقمان بو مرتبه نی
 قیدین تاپدینگ حضرت لقمان ای دیلار راست یولغیور گانیم دین تاپیم دیدیلار
 حکایت قیلیب دور لار که بیر کون حضرت لقمانی خواجه لاری بغدادی ایلغیل
 دیب بو یوردی بو کیشی ارفه اکی تیلار خواجه لاری کوروب ای دیکه من بغدی
 ایلغیل دیسام سن ارفه اکیب سن دیدی حضرت لقمان ای دیلار ارفه اکی

بغدادی چیتا سمو دیدیلار خواجهلاری ایکیکه قحان ارفدین بغدادی چیتان بهر کور کانه من
دیدى حضرت لقان ایدیلار انداق بولسه نه او چون یا تللیغ قیلیب یخشیلیغ
امید ایتار من دیدیلار بوسوز بید خواجه گناه دین یاندی.

حضرت لقان خلق غه کوپ منفعت یتیکورور ایردیلار هر کیشی پول و
مال قرض آلسه بی گواه بیرور ایردیلار بیر کون بیر آدم کیلیب مینگ مشقال آلتون
قرض آلدی کونکلیده قصور قیلدیکه بیرای دیب آلیب باریب بیر قزیل
لتگا اوراب یانیده قویوب ایردی گوشت فحم قیلیب بیر قرغه آلیب
قاجتی آلیب باریب حضرت لقان نی آدیلا ریغه تامشلا دی کورمه لار که
اوزلاری کیشیغه بیگان آلتونلار یدور آلیب اویده قویدیلار اول کیشی ینه
کیلیب مینگ مشقال آلتون کراک دیدی ینه مینگ مشقال آلتون ایردیلار
کونکلیده ایدیکه اوله هم کیشی یوق ایردی الحال هم یوقدور دیب نیت قلب
میله بر اولغ سو دین اوتوب بارور ایردی آلتونی قولیدین سهو تو شوب کیتدی هر چه
ایستاب تا پالمدی اول کیچ حضرت لقان غسل قیلما قغه تو شوب تاپیب آدیلا
آلیب باریب اویلا یده قویدیلار اول کیشی ینه مینگ مشقال آلتون لازم دیب
کیلدی ینه ایردیلا ینه یان نیت قیلیب ایردی یانیدین تو شوب قالدی

کوچہ حضرت لقمانہ اوچرادی انی ہم آلیب باریب اویہ قوییلار القصہ تور تو نچی
 نوبت ملاحظہ قیلیب ایدیکہ لقماندین اوج مینگ مشقال آلتون قرضدار بولیم نین مینگ
 مشقال آلتون آلیب سوداگرچیلیغ قیلیب اوزوم نی قوتقارای دیب نین مینگ
 مشقال آلتون آلیب ایردی یوق بولادی اندین سوداگر لیک قیلیب فایہ کوروب
 تورت مینگ مشقال آلتون آلیب حضرت لقمان علیہ السلام نی خدمت لاریغہ
 آلیب کیلیب آدیلا ریدہ قویدی حضرت لقمان بیر مینگ مشقال نی آدیلا راندین
 قالغان نی آلا دیلار بو آدم حیران قالدی سور دیکہ نہ اوچون مونداق قملور سیز دیب
 ایدیلار کہ مندین آکان پولینگنی اوج مینگ مشقالی اوزیمغہ تیگان دور مینگ مشقال حقیم
 بار ایردی انی آدیم دیدیلار بو کیشی خوشنود بولوب اوج مینگ تنگ نی آلیب جوادی

حکایت قیلیب دورا کریم لقمان حکیم اوغول لاریغہ اوج وصیت قیلدی لار اول
 شولکہ خاتونغہ ہرگز سرنیگنی ایماغیل وینہ ہرگز نوکیسہ دین قرضدار بولماغیل وینہ ہرگز چو غالغہ
 آشنا بولماغیل دیدیلار فرزندلاری بو اوج وصیت نی امتحان قیلماق اوچون بازار دین
 بیر قوی آلیب سو یوب قافغہ تیقیب آلیب خاتون یغہ ایدیکہ بیر آدم بیلہ اوروشوب
 اوروب ایردیم اولوب قالدی حیران بولوب قورقوب موندہ کیلتور دیم دیب

آشنانه سیغه کومدی اندین نوکیسه دین برنیم سره قرض آلدی اندین باریب بر چو خالغه
 آشنا بولدی اندین لوی سیغه کیلیب بر بهانه بیلده خاتونینی اوردی اولدورور من دیدی
 خاتونی داد فریاد قیلیب پادشاه غمباریب ایدیکه ایریم کیچ بر آدم نی اولدوروب آشنانه گاه
 کوموب ایردی بوکون منی هم اولتورور من دیب ایردی قاجیب مونده کیلدریم دیدی
 پادشاه کیشی بو یورگونچه بولای اول دوست بولغان سپاهی من او بی نی کورگانه دمی
 پادشاه بو یوردی باریب کوپ ایزاو اهانت ایردی حضرت لقان نی اوغول لای
 ایدیکه هی دوستوم منی قویونگ بولمس اولدورور لار دینب یالباردی اصلا اونامادی
 غیر کیشیدین زیاده تعدی قیلور ایردی بوسوز بیلده پادشاه گاه بارور ایردی یولده
 نوکیسه او شلاب ایدیکه امدی سنینگ اولدورور لار منی پولومنی برگیل دیب
 کوپ ایزاو اهانت لار ایردی بو صفت بیلده پادشاه نینگ آدیغه کیلدیلار
 پادشاه سوردیکه ای لقاننی اوغلی نه اوچون مونداغ ایشلارنی قیلدینگ ایدیلار هیچ
 ایش قیلغانیم یوق انده خاتونی ایدی بر کیشی نی اولدوروب قاف بیلده آشنانه گاه
 کومادینگم و دیب سرزنش ایردی شول زمان پادشاه ایکی اوچ سپاهینی بو یوروب
 کومکان جاییدین قاف بیلده دوروب باردی قافنی آچیب کورسلا بر قوینی
 گوشتی چیقدی پادشاه حیران قالدی بونه واقعه دور منگار استینی اغیل دیدی

بوکیشی ایدیلار آتام اچ وصیت قیلیب ایر دیلار اول وصیت بودور که
اصلا ذاتونغه سزینگنی ایتماغیل سپا بی بیله آشنا بولمغیل وینه نوکیسه دین قرضدار
بولمغیل دیب ایردی لار انی امتحان قیلماق اوچون بو ایشلارنی قیلیب ایردی
آتامنی سوزلاری راست کیلدی دیدیلار پادشاه بوسوزنی ایشیتیب معقول
بولوب کوپ التفات لار قیلدی.

عبدالله اولانی تورکی گلستان یا خود اخلاق دن اخلاق

انسانلار نینگ یاخشیدیکنه چاقیر کوچی یا مانلیکدن قاتار
کوچی بر علم دوز یا خشی خلق لار نینگ یاخشیدیکینی، یا مان
خلق لار نینگ یا مانلیکینی دلیل و مثال لار ایله بیان قیلادوگان
کتابنی اخلاق دیلور اخلاق علمینی اوقوب بیلوب عمل
قیلگان کیشی لار اوزی نینگ کیم ایکانین جناب حق نه اوچون
خلق قیلگانین سیر یوزیده نیمه ایش قیلماک اوچون یوگانین
بیلور. بر کیشی اوزیدن خبردار بولماسه علمنی، علمانی،
یا خشی کیشی لارنی، یا خشی نمرسه لارنی، یا خشی ایشلارنی
قدرینی، قیمتینی بیلماس. اوز عیبینی بیلوب اقرار قیلیب

تۇزاتمىغۇ سەئى و كوشش قىلگان كىشى چىن بھادور و
 پھلوان كىشى دور رسول اكرم نبى محترم افنديمىز
 مىزان ترازوسىگە قويادورگان عمل لارنىڭ اىچىدە ياخشى
 خلق دن آغىر رانغى يوقدور. مؤمن بنده ياخشى خلقى سېلى
 كوندوزلارى روزه توتوب عبادت قىلگان كىشى لار درجه
 سىگە يىتار » دىمىشلار

سويلاسانگ سويل ياخشى سوزلاردن
 يوقسە جىم تورماقنىڭ ايرور ياخشى
 اويلاسانگ ياخشى فكلرلار اويلا
 يوقسە گنگ بولماقنىڭ ايرور ياخشى
 ايشلاسانگ ايشلا ياخشى ايشلارنى
 يوقسە يىكارلىقنىڭ ايرور ياخشى

یاخشی خلقلار

یاخشی خلق: بیر قسمی اوز نفسمیزگه بیر قسمینی بیر
بیریمیزگه قارشو ایشلاتمک اوچون کیرکلی بولگان یاخشی
خلقلار: فطانت، دیانت، اسلامیت، نظافت، غیرت، ریاضت،
قناعت، شجاعت، علم، صبر، حلم، ایظام، مقیاس نفس،
وجدان، وطنی سویمک، حقانیت، نظر عبرت، عفت، حیا،
اوراک و ذکا، حفظ لسان، اقتصاد، وفا، خوف و رجا،
اطاعت، حق شناسدیک، خیرخواهلیک، منس لیک، صداقت،
محبت و عفو دور، مننه، بویازو نفسمیز یاخشی خلقلار عقل و شرع
شریفه موافق الله تعالی هم بنده لار قاشیده مقبول و معتبر دور.
ایمدی بویاخشی خلقلارنی قولگه آلماک اوچون آتا آنا، معلم،
استادلاریمیز حضرتلارینینگ حکمتلی نصیحتلارینی جان قولانغی

بیرله تینگلاب دایم خاطره توتماق، اخلاقی یاخشی کیشی لار برله
 آفت بولمک، اخلاقی بوزوق یامان کیشی لارون قاقچاق
 لازم دور: بیزم شریعت اسلامییه ده «اخلاق حسنه» یاخشی
 خلقلار ایله خلقلانمک، هر نرسه که عبرت کوزی ایله باقوب
 خلقتنی توزاتمک واجب دور. رسول اکرم نبی محترم صلی الله
 علیه وسلم «اسلامیت ده بوزوقلوق یوقدور بوزوقلقتنی اوستیگه
 آلوئم یوقدور. اسلامیت ده اینک معتبر کیشی لار یاخشی
 خلق ایگالاریدور» دیمیشلار.

بیت

یاخشی برله یورسه هرکیم مقصودی حاصل بولور
 یورسه نادانلار ایله بیر کون باریب قاتل بولور
 کاتته لار قیلگان نصیحتنی کیچیک لار آلمسه
 عاقبت خلقتی بوزوقتی بیر بی ادب جاحل بولور

تاریخ انبیا و حکمادان

اصحاب کهف و بعضی متفرق اخبار
اصحاب کهف بابدا اختلاف کوپتور مختصری بود و در کیم
یونان ملکیده اقوس شهیردا دقیانوس آتلیغ ملک جبار
بار ایرمیش کیم بعضی دیب دورا کیم بوتپرست ایرمیش
او الوحیت دعوسی قیلور ایرمیش و بو اصحاب کهف
بعضی روایت بیلد اینگ ملکی نینگ بزرگ زاوه لاری و
بعضی روایت بیلد نواب لاری و ملازم لاری ایرمیش لار
و مسلمان ایکاندور لار و یاشورون تینگری تعالی عبادتین
قیلور ایرمیش لار دقیانوس بو حال دین واقف بولوب
الارینگ قتلی فکری دا بولمیش آلا بو حال نی معلوم

قیلیب اتقاق بیده شهزلاری دین قاقیب ایل یولو قور
 وحمیدین یول سیز بیا بانغه توشوب بیر قویچی غه اوچرب
 قویچی داغی الارغه قوشولوب قویچی نینگ ایتی مم قوشولوب
 رقیم آتلیغ غارغه کیرمیش لار و الارینگ عدیده تردد بار
 نچوک کیم کلام مجید خبر سیرور کیم **سیقولون ثلاثة**
ربهم کلهم ویقولون خمسة و سادسهم
کلهم رجماً بالغیب ویقولون سبعة
و ثامنهم کلهم هر تقدیر بیده غارغه کیریب حق تعالی
 الارغه اویقونی مستولی قیلیب الار اوج یوز توقوزیل
 اویومیش لار **ثلثمایه وازداد واتسعا**
 اول مدت دا دقیانوس جهنم غه باریب نیچه پادشاه
 گمردش لار بواب بیر خدا پرست عادل پادشاه غه سلطنت

بىرىپ دوركىم دقيانوس چاغىدا بوجماعت غارغە كىرىپ
 اوج يوز توقوز يىل اوتوب سىنىگ زماينىگدا اويغانغاي لار
 پادشاه بو ايش دىن مسرور بولوب تەملىنغانغە يول باشلايتىب
 اصحاب كەف صحبتى غە مشرف بولوب الار طعام سىپ
 تىنگىرى تعالى غە سجدات شكر قىلىپ ىنە اويقوغە بارىشلار
 اويوقلاغاچ روح لار ىن قابض ارواح حق تعالى امرى بىلە
 قبض قىلمىش اول پادشاه غار ايشىكى دا اولوغ گنبد
 ماساب الارنى مدفون قىلىپ اول سىر خلائق قە عظيم
 مەبد بولمىش .

یتکان دا اصحاب کھف تینگری تعالیٰ امری بیلہ اویا نمیش لار
 و تمیلنی دیگان رفیق لارین شھرغہ ییبارمیش لار طعام کیدتورورگا
 چون اول رفیق غار دین چقیب یول لار وضین اوزگا چاکوروب
 شھرغہ یتگاچ شھر اوضاعین متغیر تاپیب خلائق نی عیسی
 علیہ السلام دینی غہ فھم قلیب متحیر بولمیش بالضرورہ
 طعام آکودا درم چقارغاچ دقیا نوس گنجینی تاپیب سین دیب
 آنی توتمیش لار کوپ ماجرا دین سونگرا پادشاہ قاشیغہ
 ایلتمیش لار اول فقیر متحیر اوزگا پادشاہ اوزگا خلق کوروب
 حیران ایرمیش پادشاہ اینگ حال کیفیتین سوروب
 اول فقیر ہر سوزکہ اوز حالی دین ایتور عجب کورونور پادشاہ
 علمانی یغیب بو باب دا قیل و قال قلیب سونگرا لار
 دیمیش لار کیم عیسی علیہ السلام انجیل دا بو حال دین خبر

مشرب غزل لار

ازلدین تا ابد دوست لار همیشه آه دیب کیلیم
تیلیمه ربی الاعلیٰ ینہ اللہ دیب کیلیم
که سن اولاد پیغمبر آتینگیز حضرت آفاق
که نوید قیلما غایدار کیم اولوغ درگاه دیب کیلیم
ازلدین منگا سالدی اوشبو اوتنی ای مسلمانلار
انی اوچون کویارمن تونکون یوز آه دیب کیلیم
عدایت کورگوزونگ آفاق خواجه پشت پناهم سیز
اوشکان یولده قالکان مین غریبکاره دیب کیلیم
کیل ای مشرب امید ایتکیل که عفو ایتکای گناچینگنی
حسن برله حسنین حرمتی اول شاه دیب کیلیم

Adabiyotlar

1. Abdurahmonov G'. Shukurov Sh. O'zbek tilinnig tarixiy grammatikasi. Toshkent, 1973
2. Ashirboev S. , Azimov I. , Rahmatov M. , G'oziev A. Eski o'zbek tili va yozuvi praktikem. "Ijod" nashriyoti uyi Toshkent, 2006.
3. Abdusamatov M. Eski o'zbek yozuvidan rasmlil alifbo. Toshkent, 1991.
4. Ishoqov F. Eski o'zbek tili va yozuvi. Toshkent, 1995.
5. Mirzakarimova O'. Eski o'zbek yozuvi. Toshkent, 1995.
6. Mirazkarimova O'. Qodirov M. Eski o'zbek tilidan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent, 1988.
7. Boboqulov G'. Eski o'zbek yozuvi. Toshkent, 1989.
8. Hamidov Z. "Eski o'zbek tili va yozuvi " Toshkent, 2001.
9. Rustamov. A. Qodir. M. "Eski o'zbek yozuvi va tili" 5-sinf uchun darslik.- T.:O'qituvchi. 1994.-128b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Umarov E.A. Eski o'zbek lug'atlari. –T., 1992, 36 b.
2. Umarov E.A. Vokalizm starouzbekskogo yazika XV v.-Tashkent: 1991.
3. Fozilov E. Qadimgi obidalar va Alisher Navoiy tili. –T.,1969.
4. Jumaniyozov R. Eski o'zbek yozuvi. Toshkent, 1989.
5. Abdulxayirov M. 1001 so'z eski O'zbek yozuvini o'rganuvchilar uchun lug'at. Toshkent, 1991.

MUNDARIJA

Uqtirish xati	3
Soʻz boshi	4
Amaliy darslar. Birinchi dars.	5
Ikkinchi dars	9
Uchunchi dars	10
Toʻrtinchi dars	11
Beshinchi dars	14
Oltinchi dars	15
Yettinchi dars	17
Sakkizinchi dars	18
Toʻqqizinchi dars	20
Oʻninchi dars	23
Oʻn birinchi dars	26
Oʻn ikkinchi dars	30
Oʻn uchunchi dars	33
Oʻn toʻrtinchi dars	35
Oʻn beshinchi dars	39
Oʻn oltinchi dars	43
Oʻn yettinchi dars	46
Oʻn sakkizinchi dars	49
Oʻn toʻqqizinchi dars	53
Yigirmanchi dars	55
Yigirma birinchi dars	58
Yigirma ikkinchi dars	62
Yigirma uchunchi dars	64
Yigirma toʻrtinchi dars	66
Yigirma beshinchi dars	70
Yigirma oltinchi dars	73
Oʻqish koʻnikmasini oshiradigan matnlar	78
Adabiyotlar roʻyxati	104

Murodov N.

Eski o‘zbek tili va yozuvi

O‘quv qo‘llanma Termiz davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrası va universitet o‘quv ilmiy-metodik kengashi tomonidan 2006-yili nashrga tavsiya etilgan.

(to‘ldirilgan qayta nashr)

Mas‘ul muharrir
Texnik muharrir
Musahhih

J.Omonturdiyev
O‘.Xoliyorov
R.Bozorova

Terishga berildi: 10.03.2013y. Bosishga ruxsat etildi: 24.03.2013 y. Bichimi 30x42 ¹/₈ . 9,2 bosma toboq. Termiz davlat universiteti kompyuterida terildi va sahifalandi.

Adadi 100. Manzil: Termiz sh. F.Xo‘jaev ko‘chasi. 30- uy.

112,1,110,3,108,5,106,7,104,9,102,11,100,13,98,15,96,17,94,19,92,21,90,23,88,25,86,27,84,29,82,31,80,33,78,35,76,37,74,39,72,41,70,43,68,
45,66,47,64,49,62,51,60,53,58,55

2,111,4,109,6,107,8,105,10,103,12,101,14,99,16,97,18,95,20,93,22,91,24,89,26,87,28,85,30,83,32,81,34,79,36,77,38,75,40,73,42,71,44,69,46,
67,48,65,50,63,52,61,54,59,56,57